

G'offorov Shokir Safarovich

«O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI» FANIDAN

O'QUV QO'LLANMA



**Kitob quyidagi ko'rsatilgan
muddatda topshirilishi shart**

**Oldingi foydalanishlar
miqdori**

| | |
|--|--|
| | |
|--|--|



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“O'ZBEKISTON TARIXI”
KAFEDRASI

G'offorov Shokir Safarovich

«O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI»
FANIDAN

O'QUV QO'LLANMA

Bakalavriat: 5120300-Tarix(jahon mamlakatlari bo'yicha) yo'nalishi

4-kurs talabalari uchun

SAMARQAND – 2021

UDK
BBK
G'

G'offorov Shokir Safarovich. O'zbek davlatchiligi tarixi.
O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021y. – 150 b.

Ushbu o'quv qo'llanmasi Vatanimiz tarixining qadimgi tosh davridan boshlab, hozirgi kungacha bo'lgan ulkan davrni o'z ichiga oladi. Mazzularni yoritish jarayonida muammolarning tub mohiyati, tarixiy madaniy jarayonlarning asoslari, omillari, rivojlanishi, sabablari, oqibatlari va natijalarining sharhiga e'tibor beriladi. Shuningdek, mualliflar Vatanimiz hududida bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar haqida xolisona xulosalar chiqarishga intilganlar.

Muallif tarixiy manbalar, ilmiy tadqiqotlar va tariximizga oid adabiyotlarni o'rganish asosida, boy va sarmazmun uzoq va mashaqqatli tariximizni sodda va tushunarli tarzda yetkazishga harakat qildilar. Albatta, ushbu qo'llanmada bayon qilingan tarixiy davrlar, voqealar, bosqichlar hamda sanalar hozirgi mustaqillik davri nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan va xolis baho berilgan. Biroq ularni yoritishda o'quvchi-kitobxonlarda muayyan takliflar, fikr-mulohazalar tug'ilishi mumkin. Kitobni yanada mukammal holga keltirish, to'ldirish hamda fundamental darajada takomillashtirish yuzasidan fikrlar bo'lsa, bajon-u dil qabul qilamiz.

Mas'ul muharrir:

Eshov B.J - tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Tarix fanlari doktori: Normurodova G.B
tarix fanlari doktori: G'oyibov B.S
tarix fanlari nomzodi: dotsent, M.A.Hamdama

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma SamDU o'quv-uslubiy kengashining 2021- -yil _____ kunidagi _____sonli yig'ilish qaroriga asosan chop qilishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-

©Samarqand davlat universiteti, 2021

Ma'ruza mashg'uloti materiallari

1- MAVZU. KIRISH. DAVLATCHILIK TUSHUNCHASI VA UNING KELIB CHIQISHI

Reja

1. Fanning predmeti, maqsad va vazifalari
2. Fanning o'rganishning ahamiyati
3. Davlatchilik tushunchasi va uning kelib chiqishi

Tayanch so'z va iboralar. Davlatchilik tushunchasi, qarindosh-urug'chilik jamoasi, hududiy qo'shnichilik jamoasi, ijtimoiy mansablar, davlat boshqaruvi, boshqaruv tasnifi, rahbarlik, boshqaruv vazifalari, ijtimoiy boshqaruv, davlatning vazifalari.

O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi salkam uch ming -yillik tarixga ega bo'lib, umumjahon tarixining ajralmas qismi bo'lib kelmoqda, turli nomlar bilan atalishi, sulolalarning almashinuvi va o'zgarishlari uning butunligini va mohiyatini o'zgartirmaydi. O'zbek xalqi O'zbekistonning mahalliy tub aholisi bo'lib, ularning tarixi eng qadimgi davrlarga borib taqaladi.

O'zbekiston hududida yashagan xalqlar jahon sivilizatsiyaga ulkan hissa qo'shib kelganlar. Dunyoga ko'plab buyuk siymolarni yetishtirib bergan zaminimizda davlatchilikning turli bosqichlarini amaliyotdan o'tkazilishi bugungi kundagi mukammal davlatchilik bosqichiga ko'tarilishi uchun xizmat qildi.

1991 -yil 31 avgustda O'zbekistonning davlat mustaqilligi qayta tiklanganligi e'lon qilindi. Xuddi shu kuni jamiyatimiz hayotiga O'zbekiston davlati, o'zbek davlatchiligi tushunchalari kirib keldi. To'g'ri, davlatchilik o'zbek xalqi tarixi uchun yangilik emas, ammo 130 -yillik mustamlaka davrida ayniqsa so'nggi bir necha avlod nazdida davlat, davlatchilik tushunchalari unut bo'lgan edi. Chunki mazkur davrda davlatning o'zi yo'qqa chiqarilgan edi. Demak, endigi sharoitda tarixchilar oldida turgan katta vazifalardan biri to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston davlati tarixini, o'zbek davlatchiligi tarixini ilmiy asosda o'rganishdan iborat.

DENOV TA'BIKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 35925

O'zbek davlatchiligi tarixi fanning asosiy maqsad va vazifalari jumlasiga quyidagi asosiy ustuvor yo'nalishlar kiradi: O'zbekistonda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va eng qadimgi davlatchilikning kelib chiqishida azaliy o'troq aholining madaniyati hal qiluvchi omil bo'lganini yoritish, miloddan avvalgi IX-VIII va VII-VI asrlarda ilk davlatchiligimiz taraqqiyoti jarayonini chuqur va izchil tadqiq qilish; Ahamoniylar bosqini, A.Makedonskiy va uning vorislari davrida qadimiy davlatchiligimizni tiklash uchun kurashning mohiyatini ochib berish, Kushonlar sulolasi davri tarixini o'zbek davlatchiligi tarixi sifatida talqin qilish, Buyuk ipak yo'li, uning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, uning vatanimiz tarixi taraqqiyotida tutgan o'rnini ko'rsatib berish, ilk rivojlangan o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligining barcha bosqichlari tarixini yaxlit tizim sifatida o'rganish va uning jahon sivilizatsiyasi rivojlanishidagi hissasini tadqiq qilish, XIV asr ikkinchi yarmi XV asrda markazlashgan o'zbek davlatchiligi rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlari va xususiyatlarini, Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rnini yoritish, buyuk Boburiylar sulolasi davlatchilik tarixini ham o'zbek davlatchilik tarixining bir qismi sifatida talqin etish, XVI-XIX asr birinchi yarmida o'zbek davlatchiligining o'ziga xos xususiyatlarini, siyosiy tarqoqlik sharoitida boshqarish usullaridagi nuqsonlarni, madaniyat, fan va san'at sohalaridagi tanazzul alomatlarini o'rganish, O'zbekiston xalqini chor Rossiyasi mustamlakachiligi va Sho'rolar ibtidodi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy ahvoriga xolisona baho berish, o'zbek davlatchiligi tarixining istiqloq qo'lga kiritilgandan keyingi eng yangi davrini har taraflama yoritib berishdan iborat.

Jahonning turli mintaqalarida ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi jarayonida ilk davlat uyushmalarining yuzaga kela boshlanganligini kuzatish mumkin.

Dehqonchilikning va chorvachilikning paydo bo'lishi, xunarmandchilikning vujudga kelib taraqqiy etishi, mehnat qurollarining takomillashishi mehnat unumdorligini oshishiga olib keldi. Ayni paytda urug' jamoasi hududiy qo'shni jamoasiga aylana bordi. Aholi joylashgan yerlarni, dehqonchilik bilan mashg'ul vohalarni dushmandan himoya

qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy rivojlantirish va nazorat qilish zarurati ilk davlat birlashmalari rivojlanishining boshlanishiga sabab bo'ldi. Masalan miloddan avvalgi 4- ming -yillikda Mesopotamiyada, mil. avvalga 3-ming -yillik boshlarida Misrda ilk davlatlar paydo bo'ldi. O'zbekiston tarixiga doir voqea va hodisalarning tahliliga yangicha yondashish tufayli Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekiston hududida dastlabki davlatlarining tashkil topishi tarixiga 3 ming -yil bo'ldi, degan ilmiy xulosaga kelish mumkin. Mil. avv. 1-ming -yillikning boshlarida Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan viloyatlarida ilk davlat birlashmalari paydo bo'la boshlaydi. Qishloqlar kengayib shaharlarga aylanib borar ekan, bu shaharlar eng qadimgi viloyatlar va davlat uyushmalarining ma'muriy markazi bo'la boradi. Avestodagi ma'lumotlar, Gerodot va Gekatey asarlari (Qatta Xorazm), shuningdek, Ktesiyning, Qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar bu davlatlarining shakllanish jarayonini Ahmoniylargacha bo'lgan davrda deb hisoblaydilar va mil. avv. IX-VII asrlar deb belgilaydilar.

2- MAVZU. O'ZBEKISTON HUDUDIDA ILK DAVLAT BIRLASHMALARINING VUJUDGA KELISHI

Reja

1. Qadimgi Baqtriya podsholigi
2. Qadimgi Xorazm davlati
3. Qadimgi Sug'diyona

Tayanch so'z va iboralar. Avesto, Baqtriya, Jarqo'ton, Yerqo'rg'on, Kuchuktepa, Qiziltepa, Xorazm va Sug'diyona.

Hozirgi Afg'onistonning shimoli-sharqi, O'zbekistonning janubi va Tojikistonning janubi-g'arbida joylashgan hududlar turli yozma manbalarda Bahdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxli, Baxlika, Tuxolo kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Zamonaviy adabiyotlarda uni Baqtriya deb atash e'tirof etilgan ("Shohnoma" da Baxtar zamin, qadimgi turkiylarda Bahodirlar yurti). Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi II ming -yillik o'rtalariga kelib Surxon vohasida qadimgi dehqonchilik madaniyatining jadallik bilan rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlanadi. Bu

jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishning o'ziga xos xususiyat va qonunlariga ega edi. Agar davlatchilik asosini shahar madaniyati tashkil etilishini hisobga oladigan bo'lsak, bu jarayon O'zbekistonning janubida, Baqtriya hududida milloddan avvalgi II ming -yillik birinchi yarmidayoq shaharmonand qishloq Sopollitepa misolida boshlangan edi. A.Asqarovning fikricha, agar Sopollitepa o'zining qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos barcha alomatlar bilan protoshahar, ya'ni. Avestoda tilga olingan "vara" inshootini eslatsa, Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududida birinchi bor shakllangan tom ma'nodagi shahar edi. Jarqo'ton qadimgi Sharq shaharlaridan tarkibiy jihatidan farq qilmaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Jarqo'ton ko'rinishidagi ko'hna shaharlarni qadimgi Sharqdagi nom-davlatlar shakllari bilan qiyoslash uchun dalillar yetarli. Ammo, Mesopatamiya nom-davlatlarining asosiy belgilaridan bo'lgan yozuv Jarqo'tonda mavjudligi hozircha bahslarga sabab bo'lmoqda. Umuman olganda, milloddan avvalgi II ming -yillikning so'nggi choragiga kelib qadimgi Baqtriya hududlarida davlatchilikning nom yoki voha tipidagi siyosiy uyushmalari shakllana boshlaganligiga ilmiy asoslar bor. Miloddan avvalgi I ming -yillikning birinchi yarmi Baqtriya hududlarida ko'pgina tarixiy-madaniy o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bu o'zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog'liq edi:

1. Temir buyumlarning paydo bo'lishi va keng tarqalishi.
2. Qal'alari bo'lgan qishloqlarning paydo bo'lishi va keyin ularning shaharlarga aylanishi.
3. Moddiy madaniyatning sezilarli darajada o'zgarishi.
4. Sharqiy Eron qabilalarining migratsiyasi.

Arxeologik nuqtai nazardan, yuqoridagi davr Marg'iyona tipidagi Yoz I madaniyati mavjud bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Tadqiqotchilar Yoz I madaniyati davrini milloddan avvalgi II-I ming -yillik bo'sag'asi - VIII-VII asrlar bilan belgilaydilar. Surxon vohasidan aynan mana shu madaniyatga o'xshash yodgorliklar ko'plab ochib o'rganilgan. Bu davrda Baqtriyaning to'rtta: Ulonbuloqsoy, Bo'stonsoy, Urgul va Xalqajar vohalari o'zlashtirilgan bo'lib, arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra Kuchuktepa, Jarqo'ton, Bandixon va Qiziltepa ularning markazlari edi. Yuqoridagi vohalar o'troq ziroatkorlar va chorvador-sastarlar harbiy boshliqlarining mulklari, markazlar esa ularning qarorgohlari bo'lgan bo'lishi mumkin.

Miloddan avvalgi I ming -yillikning birinchi yarmida Qadimgi Baqtriya davlati tarkibiga Marg'iyona va Sug'diyona ham kirganligi

taxmin qilinadi. Bu haqda turli hil ma'lumotlar mavjud bo'lib, qadimgi fors podshosi Doro I Marg'iyonada bo'lib o'tgan Frada boshchiligidagi qo'zg'olonni (miloddan avvalgi 521 -yil) bostirgani haqidagi Behistun yozuvlarini "mana men nimalarni qildim Baqtriyada" deb, xulosalaydi. Doro III davrida Baqtriya va Sug'diyona birlashtirilgan o'lka bo'lib, unda Bess nomli satrap hokimlik qilgan davrda Baqtriya, Marg'iyona hamda Sug'diyona aholisining urf-odatlar va madaniyati bir-biriga ancha o'xshash bo'lgan. Tarixning otasi Gerodotning "Tarix" asarida Baqtriya xalqi Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga olinadi. Yunon tarixchisi Ktesiy Knidskiy Baqtriya haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tarixchi davlatdagi ko'plab shaharlar, mustahkam poytaxt shahar Baqtra(Balx), Baqtriya podshosi Oksiart, uning bitmas-tuganmas boyliklari haqida hikoya qiladi. Tadqiqotchilarning fikrlarga qaraganda Qadimgi Baqtriya podsholigi qudratligi jihatdan qo'shni viloyatlardan ancha ustun bo'lib, ular orasida alohida mavqega ega bo'lgan.

Baqtriyaning tabiiy boyliklari undan tashqari hududda ham Old Osiyoga qadar mashhur edi. Ayniqsa, Badaxshon lojuvardi (lazurit) va la'li juda qadrlangan. Avestoning eski qismlarida Axuramazda yaratgan "eng yaxshi o'lkalar va mamlakatlar orasida to'rtinchi bo'lib go'zal va bayroqlari baland ko'tarilgan Bahdi mamlakati" atamasi uchraydi. Ayrim olimlarning fikricha bu "baxtar" atamasiga mos kelsa kerak. Baqtriya haqidagi keyingi qadimgi ma'lumotlar Ahamoniylar podsholarining mixxatlarida va bo'rtma tasvirlarida uchraydi. Misol uchun:Ahamoniylar podsholarining markazlaridan biri Persapoli shahridagi saroy devorlarida bo'rtma rasmlarda baqtriyaliklar idishlar ko'targan va ikki o'rkachli Baqtriya tuyalari bilan tasvirlanadi. Demak, Baqtriya mustaqil satraplik sifatida Ahamoniylar davlatining iqtisodiy va madaniy hayotida Muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

A.Sagdullaevning tadqiqotlariga ko'ra, Baqtriya haqidagi turli ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchilari-Gerodot, Ktesiy, Arrian, Strabon, Kursiy Ruf, Diador, Pliniy kabilarning asarlarida ham mavjud bo'lib, ular bu podsholikning qadimiyligi va yuksak madaniyati haqida ma'lumotlar beradi. Xususan, Ktesiy Knidskiy Ossuriya podshosi Nin Belidning Baqtriyaga qilgan yurishi, uning baqtriyalik ayol Semiramidaga uylanganligi, Baqtriya podshosi Oksiart va uning boy xazinasi haqida ma'lumot beradi. Ktesiyning Baqtriya chegaralari haqidagi ma'lumotlari ham qiziqarlidir. Uning xabar berishicha: g'arb tomondan Baqtriya tekisligiga boradigan yo'lni tog'lar to'sib turadilar, ulardan faqat dovonlar orqali o'tib borish mumkin. Baqtriya Tanaisdan

Hind daryosiga cho'zilgan bo'lib, Tanais uni Yevropadan, Hind daryosi esa Hindistondan ajratib turadi.

Gerodot o'zining "Tarix" asrarda Baqtriya va baqtriyaliklarni 45 marta tilga oladi. "Baqtriya" atamasi Esxilning milloddan avvalgi V asrda sahnaga qo'yilgan

"Fors"lar tragediyasida ham uchraydi. Yana bir qadimgi tarixchi Strabon Baqtriyani "oriylar o'lkasining javohiri" sifatida ta'riflaydi. Baqtriyaning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirganligi haqida yozma va arxeologik ma'lumotlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, milloddan avvalgi I ming -yillikning o'rtalariga kelib, Amudaryodan kechuv joyida va daryo yoqalab yo'llar bo'yida qal'alar (Sho'rtepa, Talashqon, Termiz, Xirmontepa) bunyod etiladi. Bu holatni olimlar Ahamoniylar ma'muriyatining Baqtriyadan Sug'dga o'tuvchi yo'llarni qattiq nazoratda tutgan bo'lishi mumkinligi bilan izohlaydilar. Bu davrga kelib Baqtriya aholisi joylashuvida ham sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bronza davrida o'troq dehqonchilik manzilgohlari asosan Baqtriyaning shimoli-g'arbida markazlashgan bo'lsa, keyinroq bu ko'lam kengayib shimoli-sharqiy qismlarni ham qamrab oladi. Tog' oldi hududlaridagi vohalarda aholi turmush tarzi yanada qizg'inlashib borgan bo'lsa, Surxondaryo, Konfirmihon, Vaxsh, Yavansuv atroflarda yangi vohalar o'zlashtiriladi.

Shunday qilib, milloddan avvalgi I ming -yillikning o'rtalariga kelib qadimgi O'zbekistonning janubida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq ko'plab o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Yuqoridagi sanab o'tilgan vohalarning har biri ma'lum hududiy-siyosiy birlashmani tashkil etgan bo'lib, o'z nomiga, ma'muriy markazlariga, yirik shaharlariga ega bo'lgan bo'lishi mumkin edi. Misol uchun: Surxondaryodagi Qiziltepa ko'hna shahri atrofida to'rtburchak shaklda qurilgan qadimgi uy-qo'rg'onlari (Qizilcha) 3-4 ta qo'shni uylardan iborat bo'lib, alohida joylashgan qishloq jamoasini tashkil etganlar. Har bir katta oila jamoasini ma'lum uy-joy, chorva va yerga egalik qilib, ma'lum darajada iqtisodiy mustaqil bo'lgan.

Qishloq jamoalarining hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy birlashuvi, ibtidoiy davrlarga oid urug'-qabilaviy birlashuvdan tubdan farq qilib, ilk davlatchilik shakllari paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Milloddan avvalgi VII-VI asrlar Baqtriya jamiyatida hududiy bo'linish shakllanib, aholining o'troqlashuv jarayonlari yanada kuchayadi. Ko'hna shaharlar qishloq xo'jalik atroflariga ega bo'lib, qal'alar paydo bo'ladi, Muhim savdo yo'llari bo'ylarida tayanch istehkomlar barpo etiladi. Turli binolar

bunyod etishda mudofaa inshootlarining ahamiyati yetakchi o'rin egallaydi.

2. Qadimgi Xorazm davlati

O'rta Osiyodagi yana bir yirik davlat uyushmasi-Qadimgi Xorazm davlati hisoblanadi. "Katta Xorazm" va "Qadimgi Xorazm" masalasi bo'yicha O'zbekistonlik va xorijlik ko'plab olimlar turli-tuman tadqiqotlar olib borgan bo'lsalarda bu masalalar hamon tadqiqotchilarning bahs-munozaralariga sabab bo'lib kelmoqda. Avesto va yunon-rim tarixchilari ma'lumotlari bu munozaralarning asosini tashkil etadi. Undan tashqari, o'tgan asrning 50-60 -yillaridan boshlab bugunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ham Xorazm davlatchiligi tarixi bo'yicha boy materiallar berdi. Avvalo, so'ngi -yillardagi ibtidoiy davr yodgorliklarining qiyosiy tadqiqotlaridan (X.Matyakubov) xulosa chiqaradigan bo'lsak, Xorazm mil.avv IV-III asrdayoq O'rta Sharqning qadimgi sivilizatsiyalar olami bilan uzoq Shimolni bevosita bog'lovchi xalqa rolini o'tay boshlagan. Bronza davri Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatlari qadimgi Xorazm yerlarini o'zlashtirib bir-biri bilan qizg'in aloqada bo'lgan, Shimol va Janubdan ta'sir qabul qilib, yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan qabilalar madaniyati edi. Ularning urug' jamoalari yarim yerto'la uy -joylarda istiqomat qilib motiga dehqonchiligi va chorvachilik bilan shug'ullanib, ibtidoiy ishlab chiqarish xo'jaligi sari ilk qadam tashlaganlar. Ammo, ularning moddiy xo'jalik taraqqiyoti darajasi O'rta Osiyoning janubiy mintaqalari (Baqtriya, Marg'iyona) dagi qabilalarga nisbatan ancha orqada edi.

Amirobod madaniyati (mil.avv IX-VIII asrlar) davrida Amudaryo quyi havzasida yashovchi aholi hali davlatchilikdan bexabar bo'lib, irrigatsiya xususiyati ibtidoiy urug'-qabilachilik an'analarini saqlab qolgan aholi jamiyatiga xos edi. O'rta Osiyoning Janubiy mintaqalariga qaraganda Xorazm vohasi aholisi uzoq vaqt beqaror suv oqimi sharoitida, noqulay tabiat injiqliklari girdobida qolib kelgan. Qadimgi yozma manbalar ma'lumotlari va mavjud arxeologik yodgorliklarning qiyosiy tahliliga ko'ra, Xorazmda davlatchilik ildizlarining paydo bo'lishiga asos bo'lgan ilk shaharsozlik madaniyati sohiblari-Xorazmiylar ko'chib kelgach tarkib topdi va rivojlandi. "Xorazm" atamasining kelib chiqishi haqida ko'plab fikrlar mavjud. Olimlarning katta guruhi "Xorazm" atamasining ikkinchi komponenti -zmi, -zamni hind-evropa tillariga mansub - zemo - yer, o'lka, mamlakat ma'nosini

beradi degan xulosaga kelganlar. Soʻzning birinchi komponentiga kelganda olimlar fikrlaridagi yakdillik yoʻqoladi va u turlicha – “Ozuqaga boy mamlakat”, “Unumdor yer” (E.Byurnuf, E.Zaxau, U.Geyger, U.Tomashek), “Goʻzal mamlakat” (F.Yusti), “Unumsiz, yomon er” (F.Shpigel), “Pastlik er” (P.Lerx, N.Veselovskiy, X.Klipert), “Quyoshli yoki Sharqiy oʻlka” (S.Tolstov, P.Savelev, F.Sulaymonova), “Sharqiy zamin”, “Kunchiqar mamalakat” (I.Moʻminov) tarzida talqin etiladi.

Yana bir guruh olimlar “Xorazm” atamasi uch leksima asosida (Uvarizami, u – “yaxshi”+ vara – “qalʼa”, “qoʻrgʻon”+zimi-“er”) paydo boʻlgan deb hisoblab, mazkur tarixiy atamaning maʼnosini “yaxshi qoʻrali er”, “Ajoyib qalʼali oʻlka” yoki “Mustahkam qoʻrgʻonli diyor”(Bogolyubov, A.Muhammadjonov) tarjima qiladilar. Soʻngi tadqiqotlarda “Xorazm” atamasining oʻzagi qadimgi turkiy asoslarga ega boʻlishi mumkin degan fikrlar ilgari surilib (“Xuar” (“Suvar”) – suv (“xu”) – suv, “Ar”-yer, odam, “m”- birinchi shaxs qoʻshimchasi) va u “Suv(daryo) odamlari” yoki “suv egalari” (M.Zakiev, Sh.Kamoliddin, O.Nosirov) deb tarjima qilingan.

Olimlarning taʼkidlashicha, Avestoda tilga olingan Aryoshayona yoki Aryanam Vaychax shu manbada eslatilgan Kavi Vishtasning podsholigi boʻlib, milloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Drangʼiyona, Satagadiya, Ariya, Margʼyona va Amudaryoning oʻrta oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. Gʻarb tadqiqotchilari V.Xenning va I.Gershevichlar Avestodagi Kavi Vishtasning davlati Marv va Xirof atrofida joylashgan “Katta Xorazm” deb hisoblaydilar. “Katta Xorazm” muammosi Gerodot maʼlumotlaridan boshlangan. U “Tarix” asarining uchinchi kitobida quyidagicha maʼlumot beradi: “Osiyoda bir vodiy bor. Uning barcha tomoni togʻ bilan oʻralgan, togʻni esa beshta dara kesib turadi. Bir vaqtlar bu vodiy xorasmiylarga tegishli boʻlib, xorasmiylar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarga chegaradosh yerlarda joylashgan. Vodiy oʻrab turgan togʻdan Akes nomli yirik daryo boshlanadi”.

Gerodotdan sal oldinroq yashab oʻtgan Gekatey parfiyaliklarning sharqiy tomonida joylashgan “Xorasmiya”ni, “bir qismi tekisliklarda, bir qismi togʻlarda yashovchi xorazmliklarni” eslatib oʻtadi. Tadqiqotchi V.A.Livshis ham bu “Katta Xorazm”ni Marv va Hirotning toʻrtta rayoniga joylashtiradi. Agar “Katta Xorazm” davlati Marv va Hirot atroflarida joylashgan taxmin rost boʻlsa, A.S.Sagdullaevning fikricha, bu davlat forslar podshosi Kir II tamonidan boʻysundirilganidan soʻng

xorasmiylar Quyi Amudaryoning Xorazm hududlariga koʻchib borganlar deb faraz qilinadi. Ushbu nazariyaga koʻra, miloddan avvalgi VI asr qadimgi forslar xorasmiylarni janubdan quyi Amudaryo yerlariga siqib chiqargan.

Qadimgi Xorazm xoʻjalik tartibining tuzilishi janubiy hududlardagi sugʻorish tizimini eslatmada, oʻlchamlari jihatdan ancha kichik. M.A.Itinaning fikricha, bu davrda urugʻdoshlarning qishloqlari boʻlishi mumkin boʻlgan manzilgohlarning maydonlari kengayganligi kuzatiladi. Bu manzilgohlarda katta oilalar yashagan boʻlib, ular bir vaqtning oʻzida xoʻjalik vazifalari, jumladan, sugʻorish tarmoqlarini saqlash va rivojlantirish bilan shugʻullanganlar. Soʻnggi bronza davrida ham qadimgi Xorazm xoʻjaligining Muhim tarmoqlaridan biri chorvachilik xoʻjaligi edi. Bu davrga oid makonlardan juda koʻplab turli hayvonlarning suyak qoldiqlari topib oʻrganilgan. Chorvachilik xoʻjaligida ot asosiy oʻrinda boʻlib ulardan yuk tashish va safarga chiqishda foydalanilgan. Ayrim manzilgohlardan ot anjomlarining topilishi shu jarayondan dalolat beradi. Bu oʻrinda taʼkidlash joizki, olimlar orasida massaget qabilalari totemlarida ot kulti markaziy oʻrinda turishi haqidagi fikrlar ham bor.

Oʻtroq dehqonchilik qabilalarining chorvachiligi uy chorvachiligi xususiyatiga ega edi. Tadqiqotlar natijalariga koʻra, mil. avv. I ming -yillikning boshlariga kelib Orol boʻyidagi xoʻjaligi asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan qabilalar oʻrtasida farqlar shakllana boshlaydi. Mil. avv. VII-VI asrlarga kelib esa, ular madaniyati oʻrtasidagi farqlanish yaqqol koʻzga tashlanadi. Fikrimizcha, aynan mana shu davrdan boshlab, Sharqiy Orol boʻyida yarim koʻchmanchi chorvador xoʻjalik madaniy shakli ustunlik qilgan boʻlsa, Amudaryoning janubiy oʻzanlarida esa yuqori darajadagi sunʼiy sugʻorishga asoslangan oʻtroq dehqonchilik xoʻjaliklarining ahamiyati ortib boradi. Mil. avv. I ming -yillikning ikkinchi choragiga kelib Orol boʻyida hunarmandchilik ajralib chiqishining dastlabki belgilari kuzatiladi. Ortiqcha mahsulotning koʻpayishi esa mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Mil. avv. I ming -yillikning oʻrtalariga kelib qadimgi Xorazm hududlarida sugʻorma dehqonchilikning taraqqiy etishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida ibtidoiy jamoa munosabatlari oʻrniga davlatchilik tizimi shakllana boshlaydi. Ushbu tizimning shakllanishida qadimgi shaharlarning ahamiyati nihoyatda katta boʻldi. Tadqiqotlar natijalariga koʻra, qadimgi Xorazm

shaharlarining rejaviy uslublari – ichki va tashqi tuzilishi, himoya inshootlari, tabiiy joylashuvi nuqtai nazaridan ko'p hollarda bir-biri bilan o'xshashlik topadi. Tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan Xorazmning eng qadimgi shahar qal'alaridan biri bo'lgan Ko'zaliqirning quyi madaniy qatlamlarini S.P.Tolstov mil.avv VII-VI asrlar bilan, V. Masson esa mil. avv. V-IV asrlar boshlari bilan belgilagan edi. So'ngi tadqiqotlarda esa Ko'zaliqirda hayot butun mil.avv VI va V asrning birinchi yarmida mavjud bo'lgan degan xulosalar ustunlik qilmoqda.

Ko'zaliqir qadimgi Xorazmdagi dastlabki tuzilishi ancha aniq bo'lgan, himoya devorlari bilan o'rab olinib diniy-topinish xususiyatiga ega bo'lgan me'moriy yodgorlikni o'zida aks ettiradi. Uning atroflaridagi keng maydon, aftidan, keyingi qurilishlarga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Ta'kidlash joizki, mil. avv. VI-V asrlarga kelib O'rta Osiyo shaharsozlik madaniyatida ibodatxonalar qurilishi Muhim bo'lib, asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko'zaliqir O'rta Osiyoning boshqa shaharlari kabi vohaning mustahkamlangan harbiy-siyosiy va ma'muriy markazi hisoblanib, rivojlangan sug'orma dehqonchilik bilan ta'minlangan edi. S.Tolstov Amudaryoning quyi havzalari "Katta Xorazm" tarkibiga kirganligi haqidagi konsepsiyani ilgari surib, Xorazmda mil.avv. VIII-VII asrlarda dastlab qabilalarning harbiy konfederatsiyasi paydo bo'lib, undan davlat uyushmasi o'sib chiqdi degan fikrga kelgan bo'lsa, V.Masson bu fikrga qarshi chiqib, arxeologik materiallar tahlili Xorazmda Ahamoniylarga qadar markazlashgan davlat tashkil topganligini tasdiqlamaydi, degan fikrga keldi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga tayangan V.T.Vorobeva o'tgan asrning 70-yillarida "Katta Xorazm"ning janubiy chegarasi Amudaryoning o'rta havzalari (Qo'shqal'a, Odoytepa atroflari)dan o'tgan va uning shimoliy chegaralari Amudaryoning quyi havzalarini qamrab olganligi hamda qadimgi Xorazm davlati "Katta Xorazm" davlat konfederatsiyasining tarkibiga kirganligi haqidagi g'oyani ilgari surdi. B.Vaynberg va S.Baratovlar ham V.Vorobeva g'oyalariga yaqin fikr bildirganlar. R.Fray "Katta Xorazm" davlatining hududi Marv – Hirot atroflarini qamrab olib, Ahamoniylar bosqinidan so'ng bu hudud aholisi Oks (Amudaryo)ning shimoliga ko'chganligi haqida fikr bildirgan bo'lsa, I.Xlopin va I.Pyankovlar Xorazmdagi Ahamoniylargacha bo'lgan davlatchilikni inkor etadilar. A.Asqarov esa, xorasmiylarning Tajan (Gerirud) va Xilmend daryolari havzalaridan shimolga, quyi Amudaryo havzalariga ko'chishi mil.avv. VI asrda ro'y bergan bo'lib,

"Katta Xorazm" davlati konfederatsiyasining shimoliy chegarasi Amudaryoning o'rta chegarasigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olganligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mil.avv. V-IV asrlarda Xorazm va unga qo'shni bo'lgan hududlarni urbanizatsiya jarayonlari qamrab olgan edi. Natijada bu hududlarda tarixiy-madaniy dehqonchilik vohalari paydo bo'ladi va ular ilk davlatchilikning asosi edi. Mil.avv. VI asrdan boshlab esa hozirgi Xorazm vohasida davlatchilik shakllanib u qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlaridan birga aylanib bordi.

3. Qadimgi Sug'diyona

Ilk temir davri O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida Muhim o'rin egallagan Sug'diyona o'lkasi turli qadimgi manbalarda Sug'da, Sug'uda, Sug'diyona nomlari ostida eslatib o'tiladi. Bu nomlarning kelib chiqishi va ularning ma'nosi haqida hozircha aniq fikr yo'q. Ayrim tadqiqotchilar (V.Tomashek) bu nomni eroncha "SUS" – "yonmoq, yaltiramoq, nur taratmoq" so'zidan olingan desa, ayrimlari (O.Smirnova) bu "Gava sug'uda" atamasi "hosildor vohalar o'lkasi" degan ma'noni beradi deb hisoblaydilar. Avestoning Yasht kitobida tilga olingan "Sug'd makoni Gava" – Sug'diyonaning eng qadimgi viloyati bo'lgan bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra (A.Sagdullaev), Gava (Gau) – "buqa", "poda", Qashqadaryo vohasi bilan bog'lanadi. Bu so'z viloyatning juda ko'p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gauxona, Gaumurda, tog'lar Gau, cho'qqi Gau va boshqalar).

Hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini (Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari, Tojikistonning Panjikent atroflari) o'z ichiga oluvchi Qadimgi Sug'diyona va Sug'diylar haqida ilk yozma manbalarda ma'lumotlar deyarli kam. Avestoda viloyatlarning nomi ikki xilda ko'rsatilgan – Gava Sug'da va alohida Sug'da. Gerodot esa Sug'diylarni ikki marotaba – Ahamoniylar davlatining XVI satrap o'lkasidagi xalqlarni sanab o'tganda va forslarning qo'shinlari safida jangchi – sug'diylarning o'rnini ko'rsatib berganda tilga olgan. Ammo tarixchi Sug'd shaharlari, daryolari, tog'lari, hududiy chegaralari haqida bizga hech qanday ma'lumotlar qoldirmagan. Ahamoniylar mixxatlari Sug'diyona haqida asosan rasmiy darajada e'lon qiladilar va turli xil tarixiy muammolarni o'rganishda ulardan foydalanish og'ir kechadi. Gekatey, Ktesiy va Ksenofont asarlarida Sug'diylar haqida ma'lumotlar yo'q. Aleksandr Makedonskiy davri va so'nggi yunon-rim tarixshunoslari asarlarida tarixiy-geografik ma'lumotlar ancha keng

berilgan. Sug'diyonadagi alohida joylarda, viloyatlar, qal'alar – Nautaka, Ksenippa, Maroqanda, Bagi, Basileya – “podsho shahri”, Politemet-Zarafshon, “Oksiart, Sug'd qoyasi” va boshqa xabarlar shular jumlasidandir.

Bu ma'lumotlar asosida turli fikrlarga ega bo'lish mumkin. Dastavval, mil. avv. IV asrga kelib, sug'diylarning hududiy joylashuvi, ularning yashash uchun foydalangan asosiy yerlarining chegaralari, daryo vohalari va viloyatlari aniqroq ko'rinadi. Ammo, bu jarayonning tarixiy an'analari – sug'diylarning yo-yilishi, o'troq vohalarining paydo bo'lishi va shu joylarda yirik shahar markazlariga asos solinishi yanada qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qadimgi viloyatlarning joylashuv hududlari anchagina muammoli masala bo'lib, tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlariga (jumladan, Sug'diyonaga ham) ko'chmanchilarning hujumi bu hududlarda davlat uyushmalari paydo bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin edi.

Ilk temir davri Sug'diyonada alohida hududiy tartib guruhida bo'lib, markaz vazifasini bajaragan bir necha manzilgohlar turlari mavjud edi. Bular maydoni 5 gektardan 15 gektargacha bo'lib, tuman – voha markazi vazifasini bajaruvchi markazlar – Daratepa, Konimex, Chordara; maydoni 20 gektardan 80 gektargacha bo'lgan viloyat markazlari vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan shaharlar – O'zunqir, Yerqo'rg'on, Xo'ja Bo'ston; bir necha viloyatlar markazi vazifasini bajaruvchi shaharlar – Afrosiyob (Maroqanda) va Buxoro kabilardir. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, hunarmandchilik muassasalari yirik manzilgohlar ichida markazlashib boradi. Bu manzarani Afrosiyob topilmalari tasdiqlaydi. Bunday manzilgohlar asta – sekinlik bilan hunarmandchilik, savdo va madaniy markazlarga aylanib boradi. Bu jarayonda qadimgi yo'llar nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tishimiz joizdir. Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo'rg'on kabi ko'hna shaharlar O'rta Osiyo shimoliy dasht hududlardan keluvchi yo'llar ustida joylashgan.

Sh.Odilov, G'arbiy Sug'dda mil. avv. VI-V asrlardagi qishloqlar paydo bo'lishini O'rta Amudaryo tomonidan aholining kirib kelishi bilan bog'laydi. Ko'pchilik tadqiqotchilar O'rta Osiyoda davlatchilik tarixining boshlanishi janubiy hududlarda boshlanib markaziy va shimoliy hududlarga yo-yilgan deb hisoblanadi. Arxeologik manbalarining ma'lumot berishicha, mil. avv. VII-VI asrlarga kelib O'rta Osiyoning janubida ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar anchagina murakkablashadi. Bu o'rinda Qadimgi Baqtriya

ma'lumotlarini keltirib o'tish joizdir. Agar Midiya saltanatining sharqiy chegaralari Shimoliy Parfiya va Ariyani o'z ichiga olganligini hisobga oladigan bo'lsak, midiyaliklarning Baqtriyaga harbiy xavf tug'dirishi aniq edi va yana bir harbiy hujum xavfi shimoldagi ko'chmanchi qabilalar bo'lib, bu holat Baqtriya davlat uyushmasi paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin edi.

Kir II ning O'rta Osiyoga yurishi Ahamoniylarning Baqtriya va sak-massaget uyushmasi kabi jiddiy raqiblari mavjud bo'lganligining dalilidir. Forslar O'rta Osiyo janubiy viloyatlarini bosib olganlaridan keyingina, ya'ni, mil.avv. 530 -yilda sak – masagetlar ustiga yurish boshlaydilar. Demak, bu paytga kelib Baqtriya harbiy – siyosiy uyushmasi tarkibiga Baqtriyadan tashqari Marg'iyona va Sug'diyona ham kirgan edi. Bizning fikrimizcha, O'rta Osiyo hududlarida ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishida harbiy-siyosiy omillardan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ham katta ahamiyatga ega edi. Chunki, siyosiy jihatdan shakllangan davlat yoki uyushma iqtisodiyotsiz taraqqiyot bosqichiga ko'tarila olmaydi.

Eng so'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil etar ekanmiz, Qiziltepa (Surxondaryo), Yoztepa (Turkmaniston), Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo), Afrosiyob, Ko'ktepa (Samarqand) kabi ko'hna shahar va manzilgohlar sopol buyumlari va qurilish usullari bir-biriga nihoyatda o'shash ekanligining guvohi bo'lamiz. Ammo, Yerqo'rg'on, Kuchuktepa, Qiziltepa, Yoztepadan topilgan mil. avv. IX-VII asrlarga oid buyumlarga o'xshash buyumlar Xorazm hududlaridan shu paytga qadar topilmagan. Demak, qurilish usullari va moddiy madaniyatdagi o'zaro o'xshashlik, mil. avv. I ming -yillikning boshlari Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyona hududlari o'rtasida hech bo'lmaganda etnik tarixiy – madaniy birlik mavjud bo'lganligidan dalolat berib, bu o'xshashlik savdo-sotiq munosabatlari, o'zaro almashinuv va qadimgi savdo-tranzit yo'llariga ham bog'liq edi. Mil. avv. VI asrga kelib esa, Xorazm mustaqil davlat sifatida tashkil topadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'zaro almashinuvda Muhim ahamiyatga ega bo'lgan Xorazmdagi ilk temir davri savdo-tranzit yo'llari voha ichidagi ichki yoki ikkinchi darajadagi yo'llar vazifasini o'tar edi. Asosiy savdo yo'llari esa Baqtriyadan Janubiy Sug'd (Qashqadaryo), Markaziy Sug'd (Samarqand) orqali Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysiga o'tib ketardi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik

boshlaydi. Ahamoniylar tomonidan bosib olingan hududlarning barchasi satrapliklarga bo'lingan va davlat Markaziy Osiyodan Misrgacha cho'zilgan ulkan imperiya bo'lgan. Davlat hududlari nihoyatda ulkan bo'lishiga qaramasdan, markaziy hokimiyat to'laqonli taraqqiy etmagan va har bir satraplik hokimi - satraplar o'zlarini boshqarib turgan hududlarida shoh\` deb hisoblar edilar.

Gerodotning bergan ma'lumotlariga ko'ra Baqtriya Ahamoniylar davlatining o'n ikkinchi viloyati (satrapligi) ni tashkil etib, 300 talant¹, Parfiya, Xorazm, So'g'diyona va oriylar o'n oltinchi viloyat bo'lib, 300 talant, saklar va kaspibybo'yi xalqlari o'n beshinchi viloyat bo'lib, 250 talant, Parikaniya va Osiyo habashlari o'n yettinchi viloyat bo'lib, 400 talant boj to'laganlar. Bundan ko'rinadiki, Markaziy Osiyo va Xuroson viloyatlaridan Ahamoniylar har -yili 1250 talant miqdorida boj olib turganlar. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, aynan shu vaqtda qadimgi Sharqning eng qudratli va taraqqiy etgan Babil va Ossuriya davlatlaridan faqatgina 1000 talant miqdorida boj olinganligini hisobga olinadigan bo'lsa, Markaziy Osiyo davlatlarining to'layotgan boj miqdoriga qarab bu davlatlar iqtisodiy va siyosiy jihatdan o'sha vaqtdagi Sharqning eng qudratli davlatlaridan ham bir muncha yuqori pog'onada bo'lganligini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo xalqlari bosib olingan boshqa davlatlar kabi o'z fuqarolari hisobidan Eron armiyasi uchun lashkar yuborishlari shart bo'lgan. Gerodotning yozishicha, baqtriyaliklar saklar bilan bir qatorda eng yaxshi jangchilar hisoblanib, shoh gvardiyasi qismlariga jalb etilgan. Shuningdek Gerodot o'z asarida baqtriyalik jangchilarning kiyimlari va harbiy qurol-yarog'lari haqida ham ma'lumotlar yozib qoldirgan. Ahamoniylar saroyida va armiyasida sharqiy viloyatlardan kelib xizmat qiluvchi vakillar juda ko'pchilikni tashkil qilgan. Markaziy Osiyoda yashovchi qabila va elatlar yaxshi suvoriylar va merganlar sifatida Ahamoniylar armiyasi uchun juda qulay jangovar kuch bo'lib xizmat qilganlar. Gerodot keltirgan ma'lumotlarga ko'ra Kserksning Yunoniston bilan bo'lgan janglarida Markaziy Osiyo qabilalari va elatlaridan 1700000 piyoda va 800000 suvoriylar qatnashgan. Bular orasida saklar eng jangovarlari hisoblangan. Dionisiy Periegest (II asr) saklar ajoyib chavandoz va kamondozlar mohirlik bilan otishlari, «dunyodagi hamma merganlar orasida eng mohiri skiflar, ular bironta ham o'qni bekor ketkazmaydilar» deb aytadi. Diodor esa yunonlar merganlik san'atini saklardan o'rganganligini, hattoki «o'q-yoy» so'zi

¹ Бир талант – 25,92 кг кумуш танга

saklardan kirib kelganligini yozib qoldiradi. Sak jangchilari Ahamoniylar urushlarining hammasida faol ishtirok etganlar, ularning qurollari qoldiqlari, ayniqsa bronzadan ishlangan nayza uchlari Yaqin va Kichik Osiyo hamda Yunonistondan ko'plab topilgan.

Ahamoniylar davrida ko'pgina Sharq xalqlarining siyosiy birligi, keng madaniy va iqtisodiy aloqalar rivojlandi. Bu davrda O'rta Osiyoga oromiy yozuvi kirib keldi, keyinchalik oromiy yozuvi asosida mahalliy xalqlarning Parfiya, so'g'd, baqtriya va xorazm yozuvlari shakllandi va ilk o'rta asrlargacha mavjud bo'ldi.

Ahamoniylar davrida O'rta Osiyo xalqlarining asosiy mashg'uloti dehqonchilik bo'lgan, shu davrga oid qadimgi manzilgohlardan ko'plab dehqonchilikka oid mehnat qurollari topilgan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Farg'ona, Shosh hududlarida ko'plab shaharlar va qishloqlar mavjud bo'lgan. Yirik shaharlar qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingan bo'lib, bu davrda shaharlarning nafaqat siyosiy markazlar sifatida, balki ijtimoiy hayot uchun barcha shart-sharoitlar yuzaga kelgan madaniy va iqtisodiy markazlar sifatidagi ahamiyati ham oshib bordi. Shaharlarda kulolchilik va temirchilik, bronzadan buyumlar yasash, to'qimachilik va savdo - sotiq rivojlangan, shahar atroflaridagi va shahardagi barcha aholi uchun shahar ichida joylashgan ibodatxona asosiy diniy marosimlarni bajaruvchi markaz bo'lib qolgan.

2. O'rta Osiyo xalqlari Makedoniyalik Iskandar saltanati tarkibida

Makedoniyalik Iskandar o'z harbiy yurishlari bilan Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Misr, Sirdaryo va Hindistongacha cho'zilgan ulkan hududda o'z saltanatini barpo qildi. Saltanat poytaxti Babil edi. Miloddan avvalgi 330-yili qudratli Eron Ahamoniylari davlatini mag'lub etgan Makedoniyalik Iskandar shu -yili Markaziy Osiyo hududlariga yaqinlashdi. Olima Fozila Sulaymonovanning ta'kidlashicha, - «Aleksandrning Baqtriya, So'g'diyona, umuman, Markaziy Osiyoga yurishining g'oyaviy-siyosiy sabablari bor edi. Avvalo shimoliy - sharqiy viloyatlar eroniylarning rasmiy dini bo'lmish Zardo'shtiylilikning vatani, beshigi edi, eroniylar tushunchasiga ko'ra xalq qudrati, xalq ruhining siri o'sha qadimiy vatanda. Eron zabt etilgani bilan mamlakat orti hali mustahkamdek, xalq ruhi tetikdek tuyular edi. Demak, Baqtriya va So'g'diyonani zabt etmasdan turib eroniylar qudratini yengib bo'lmas, kelajakdagi tinchlikka ham ishonib bo'lmas edi».

Miloddan avvalgi 330-yilda Iskandar Baqtriyani bosib oladi. O'z harbiy yurishlarini boshlagandan buyon o'tgan qisqa vaqt davomida juda katta hududlarni bosib olishga erishgan Iskandar uchun Girkaniya, Drangiana, Araxoziya, Baqtriya va So'g'diyonani bosib olish uchun uch-yildan ortiqroq vaqt zarur bo'ladi va butun yurishlari davomidagi eng qattiq qarshilikka ham aynan shu viloyatlarda duch keladi. Buning albatta bir necha sabablari bor: birinchidan, antik mualliflarning xabarlariga ko'ra bu hududlarda Baqtr, Kiropol, Maroqanda kabi mustahkam shaharlar mavjud bo'lgan, ikkinchidan mahalliy xalqlarning mustahkam qal'alarida turib va ochiqda jang qilish uslubi Iskandar uchun begona bo'lgan va bu jang vaqtlarida katta qiyinchilik tug'dirgan, uchinchidan Iskandar va uning armiyasi uchun mahalliy xalqlarning qurol-yarog'lari va ulardan foydalanish usullari noaniq bo'lgan, to'rtinchi va eng asosiysi, uzoq vaqtlardan buyon Eron Ahamoniylari zulmi ostida ezilgan mahalliy xalqlar boshqa bir bosqinchi - Makedoniyalik Iskandarga qarshi xalq kurashini amalga oshirganlar. Yuqorida sanab o'tilgan omillar Iskandarning qisqa vaqt ichida O'rta Osiyoni bosib olish rejasini chippakka chiqaradi va xatto uning qo'shini orasida katta noroziliklarga ham sabab bo'ladi.

Baqtriylar va so'g'dlar Spitamen, Datafern, Kattanlar boshchiligida yunon-makedon bosqinchilariga qarshi miloddan avvalgi 329-327-yillarda - uch -yil davomida kurash olib borganlar. Ayniqsa, Spitamen boshchiligidagi so'g'dlar qarshiligini yenga olmay, chorasiz qolgan Iskandar o'ziga qarshi kuchaygan noroziliklar natijasida eng yaqin kishilari - Klit (yaqin do'sti va uni o'limdan saqlab qolgan), Kallisfen (Iskandarning ustози va barcha yurishlaridagi hamrohi bo'lgan Aristotelning jiyani, tarixchi)larni o'ldirishgacha borib yetadi.

Spitamen qo'shinlari tarkibida so'g'dlardan tashqari baqtriylar, sak va massagetlar ham bo'lgan. Ozodlik uchun kurashlarga mahorat bilan rahbarlik qilgan Spitamenning o'limi xiyonatchilarning qo'li bilan amalga oshiriladi. Bu haqida Arrian asarlarida uni dashtlik ko'chmanchilar tomonidan Iskandarning dasht xalqlariga yurish boshlashining oldini olishi uchun o'ldirilgan deb aytilsa, Kvint Kursiy Ruf uni o'z rafiqasi tomonidan o'ldirilgan deb yozadi.

Iskandarning so'g'dlarga qarshi kurashi mahalliy xalqlar uchun katta yo'qotishlarga sabab bo'ldi, ko'plab shaharlar vayron etildi, sug'orish tarmoqlari ishdan chiqarildi, dehqonchilik dalalari katta zarar ko'rdi, ozodlik kurashlari natijasida Diodorning yozishicha, 120 mingdan ortiq odam o'ldirildi.

So'g'd va Baqtriyani bo'ysundirgan Iskandar keyingi -yillarda Hind daryosi bo'ylarigacha bo'lgan yerlar va davlatlarni bosib olgach, Bobilni o'z saltanatining poytaxti deb e'lon qildi va shu yerdan turib davlatini boshqardi. Biroq, ko'p o'tmay, miloddan avvalgi 312-yilda Italiyaga qarshi harbiy yurishga tayyorgarlik ko'rilayotgan vaqtda u og'ir kasallikka chalilib vafot etadi. Katta kurashlar va yuz minglab odamlarni qurbon qilish evaziga tashkil etilgan bu ulkan davlat Iskandar vafot etishi bilanoq inqirozga yuz tutib, parchalanib ketadi.

3. Salavkiylar davrida O'rta Osiyo

Miloddan avvalgi 312-yilda Iskandar davlatining Sharqiy qismi (Kichik Osiyo, Suriya, Eron va O'rta Osiyo) sarkarda Salavka hukmronligi ostida birlashtirildi. Salavkning hokimiyati turli harbiy manzilgoxlarda joylashgan yunon-makedon va makedonlar qurol-yarog'lari bilan qurollangan mahalliy xalqlarning harbiy kuchlariga tayangan edi.

Yunonlar o'z hokimiyatlarini mustahkamlash maqsadida O'rta Osiyo hududlarida bir qancha harbiy istehkomlar va qal'alar barpo qilgan edi. Bu narsa Iskandar vaqtidayoq boshlanib, uning o'zi O'rta Osiyoda 12 ta shaharga asos solgan edi. Bu shahar va qal'a istehkomlaridagi yunon-makedon harbiylari qo'riqchi kuch sifatida harbiy kuch bo'lgan. Iskandar saltanati qulagach, bu an'analar Salavkiylarda ham davom etdi.

Salavkiylar davlati turli etnik guruhlar asosida harbiy kuch ishlatish yo'li bilan tashkil etilgan davlat edi. Davlat boshqaruvining barcha siyosiy huquqiy va ijtimoiy yo'nalishlari podsho saroyi bilan bog'liq bo'lib, «podsho saroyi» davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega edi. Dastlab Salavkiylarda boshqaruvchi devonxona mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor.

Salavkiylar davlatida birmuncha murakkab soliq turi mavjud bo'lib, Salavkiy hukmdorlari o'zlarigacha bo'lgan soliq tartiblarini o'zgartirmay, unga bir qancha qo'shimchalar kiritganlar. Dehqonlardan soliq yig'ib olish satrap hokimining vazifasi edi. Satraplikning umumiy soliq miqdori jamoalardan tushadigan soliq miqdoriga qarab belgilanar edi.

Miloddan avvalgi 293-yil davlatning Sharqiy viloyatlariga Salavka va Spitamen qizi Apamaning o'g'li Antiox hokim etib tayinlandi. Bu narsa Salavkiylarda hokimlarning podsho oilasi bilan qarindoshligi bo'lishi sharti boshqaruv tizimining asosiy xususiyatlaridan biri

bo'lganligini ko'rsatadi. Miloddan avvalgi 280-yilda Salavka o'limidan so'ng Antiox podsho bo'ldi va davlatni 20 -yil davomida boshqardi.

Salavkiylar davlati doimiy ichki kurashlar orasida qoldi. Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida undan Baqtriya ajralib chiqdi. Uning podshosi Diodot bo'lgan. Shu vaqtda Salavkiylardan yana bir davlat – **Parfiya** ajralib chiqdi va keyinchalik Sharqdagi eng qudratli davlatlardan biriga aylandi.

4. O'zbekiston hududlarida Yunon - Baqtriya davlatchiligi

Yunon - Baqtriya davlatining gullab yashnagan davri millodan avvalgi III asr ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davlatning poytaxti Baqtra shahri bo'lgan. Davlat bir necha dehqonchilik viloyati va tumanlarni o'z ichiga olgan. Xususan, O'rta Osiyo, jumladan O'zbekistonning janubiy viloyatlaridan tashqari bu davlat hududlariga Ariya va Araxoziya (Afg'onistonning Hirot va Qandahor viloyatlari), Drangiana (Sharqiy Eron), Paropamis (Hindikush tog'larining janubiy yonbag'ri), Hindistonning shimoliy g'arbiy qismi va Sind viloyatlari kirgan. Davlat markazlashgan hokimiyatga bo'ysinuvchi boshqaruv tizimiga ega edi. Podsho yoki davlat hukmdorlari yunon- makedonlardan bo'lib, uni turli -yillarda **Diodot, Yevtidem, Demetriy** va **Yevkradit** boshqarganlar. Davlat boshqaruv tizimi Iskandar davrida joriy etilgan siyosiy an'analarga asoslangan edi. Podsho hokimiyati harbiy kuchlarga va viloyatlar hokimlariga tayanar edi. Muhim savdo yo'llari bo'ylab harbiy – strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan joylarda tayanch istehkomlari va qal'alar qurilgan edi.

Davlat ishlariga yunonlar va mahalliy baqtriyalik zodagonlar jalb qilinganligi uchun bu davlat Yunon-Baqtriya podsholigi deb ataldi. Bu davlatning asosi dastlab Baqtriya bo'lgan, uning poytaxti Zariasp edi. Keyinchalik bu shahar Baqtr nomi bilan mashhur bo'lib ketdi. Diodot I va Diodot II lar davrida Yunon-Baqtriya So'g'diyona, Marg'iyona, Choch, Dovon, Sharqiy Eron hisobiga kengayadi. Miloddan avvalgi 230-yili So'g'diyona noibi Yevtidem I qo'shinlari Diodot II qo'shinlarini yengib Baqtriya taxtini egallaydi.

Miloddan avvalgi 208–206-yillarda Salavkiylar podshosi Antiox III bilan Yevtidem o'rtasidagi ikki -yilga cho'zilgan urush, sulh bilan tugaydi. Antiox III Yevtidemning shohligini tan olishga majbur bo'ladi. Chunki shu davrda shimoldan ko'chmanchi qabilalar xavf solib turgan edi. Yevtidem I va uning o'g'li Demetriy davrida Yunon-Baqtriya

kuchayib Seyistondan Hind daryosigacha bo'lgan yerlar Yunon-Baqtriya podsholigiga qo'shib olinadi. Miloddan avvalgi 175-yilda podsho Demetriy Hindistonda jang olib borayotgan edi. Shu davrda uning sarkardasi Yevkradit qo'zg'olon ko'tarib Yunon-Baqtriya taxtini egallaydi. Demetriy esa janglarning birida halok bo'ladi. Shundan keyin podsholik ikkiga bo'linib ketadi. Birinchisi Yevkradit va uning vorislari boshqargan Yunon-Baqtriya, ikkinchisi Demetriy va vorislari boshqargan Yunon-Hind davlatlaridir.

Miloddan avvalgi 162-yili Yevkradit Panjobga qo'shin tortib uni bosib oladi. Lekin ko'p o'tmay Yunon-Hind shohi Menandr qo'shinlari Yevkradit qo'shinlarini Panjobdan uloqtirib tashlaydi.

Shu davrda Parfiya podshosi Mitridat I Yunon-Baqtriyaning g'arbiy viloyatlarini bosib oladi. Miloddan avvalgi 160-yili Yevkradit bilan o'g'li Geleokl o'rtasida o'zoro nizo kelib chiqadi. Yevkradit o'z o'g'li Geleokl tomonidan o'ldiriladi. Geleokl davrida Yunon-Baqtriya davlati kuchsizlanib, uning ixtiyorida Baqtriyagina qoladi. Miloddan avvalgi 140–130-yillar orasida shimoli-sharq va shimol tomondan sak va yuechji qabilalarining shiddatli hujumlari boshlanadi. Bu hujumlar natijasida Yunon-Baqtriya davlati ag'darib tashlanadi. Shu bilan 120 -yil davr surgan Yunon-Baqtriya davlati ham barham topadi. Yunon-Baqtriya o'sha zamonning quldorlik davlatlaridan biri bo'lgan. Yunon-Baqtriya davlati tepasida podsho turgan. Podsholik taxti otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan. Podsholik mulklari viloyatlarga bo'linib, uni viloyat hokimlari – gipparxlar boshqarganlar. Gipparxlar esa to'g'ridan-to'g'ri podshohlarga itoat etganlar. Podsholikning Yunon-Baqtriya qismida urug'i Hindistondan keltirilgan paxta ham ekilgan. Ehtimol ipak qurti ham boqilgandir. Podsholikda qo'y, echki, qoramol, ot, tuya, qo'tos, o'rgatilgan fil, it va parranda boqqanlar. Yunon-Baqtriya otlari va tuyalari juda mashhur bo'lgan. Boshqa joylarga qaraganda Yunon-Baqtriyada shaharlar ko'p bo'lgan. Shuning uchun qadimgi tarixchilar Pompey va Apollodyerlar Yunon-Baqtriyani «ming shaharlar mamlakati», deb bejiz aytishmagan. Eng yirik shaharlar Baqtra, Termiz, Yevkratideya, Demetriya, Aleksandriya va boshqalar bo'lgan. Bu shaharlarlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topgan.

Yunon-Baqtriyada savdo-sotiq ham juda rivojlangan edi. Yunon-Baqtriya shimoldan janubga, sharqdan g'arbga o'tadigan karvon yo'lining qoq o'rtasida joylashgani savdo-sotiqning rivojlanishiga imkon bergan. Yunon-Baqtriya savdogarlari va podsholari Hindiston, Xitoy, Parfiya davlatlari, Oks va Yaksart bo'yi xalqlari bilan savdo, iqtisodiy

va madaniy aloqalar olib borganlar. Yunon-Baqtriya podsholari savdoda qo'llaniladigan oltin va kumush tangalar chiqarganlar. Yunon-Baqtriya madaniyatining ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Buni biz **miloddan avvalgi X-V ming -yilliklarga** mansub Zarautsoy suratlari misolida ko'ramiz.

Yunon-Baqtriyada yunon va mahalliy baqtr madaniyatining aralashuvi natijasida ellin madaniyati vujudga kelgan. Haykaltaroshlik, rassomchilik, naqqoshlik kabi tasviriy san'at ham rivoj topgan. Yunon-Baqtriyada hindlarning buddizm, zardushtiylilik va yunonlarning ko'p xudolik dinlari aralashib ketgan edi.

Yunon-Baqtriya davlati **130-140 -yil** yashadi. Lekin u yerda yashagan xalqlar yuksak madaniyat yaratib qo'shni xalqlar madaniyatiga barakali ta'sir ko'rsatgan. Bu madaniyatning rivojida O'rta Osiyo, xususan o'zbek xalqi bobokalonlarining ham katta xizmati bor.

Mamlakatning keyingi taraqqiyoti Kushon podshlogi bilan bog'liq bo'lgan. Tadqiqotchilarning fikricha, Yunon-Baqtriya davlatining chegaralari doimiy mustahkam bo'lmasdan, harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turgan. Mil.avv. III asming oxirlarida O'rta Osiyo janubidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma'lumot beradi. Uning yozishicha, Salavkiylar tomonidan Baqtriyada qamal qilingan Yevtidem, ularning hukmdori Antiox III ga «chegarada ko'chmanchi qabilalar turganligi va ular chegaradan o'tadigan bo'lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og'ir bo'lishi mumkinligini» bildiradi. Bu ko'chmanchilar mil.avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun Sug'dni egallagan bo'lib, bu hududlar Yunon-Baqtriya davlatining vaqtinchalik shimoliy chegarasi edi. Shuningdek, g'arbiy Hisor tog'lari ham shimoliy chegaralar bo'lgan bo'lishi mumkin. Yunon-Baqtriya davlatining gullab-yashnagan davri mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Janubiy hududlardagi o'sha davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar), Oyxonim, Qorabog'tepa kabi yodgorliklardan hokim saroylari, ibodatxonalar, turar-joy, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko'plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon Baqtriya Osiyodagi eng yirik davlatlaridan biri bo'lgan. U ravnaq topgan vaqtda Turonning sharqiy, janubi-sharqiy viloyatlari, g'arbiy Xitoy, Baqtriya va Hindistonning katta qismini egallagan edi. Podsholik yerlarining katta-katta maydonlari tog'lardan iborat. Hind,

Oks, Gang, Braxmaputra va Jamna daryolarining bo'ylari tekisliklardan iborat bo'lgan. Bu o'lka hayvonot, o'simliklar, yer osti va usti qazilma ashyolariga juda boy edi. O'lkaning boy tabiiy sharoiti bu yerda qadimdan odamlarning yashashlari uchun imkon bergan. Bu o'lkada ilk tosh asridan beri aholi yashab keladi. Podsholik katta maydonni egallagani uchun unda – **hind, Toxar, sug'd, baqtriya, yunon, usun** va boshqa qabila va elatlar yashaganlar.

Shak qavmlariga mansub yuechji qabilalari Markaziy Osiyoning g'arbiy qismida yashar edilar. Yuechjilardan sharqdagi bepoyon dashtlarda esa xunn qabilalari ham kun kechirgan. Uzoq -yillar mobaynida yuechjilar o'tloq talashib xunlar bilan kurash olib borganlar. Bu janglarda goh xunlar, goh yuechjilar g'olib chiqar edilar. Keyinchalik xunlar kuchayib, yuechjilarni Markaziy Osiyodan g'arbiga chekinishga majbur qilgan. Ular dastlab, Oloy va Dovonga (Farg'ona vodiysi) ko'chib, so'ng So'g'diyona, Shimoliy Baqtriyaga, undan esa Janubiy Baqtriya bo'ylab tarqalganlar. Yuechjilar **xyumi, shuanji, guysan, xise** va **dumi** kabi bir-biriga qarindosh qabilalardan iborat edilar. Aynan ushbu qabilalar Yunon baqtriya davlatiga bostirib kirib barham bergan.

Bir tomondan yuechji, ikkinchi tomondan ko'chmanchi saklarning shiddatli hujumlari natijasida Yunon-Baqtriya davlati ag'darib tashlanadi. Guysuan qabilasining sardori Kudzula Kadfiz qolgan 4 ta qabilani birlashtirib Kushon davlatiga asos solgan va o'zini «**Shohlar shohi**» deb e'lon qilgan. Shu tariqa Kushon podsholigi tashkil topgach u Parfiya bilan zafarli urushlar olib boradi. Kanishka davrida Qashqar, Yorkent va Xutan ham Kushon saltanati tarkibiga kiradi. Shu davrda Kushon saltanatining yerlari Hindistondan Orol dengizigacha, Parfiyadan Xutongacha yo-yilgan edi. Bu davrda Kushonlar saltanatining poytaxti **Baqtriyadan** Peshovarga ko'chirilgan.

Aynan Kushon podsholigiga ham asosan Baqtriya tasir o'tkazgan. Unda Baqtriyada bo'lgan siyosiy tizim joriy qilingan. Xo'jalik rivojlangan davrida xo'jalikning hamma tarmoqlari rivoj topdi. Gang, Hind, Oks, Jamna kabi katta-kichik daryolarning bo'ylaridagi unumdor yerlar dehqonchilikning markazlari edi. Yunon Baqtriya davrida suv omborlari, kanallar, ariqlar va suv inshootlari qurilishiga katta e'tibor berilgan. Ziroatkorlar bug'doy, arpa, sholi, g'o'za, tariq, kunjut, mosh, no'xat kabi ekinlar ekib, ulardan mo'l hosil olganlar. Dehqonlar podsholikning O'rta Osiyo qismida qovoq, bodring, qovun, tarvuz ekib polizchilik bilan shug'ullanganlar. Podsholikning ko'p joylarida, ayniqsa

tog' va tog' oldi yerlarida, bog'bonlar olma, nok, o'rik, gilos, shaftoli, anor, anjir kabi mevali daraxtlarni ekib parvarish qilganlar. Kushonlar podsholigi davrida chorvachilik ham ancha rivoj topadi. Baqtriya hukmronligi davrida hunarmandchilik ham rivoj topgan. Podsholikda temirchilik, to'qimachilik, kulolchilik, qurolsozlik, me'morchilik, zargarlik, kemasozlik ancha yuksalgan edi. Hunarmandchilikning yirik markazlari – shaharlar va katta qishloqlar bo'lgan.

Baqtriya davrida savdo-sotiq ham rivoj topgan edi. Hind **savdogarlari** «Buyuk Xitoy yo'li» va boshqa savdo yo'llarining tarmoqlari orqali Xitoy, O'rta Osiyo, Old Osiyo mamlakatlari bilan savdo qilganlar. Yunon-Baqtriya podsholigida juda ko'p xalqlar va elatlar yashaganlar. Shuning uchun ularning madaniyati rang-barang bo'lgan. **Bu narsa** tasviriy san'atda, diniy e'tiqodda ham o'z aksini topgan. Yunon Baqtriya podsholigidagi qabila va elatlar buddizm, **zardushtiylik** va ibtidoiy din shakllariga e'tiqod qilgan. Yunon-Baqtriya davrida ilmiy-amaliy bilimlar – falsafa, tarix, geografiya, tabobat, matematika kabi fanlar rivojlangan edi. Kushon madaniyati Qadimgi Hindiston va O'rta Osiyo xalqlarining mashaqqatli mehnati bilan yaratilgan.

5. Qang' davlati davlatchiligi tarixi

Antik davr O'zbekiston hududlarida taraqqiy etgan davlatlardan yana biri – Qang' davlatidir. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlati mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar mil.avv. III asr oxiri – II asr boshlariga to'g'ri keladi. Ammo, Qang' davlati va qang'arlar tarixining mashhur bilimdoni K.Sh.Shoniyozovning fikricha, bu davlat mil.avv III asrning boshlarida paydo bo'ladi. Keyinroq esa, Yunon-Baqtriya davlati va qo'shni ko'chmanchi qabilalar bilan bo'lgan kurashlar natijasida Qang' davlati yanada mustahkamlanadi hamda manbalarda O'rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida tilga olinadi.

Qang' davlati asosini tashkil etgan qabilalar Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida istiqomat qilishgan. Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang' davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o'z chegaralarini ham kengaytirib boradi. Ya'ni, mil.avv. II va milodiy I asrda Qang' davlatining hududi ancha kengayib Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o'z ichiga olar edi.

Qang' davlati haqida bizgacha etib kelgan manbalarda bu davlat hokimiyati qanday idora qilingani, boshqaruv tartibi va shakllari haqida aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Katta Xan sulolasi tarixida (mil.avv. 202-yil.mil. 25-yillar) Qang' podshosi o'z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma'lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar o'sha davrda tashkil topgan Qang' davlatida kengash muhim rol o'ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaydilar. Demak, o'sha davrlarda podsho saroyi qoshida kengash mavjud bo'lib, podshoning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha davlat ishlari va boshqaruvi bilan bog'liq masalalar ana shu kengash yig'ilishida hal qilingan.

Qang' davlatiga qarashli yerlar bir nechta viloyatlarga (yoki mulklarga) bo'lingan bo'lib, ularning har birini jobg'u yoki yobg'u (qad. Xitoy manbalarida –chjaovu) deb nomlangan hokimlar boshqargan. Jobg'ular mamlakat boshqaruvida Qang' podsholarining asosiy tayanchi hisoblangan. Jobg'ular podsholarga yaqin kishilardan, ularning qarindoshlaridan, yirik urug'-qabila boshliqlaridan tayinlangan.

Qang' davlatining tashkil topishi asosiy sabablaridan biri tashqi harbiy hujumlardan himoyalaniish zaruriyati bo'lgan. Miloddan avvalgi 329-yilda Iskandar qo'shinlari Bekobod va Xo'jand oralig'ida Sirdaryodan kechib o'tib, bosqinchilik qilganda mahalliy aholi unga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bundan natija chiqara olmagan Iskandar ortga qaytishga va Xo'jand yaqinida Aleksandriya Esxata shahriga asos solishga majbur bo'lgan edi.

Miloddan avvalgi II va milodiy I asrda Qang' davlatining hududi kengayib, Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chu daryolarining quyi oqimidagi yerlarni o'z tarkibiga kiritadi. Qang' davlatining ikkita poytaxti bo'lib, biri Qang'diz (Oqqo'rg'on) va ikkinchisi O'tror bo'lgan.

Ayrim tarixchilarning fikricha Kangyuy yoki Qongli – qadimgi Xorazm davlati bo'lib, miloddan avvalgi II - I asrlarda ushbu davlat hududi O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning hozirgi hududiga to'g'ri keladi (Farg'ona va Surxondaryodan tashqari) deb hisoblanadi. Ularning fikricha «Mahabharata» va «Avesto» da zardushtiylikning paydo bo'lishi munosabati bilan yod etilgan Qonqa Xorazmiylar davlatidir. Arxeologik izlanishlar Qongli davlati hududiga qadimgi Chochni ham kiritadi.

6. Kushon davlati va uning davlatchilik xususiyatlari

Miloddan avvalgi I asrda yuechji qabilalari uyushmasida (Guyshuan, Shuanmi, Xisi, Xyumi, Xuanmi) **Guyshuan** (Kushon) urug'ining hokimlik mavqei ancha kuchaygan. Guyshuan qabilasi dastlab Surxon vohasida joylashgan va ularning poytaxti **Dalvarzin** shahri (hozirgi Sho'rchi tumani) bo'lgan. Podsho **Kujula Kadfiz** davrida Kushon podsholigi hududlari ancha kengaydi va davlat tarkibiga hozirgi Janubiy Tojikiston, Afg'oniston va Kashmir yerlari qo'shib olinadi.

Kushon podsholigi Kanishka hukmronligi -yillarida (78-123-yillar) ulkan saltanatga aylandi. Kushon podsholigi Surxon vohasi Janubiy Tojikiston, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston va sharqiy Turkiston yerlarini o'z tarkibiga kiritdi. Shu vaqtda poytaxt Dalvarzindan Peshovarga ko'chirildi. Kushon podsholigi qadimgi davrdagi Rim, Parfiya, Xitoy davlatlari bilan teng bo'lgan va g'oyatda qutratli davlatga aylandi.

Mamlakatimiz hududlarida yuzaga kelgan Kushon podsholigi tarkibiga O'zbekistonning asosiy hududlari (Xorazm, Zarafshon, Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona) kirmaganligi natijasida. Usha hududlarda o'ziga xos boshqa mahalliy davlat yuzaga kelgan va kushonlar madaniy an'analaridan xoli tarzda taraqqiy etgan. Bu davlatlar bilan Kushon davlatining shimoliy chegaralari Ko'hitog', Boysun, Hisor tog'lari orqali o'tganligi Boysun tumanidagi Darband atrofidan o'rnatilgan mudofaa devorlarini o'rganish natijasida isbotlandi. Bu mudofaa devorlari qoldiqlari shu yerdan o'tgan chegara qal'asi devorlari bo'lgan.

Kushon sulolasi va davlati tarixi yozma manbalar va tangashunoslik tadqiqotlari orqali o'rganildi. Tangalardagi dastlabki vaqtlarda Yunon-Baqtriya shohlari tasviri mavjudligi va asta-sekin uning o'rmini kushonlarning "shoh", "shohlar shohi" so'zlari egallashi harbiy siyosiy qudrati yuksalib borganligidan dalolat beradi.

Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlat boshqaruvi an'analarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Davlatning oliy hukmdori podsho, viloyatlar va shaharlarni o'z noiblari yordamida boshqarardi.

Buyuk Ipak yo'lining rivojlanishi bilan Kushon Podsholigining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yashnashiga ta'sir ko'rsatdi. Shaharlar ko'paydi, yangi-yangi yerlar o'zlashtirildi va sug'orish tarmoqlari barpo etildi.

Shaharlar tuzilishiga ko'ra bir necha qismdan iborat bo'lgan: hokim saroyi, hunarmadchilik ustaxonalari, guzarlar, alohida ibodatxonalar joylashgan shahar qismi va boshqalar.

Davlatning iqtisodiy asosini sug'orma dehqonchilikka asoslangan xo'jalik, savdo va hunarmandchilik tashkil etgan. Hunarmandchilik turli -tuman kasb va hunardan iborat bo'lgan.

Tashqi siyosat ancha kengayib, Hindiston, Xitoy, Rim saltanati bilan savdo va elchilik munosabatlari o'rnatilgan. Savdo munosabatlarining kengayishiga Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida Termizdan Rim tangalari O'rta yer dengizi atroflarida Kushon tangalarining topilishi ham fikrimizning dalilidir.

Kanishka davrida kushonlar madaniyati hindlashtirildi va budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va Yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi shakllandi. Me'morchilik tasviriy san'at yuksak darajada rivojlandi jahon miqyosida mashhur bo'lgan Kushon davri san'at obidalari **Ayritom, Eski Termiz, Dalvarzintepa va Xolchayondan** topib o'rganilgan.

Kushon davlati haqida shuni alohida takidlash joizki, davlat bir necha hududlar va ko'plab qadimgi xalqlarni birlashtirgan. Ular orasida o'zbek xalqi ajdodlari ham kushon madaniyati yuksalishiga o'z hissasini qo'shgan. Kushon davlati IV asrlargacha og'ir ichki va tashqi kurashlar iskanjasida qoldi va asosiy hududlaridan ajraldi. Bu vaqtda uning hududlari qisman Shimoliy Hindistondagina saqlanib qoldi. Bu davrda dehqonchilik madaniyati Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo havzalari va Sirdaryo bo'ylari doirasida keng tarqaldi. Baqtriya, So'g'd va Xorazm davlatlari moddiy madaniyatida qadimgi sharq sivilizatsiyasi o'z aksini topgan edi. O'sha davrda jamiyat asosini erkin jamoa a'zolari tashkil etgan. Faqat kushonlar saltanati davridagina qullar mehnatidan foydalanish birmuncha kuchaydi. Biroq, u ham Yunoniston va Rimdagidek qullar mehnatidan ommaviy foydalanish darajasiga ko'tarilmadi. Shunday qilib, bu davrda tarkib topgan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy asosini erkin jamoa xo'jaliklari tashkil etar edi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ahamoniylar sulolasi hukmronligi davri davlat boshqaruvi O'rta Osiyo xalqlari davlatchiligiga qanday ta'sir ko'rsatgan?
2. Yunon-Baqtriya davlatining boshqaruv tizimi haqida so'zlab bering?
3. Qang', Dovon va Xorazm davlatlarining o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rni?

4. Kushon davlatchiligining iqtisodiy asoslari haqida fikr yuriting?
5. Qang', Dovon va Xorazm davlatlari davlat boshqaruvi va uning xususiyatlari qanday bo'lgan?

4. MAVZU: O'ZBEKISTONDA ILK O'RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI TARIXI (V -VII ASRLAR)

Reja:

1. O'zbekiston hududida ilk o'rta asr davlatchiligi masalalari
2. Eftaliylar davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy hayot
3. Turk xoqonligi davlatchiligi va ilk o'rta asrlarda siyosiy tarqoqlikning kuchayishi
4. O'rta Osiyoda mahalliy ilk o'rta asrlar davlatlarining shakllanishi va xo'jaligi.

1. O'zbekiston hududida ilk o'rta asr davlatchiligi masalalari

Miloddan avvalgi III – milodiy III asrlar oralig'ida Sharqiy Sibirdan Ural va Volga daryolari bo'ylari, Oltoydan Amudaryo va Orol degizi atroflarigacha bo'lgan juda katta hududda bir qator davlatlarning shakllanishi va ma'lum davrlarda taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda hukm surishi kuzatiladi. Bunda ayniqsa, mahalliy o'troq aholi va o'troqlashuv tarziga o'tayotgan ko'chmanchi chorvador qabilalar va ular madaniyatlarining qo'shilishi Muhim o'rin tutadi va mazkur jarayonni tezlashtiradi. O'troqlashuv jarayoniga qo'shilmagan va o'z ijtimoiy holatini saqlab qolgan bir qator ko'chmanchi chorvador qabilalarda esa boshqaruv tartiblari chuqur ildiz otgan qabilalar siyosiy ittifoqlari – o'ziga xos tarzdagi davlatchilik an'analari shakllana boshladi. Ayniqsa, Buyuk Xitoy devorining qurilishi va ko'pgina ko'chmanchi turkiy qabilalarning Xitoy va Sharqiy Turkistonning serunum vohalariga harbiy yurishlari cheklangach, bu qabilalar endi G'arbiy Sibirdan Ural daryosigacha, Oltoydan Sirdaryogacha yo-yilgan hududlarga yo-yila boshlaydi. Bu yo-yilish yoki ko'chish ma'lum qabilaviy siyosiy ittifoqlarning yuzaga kelishi va o'zining kuch-qudratga erishuvi bilan bog'liq bo'lgan. Turkiy qabilalardagi bu jarayonda ishtirok etgan ayrim siyosiy qabilaviy ittifoqlar ma'lum vaqtlarda O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonning hosildor dehqonchilik vohalariga ham hujumlar uyushtirganlar va ayrim vaqtlarda bu yerda hukmronlikni ham qo'lga kiritganlar. Albatta, bu turkiy qabilalar mahalliy xalqlarning davlatchilik an'analari uchun yuksak bo'lgan o'zgarishlarni o'zlari bilan olib

kelmaganlar, xattoki ularning boshqaruv an'analari mahalliy xalqlarning mukammal davlatchiligi bilan qiyoslash darajasida ham bo'lmagan, shunga qaramay ularning ma'lum davrlardagi siyosiy hukmronligi mahalliy xalqlarning davlatchilik boshqaruv tizimi va davlatchilik strukturalariga ma'lum ta'sir o'tkazgan. Bunday holatni ilk o'rta asr turkiy davlatlaridan biri Eftallar hukmronligi davrida ko'rish mumkin. Eftallarning mazkur hududlardagi siyosiy va iqtisodiy hukmronligi davomida yerga egalik munosabatlari va davlatchilik an'analari va ijtimoiy munosabatlardagi ayrim o'zgarishlarning yuz berishi bilan xususiyatlanadi. Bu bilan eftaliylarda yuksak davlatchilik an'analari mavjud bo'lgan, degan xulosa kelib chiqmaydi, balki ularning uzoq vaqt hukmronligi va mahalliy xalqlarning davlatchiligini o'zlashtirib, o'ziga bo'ysundirishi mazkur jarayondagi ayrim o'zgarishlarning yuz berishiga olib kelgan edi.

Shuning uchun ham turli vaqtlarda savdo yo'llari tarmoqlariga egalik qilib turgan davlatlar ikkinchi tarmoqqa ham egalik qilish uchun shimoldagi yoki janubdagi raqiblari bilan doimiy kurash olib borganlar. Bunday holatni Eftaliylar va Turk xoqonligi, Eftaliylar va Sosoniylar, Turk xoqonligi va Sosoniylar, Turk xoqonligi va Arab xalifaligi, Toxariylar va Arab xalifaligi, Somoniylar va Safforiylar, Somoniylar va turkiy ko'chmanchi qabilalar, Somoniylar va Arab xalifaligi, Qoraxoniylar va Somoniylar, Qoraxoniylar va G'aznaviylar, Saljuqiylar va G'aznaviylar va Xorazmshohlar, Xorazmshoxlar va Mo'g'ullar va boshqalar. Tarixiy jarayonlarning shu nuqtai-nazardan rivojlanib borishi kuzatilsa, Buyuk Ipak yo'lining har ikki tarmog'i qisman Eftaliylar, qisman Arab xalifaligi, qisman (juda qisqa vaqt) Shayboniyxon tomonidan, to'lig'icha Somoniylar, Amir Temur davlatlari davridagina to'liq yagona davlat nazoratiga olinganligini ko'rish mumkin. Aynan ana shu davlatlarning O'rta Osiyo hududlarida hukm surgan boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan ancha yuksak darajaga yetganligini, davlatning osoyishtaligini, xalqining farovonligi va bunyodkorligining asosiy sabablari va omillaridan biri sifatida ularning Buyuk Ipak yo'li ustidan to'la nazorat o'rnatilganligida edi, deb hisoblash mumkin.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududlariga kirib kelgan turkiy qabilalar xioniylar, kidariylar (toh arlar) va eftaliylar edi.

V asrlarga kelib, O'rta Osiyo hududlari va unga chegaradosh hududlarda yashayotgan bir qator turkiy qabilalar xion qabilalari tomonidan birlashtirildi va kuchli qabilaviy siyosiy ittifoq shakllantirildi.

Xioniyar haqidagi dastlabki ma'lumotlarni Ammian Marsellinning asarlarida ko'rish mumkin. U 356-yil xioniyar hukmdori Grumbatning o'z o'g'li bilan Eron sosoniylari shohi Shopurning Suriyadagi Amida shahrini qamal qilgan vaqtida janglarda ishtirok etganligi to'g'risida yozib qoldirgan. Yirik qabila siyosiy ittifoqini shakllantira olgan Grumbat V asr boshlarida O'rta Osiyo hududlariga bostirib kiradi va Amudaryo havzasini egallaydi. V asrda sosoniylar shohi Varaxran V (418-438 -yillar) Amudaryo bo'ylarida hukmronlik qilayotgan xioniyarlarga qarshi kurash boshlaydi. Ikki o'rtadagi kurash sulh tuzilishi va davlatlar o'rtasida Marv va Balx oralig'ida joylashgan Tallikonning chegara etib belgilanishi va chegara belgisi sifatida bu yerda Toshminora qurilishi bilan yakunlanadi. Xioniyar va Sosoniylar o'rtasidagi kurash Yazdigard hukmronligi (438-457 -yillar) -yillarida ham davom etib, dastlab xioniyar hukmdorining, 457-yilda esa Yazdigardning o'zining o'ldirilishi bilan tugaydi. Xioniyar bilan deyarli bir vaqtda shakllangan toxarlar (hukmdorining nomi bilan Kidariylar deb ham yuritiladi) O'rta Osiyodagi bir oz muddatlik hukmronligidan so'ng, sosoniylar va eftallar tomonidan mag'lubiyatga uchratilgandan so'ng Hindistonga ko'chib ketadi va u yerda chorak asr Guptalar davlati o'mida hukmronlik qiladi. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo davlatchiligi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumida o'ziga xos iz qoldirgan xalqlardan biri eftaliylar edi.

2. Eftaliylar davlatchiligi va ijtimoiy-siyosiy hayot

Tarix fanida eftaliylarning kelib chiqishi haqida hozirgacha yagona fikr mavjud emas. Bir qancha olimlarning, tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra eftaliylar mahalliy xalqlardan, boshqalari Xorazmdan, yana birlari esa massagetlarning yetita urug'i orasidagi yetakchi qabila bo'lganligini ta'kidlaydilar.

IV-VI asrlarda O'rta Osiyoga kelgan ko'chmanchi qabilalar ittifoqi asosida **Eftaliylar davlati** tashkil topdi. Eftaliylar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar yunon, xitoy, arab va b. xalqlar manbalarida uchraydi. Ularda eftaliylar turli nomlar bilan atalgan. Jumladan, xitoylarda Ye-da yoki I-da, suriya va lotin manbalarida "**Eftalir**", arman yozuvlarida "**Tetal**" yoki "**Xettal**", arab va forschada "**Xaytal**" yoki "**Haftal**", yunonlarda "**Abdel**", Hindlarda "**Xuna**" va boshqalar.

Xitoy manbalarida eftaliylar turklar (**tukyue**)ga yaqin de-yilsa, vizantiyalik tarixchi Prokopiy Kesariyskiy ularning kelib chiqishini "**xunlar**" bilan bog'laydi. Aksariyat olimlar esa eftaliylarni miloddan

avvalgi I - milodiy IV asrda Yettisuv va Ili vohasidan Orol dengizi bo'ylariga kelgan "xunlar" bilan aralashib ketgan sak - massaget qabilalarining avlodlaridir, degan fikrni bildiradilar.

Yunon manbalarida yozilishicha eftaliylar yagona podsho boshqaruviga rivojlangan obod fuqarolik jamiyatiga ega bo'lishgan. Ichki va tashqi munosabatlarda adolat ular uchun asosiy mezon sanalgan. Eftallarda patriarxal boshqaruvi tartibi jixatlari ustun bo'lgan. Shuningdek eftallarning harbiy qo'shinlar eng qudratli qo'shinlardan xisoblangan.

Eftaliylar davlati hududiy jihatdan O'rta Osiyoning asosiy qismi, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Hindiston hamda Gandxara viloyatlari ustidan hukmronlik qilgan.

Eftaliylar davlatidagi asosiy shaharlar So'g'diyona shaharlaridan iborat bo'lib, ular orasida Kushoniya (Kattaqo'rg'on yaqinida) Rivdad, Poykand, Tallikon, Termiz, Gurgon, Varaxsha kabi shaharlar eftaliylar hukmronligi -yillarida aloxida ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar sanalgan va iqtisodiy jihatdan ancha taraqqiy etgan. V asrdan boshlab, Samarqand ham taraqqiy eta boshladi. Bu vaqtda davlatning siyosiy markazi Poykand shahri, hukmdorlar qarorgohi esa Varaxsha bo'lganligi taxmin qilinadi.

Eftaliylar yirik davlat tizimini vujudga keltirdilar. Davlat hududlari Kushonlar davlatidan kengroq edi. Eftaliylar davrida Eron sosoniylarining Sharqqa yurishlariga chek qo'yildi va sosoniylar uzoq - yillar davomida Eftallarga tobe bo'lib keldilar. Eftallar haqidagi dastlabki ma'lumotlar asosan V asr o'rtalariga taalluqlidir.

Eftaliylarda aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan, qolganlari esa chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi asta-sekin mahalliy aholi bilan aralashib borib, o'troq hayot tarziga o'ta boshlagan. Jamiyatda "sara kishilar" - zodagonlarning mavqei kuchayib borgan va ular ko'proq shaharlarga kelib yashay boshlaganlar. Oddiy aholi va zodagonlar o'rtasidagi farq hamma tomonlama yaqqol ko'rinish turgan.

Eftaliylarda kushon yozuvining rivoj topgan shaklini ko'rish mumkin. Eftallar yozuvi o'zining shakli bilan qisman boshqalardan farq qilgan va so'zlar chapdan o'nga qarab o'qilgan. Alifbosida 25 ta harf bo'lgan. Shuningdek, So'g'da yozuvi va So'g'da tili ham ayrim hududlarda yetakchilik qilgan.

O'rta Osiyoga bostirib kirgan eftaliylarning janub sari siljishlari Eron bilan munosabatlarni keskinlashtirdi. Taxminan 457-yilda

eftaliylar Vaxshunvar Eftalon boshchiligida - Chag'oniyon (Termizning shimolidagi yerlar), Toxariston va Badaxshonni o'ziga bo'ysundirib O'rta Osiyoday kuchli davlatga asos soldilar. Ko'pchilik olimlar Eftaliylar davlatining markazi Poykand (Boykent) yoki Balx bo'lgan degan fikrga kelishgan.

Eftaliylar davlatining kuchayishidan tahlikaga tushgan Eron shohi Peruz (Feruz) eftaliylarga qarshi yurishlarda yengilgan. Eron sasoniylari uzoq vaqt eftaliylarga xiroj to'lab turishgan. Keyinchalik eftaliylar Marv, Qobul va Panjob vodiysi, Qorashar, Qashg'ar va Xutoni ham egallaganlar. Eftaliylar Kushon podsholigi hududlarini qo'lga kiritishib, sasoniylar davlatini tugatdilar va O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos soldilar.

Eftaliylar O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayotida Muhim o'rin tutgan. Prokopiylar Kesariyskiyning yozishicha: "Eftaliylar (saltanati) bir hukmdor orqali idora etilib, o'z qonuniy (adolatli) davlatchiligiga egadir. O'zaro va qo'shnilar bilan (munosabatlarda) adolat me'yorini saqlashda vizantiyalik va forslardan hech ham qolishmaydilar". Eftaliylar asosan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan, bir qismi chorvachilik bilan shug'ullanishgan.

Kushon davlati inqirozidan keyin o'lkada mustaqil mulkdorlar paydo bo'lgan. Ular Buxoroda - buxorudot, Chag'oniyyonda - chag'onxudot, Vardanzeda - vardanxudot, Shoshda-tudan, Samarqand va Farg'onada-ixshid, Ustrushanada-afshin, Xorazmda-xorazmshoxlar deb atalgan. Mulkdorlarning qullar va qaram kishilardan tuzilgan harbiy drujinalari bo'lib, ular "**chokarlar**" deb atalgan. Markaziy hokimiyat ana shu mulk egalari uyushmasidan tashkil topgan.

Eftaliylar davrida ko'plab shahar-qal'alar qurilgan bo'lib, ulardan biri Poykentdir. Tarixchi Narshaxiyning yozishicha "Buxoro shahridan qadimiyroqdir". Qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan qo'rg'onlar - Naxshab vohasidagi Zahhoki-Moron qal'asi, Buxorodagi Varaxsha qal'asi, Xorazmdagi Firqal'a, Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo'lgan Devori-qiyomat, Buxoro vohasidagi Kampir-Devor eftaliylarning o'ziga xos me'morchilik namunalari. Eftaliylar davrida qasrlar ikki qavatli, shifti tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan xonalardan iborat bo'lib, ular paxsa, xom va pishiq g'ishtlardan qurilgan. Saroy va ibodatxonalar devorlari odatda rangli tasvirlar bilan bezatilgan. Jumladan, Bolaliktepa (Surxondaryo) dan topilgan suratlarda ziyofat jarayoni tasvirlanib, unda bashang kiyingan ayol va erkaklarning

suratlari mahorat bilan ishlangan. Buxorudotlarning qarorgohi-Varaxsha saroyi, Toshkent vohasidagi Oqtepa, Xorazm vohasidagi Fir qal'alari eftaliylar me'morchiligining ajoyib namunasi. Bu davrda sug'orish kanallari ham qazilib, yangi yerlar o'zlashtirilgan. Sug'orish uslubi takomillashib, hozirgi Zaxariq, Bo'zsuv, Darg'om kanallari bunyod etilgan.

3. Turk xoqonligi davlatchiligi va ilk o'rta asrlarda siyosiy tarqoqlikning kuchayishi

VI asr o'rtalariga kelib eftallar davlati inqirozga uchray boshladi. VI asr o'rtalarida O'rta Osiyoda Turk xoqonligi hukmronligi o'rnatildi. VI asrning ikkinchi yarmida Ashin urug'idan bo'lgan Asan va Tuu (460-545) turkiy qabilalar ittifoqiga asos soldilar. Tuuning o'g'li Bumin Tele qabilasini bo'ysundirgach, 551- yilda Markaziy Osiyoda ancha kuchli bo'lgan Jujanlar (mo'g'ullar) xonligini tor-mor etdi va Turk Xoqonligi (551-744) ga asos soldi. U Ili daryosi bo'yida hukmdor deb e'lon qilingach, "**Ilixon**" degan unvonni oldi va o'z davlatini Xoqon unvoni bilan boshqara boshladi. Oltoydagi Utukan shahri yangi Turk xoqonligining poytaxti qilib belgilandi. Bumin o'z ukasi Istamiga birinchi sarkarda va davlatning bosh amaldori darajasini bildiruvchi - "**Yabg'u**" (**bahodir**) unvonini berdi. Aka-ukalar birgalikda davlat chegaralarini kengaytirishga kirishdilar.

Bumin sharqiy yerlarni, ukasi Istami g'arbiy hududlarni birlashtira boshladi. 563-567-yillarda Turk xoqonlari Eftaliylar davlatini tor-mor qilganlaridan so'ng O'rta Osiyo hududida o'z hukmronliklarini o'rnatibgina qolmay, Eron sasoniylari bilan ham tez-tez urushlar olib bordilar. E'tiborli joyi shundaki, Turk xoqonlari va amaldorlarining ko'pchiligi ilgari o'zlari yashagan hududlarda qolib, egallab olingan yerlardan keltirilgan to'lovlar, o'lponlar, sovg'a-salomlar olib turishni afzal ko'rdilar. Mahalliy zodagonlar mamlakatning ichki iqtisodiy va siyosiy hayotini o'zlari boshqardilar. Faqat jiddiy ichki ziddiyatlar, kelishmovchiliklar kelib chiqqandagina turk xoqonlari ularning ishiga aralashar edilar.

Turk Xoqonligi davrida O'rta Osiyo yerlarida yer egalik qilish munosabatlari mustahkamlanib, xoqonlar, amaldorlar va harbiy sarkardalar, mahalliy hukmron tabaqalar, yirik zamindor va din homiylari katta-katta yer-suv boyliklariga ega bo'ldilar. Hunarmandchilik va savdo-sotiqdan davlat xazinasiga katta daromad tushishi natijasida xoqonlar "Ipak yo'li"ni kengaytirishga va tinchligini

ta'minlashga katta e'tibor berishgan. Bu davrda shaharlar kengaygan. Shaharlar va yirik qishloqlarda karvonsaroylar qurilgan. Biroq, Turk xoqonligida ichki vaziyat notinch edi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli ijtimoiy va siyosiy kuchlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar hokimiyatni zimdan yemirib borgan. Markaziy hokimiyat bilan mahalliy hukmron tabaqalar o'rtasida ziddiyat kuchayishi natijasida xoqonlik zaiflashib, inqirozga yuz tutdi. Eron bilan olib borilgan doimiy urushlar Turk xoqonligi mavqeini yanada pasaytirdi. 588-yilda xoqonlik qo'shinlarining qattiq zarbaga uchrashi, uning parchalanishiga olib keldi. VI asrning 80 - -yillariga kelib, Turk xoqonligi Sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketdi.

G'arbiy turk xoqonligining markazi Yettisuv hududlari hisoblanib, xoqon yozda Isfijob (Sayram), qishda esa Siyobni qarorgoh qilardi. Har ikki xoqonlik aholisining asosiy mashg'uloti asosan chorvachilik bo'lsada, biroq bosib olingan mahalliy xalqlar evaziga, G'arbiy xoqonlikning ko'pchilik qismi dehqonchilik xo'jaligi va o'troq turmush tarzi bilan bog'langan edi. Shuningdek, xoqonlik tomonidan Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmog'i nazoratga olingandan so'ng savdo-sotiq va hunarmandchilik ko'lamlari ham kengayib bordi.

Mahalliy xalqlarning davlatchilik an'alarini turkiy boshqaruv bilan qorishtirish va boshqaruvda asosan mahalliy davlatchilik an'alarining ustunlik qilishi G'arbiy Turk xoqonligi davlatchilik munosabatlarining sharqiy xoqonlikka nisbatan yuksak taraqqiy qilgan darajaga ko'tarishi uchun imkon yaratdi va boshqaruv munosabatlari murakkablashib bordi. Markaziy hokimiyatning nisbatan kuchayishi, xoqonlik hududlarining kengayishi davlatning mustahkamlanib borishiga olib keldi. Ayniqsa, xoqonlik ikkiga ajralgan VI asrning 80-yillaridan boshlab o'tgan yarim asrlik vaqt davomida, VII asrning birinchi choragiga kelib G'arbiy Turk xoqonligi nisbatan kuchayib boradi. Bu vaqtga kelib uning sarhadlari Oltoydan Hind daryosi bo'ylarigacha borib taqaladi.

To'nyabg'uning hukmronligi -yillarida (618—630 yy) G'arbiy xoqonlikda davlat boshqaruviga oid ayrim islohotlar amalga oshiriladi va bunga ko'ra mahalliy hokimlarga yabg'u darajasi joriy etiladi. Bu esa mahalliy hokimlarni xoqonlikka, bevosita tobe hokimliklarga yoki noibliklarga aylantirilsa, ayni vaqtda mahalliy hokimlarning mustaqillikka bo'lgan intilishlari uchun sharoitni yuzaga keltiradi va keyingi davrlardagi siyosiy tarqoqlik va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi uchun zamin hozirlaydi.

VII asr boshlarida G'arbiy Turk xoqonligi eng kuchaygan darajaga erishgan vaqtda Xitoy bilan har ikki tomonni qoniqtiruvchi diplomatik aloqalar o'rnatildi va eski aloqalar tiklandi. Shu asrning 30-yillarida xoqonlik hududlariga xitoylik Syuan Syan keladi va Issiqko'l, Chu vodiysi, Choch viloyati, Samarqand, Buxoro va Amudaryo bo'ylarini kezeb bu yerda ko'rgan kechirganlari haqida o'zining esdaliklarini yozib qoldiradi.

Xoqonlikda mahalliy hokimlarning mustaqillikka intilishi va ayni vaqtda o'zaro kurashlari boshlanishi davlatning va markaziy hokimiyatning zaiflashuviga va parchalanishiga olib keladi. Bunday holat esa Xitoy tomonidan xoqonlikka qarshi harbiy harakatlarni boshlashiga turtki beradi va 659-yilda Tan imperiyasi qo'shinlari Yettisuvga bostirib kiradi. Bu kurashlarda mag'lubiyatga uchragan xoqonlik hududlarida Xitoy oliy hokimiyati hukmronligi o'rnatiladi, biroq xitoyliklarning 660-yildan boshlab Turk xoqonligi hududlarida xitoycha ma'muriy boshqaruv uslubini joriy etishga bo'lgan urinishlari naf bermaydi.

VII asrning oxiriga kelib O'rta Osiyoda xoqonlikni qayta tiklash uchun harakatlar boshlandi, avvalgi xoqonlik hududlarida, xususan O'rta Osiyo hududlarida bir necha o'nlab mayda-mayda hokimliklar shakllandi va kuchli siyosiy tarqoqlik yuzaga keldi. Xoqonlikni tiklash uchun barcha harakatlar naf bermadi, ayniqsa, VIII asr boshlarida O'rta Osiyo hududlariga boshlangan Arab xalifaligining bosqinchilik yurishlari turkiy davlatning barham topishiga va ayni vaqtda mahalliy hokimliklarning tugatilishiga ham olib keldi.

4. O'rta Osiyoda mahalliy ilk o'rta asrlar davlatlarining shakllanishi va xo'jaligi.

Turk xoqonligining ichki nizolar va tashqi harbiy hujumlar natijasida zaiflashuvi va markaziy hokimiyatning butun mamlakat ustidan nazoratni to'laligicha qo'ldan chiqarishi oqibatida O'rta Osiyoda siyosiy tarqoqlik chuqurlashdi va bir qancha mahalliy hokimliklar yoki kichik-kichik feodal davlatlar shakllandi. Yuzaga kelgan davlatlar o'z boshqaruv tizimlari, hududlari, xo'jaliklari va boshqa jihatlariga ega bo'lgan davlatchilik xususiyatlarini shakllantirdilar.

VI-VII asrlarda So'g'diyona, Xorazm va Farg'ona va ularga qarashli tarixiy - geografik hududlarda dehqonchilik va bog'dorchilik, uzumchilik va paxta yetishtirish, uy chorvachiligi yetakchi o'rin tutgan.

Iqtisodiy hayotning muhim sohalari sanalgan hunarmandchilik va savdo – sotiq yaxshi taraqqiy etgan.

Dehqonchilik - sun'iy sug'orishga asoslangan. Arablar bosqiniga qadar sug'orish tizimi yaxshi taraqqiy etgan va bu yerga kelgan arablar ham obod va ko'kalamzor bog' – rog'lar, dalalarni ko'rib, hayratda qolgan edilar. Samarqand shahrini suv bilan ta'minlaydigan sug'orish tarmog'idan tashqari Kushoniyaning Narpay, Buxoro vohasining Shofurkon, Samarqand atrofining Raboti Hoja kabi uchta suv tarmog'i mavjud bo'lgan.

Lalmikor dehqonchilik ham xo'jalikda asosiy o'rin tutgan. Ziroatchilikda an'anaviy donli ekinlar va paxta ko'p yetishtirilgan. So'g'dda ipak tolasi yetishtirilgan.

VI-VII asrlarda savdo – sotiq ishlari janubdan shimolga ko'chgan va bundagi vositachilik so'g'diylar qo'liga o'tgan. Konchilik ishlari kengayib, hunarmandchilik turlari ko'payib borgan. Mug' tog'ida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan 150 turdagi mato bu yerlarda to'qimachilik ham g'oyatda rivojlanganligidan dalolat beradi.

VII asrda harbiy to'qnashuvlarning ko'payishi iqtisodiy hayotda katta o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Birinchidan, markazlashgan hokimiyat zaiflashdi, ikkinchidan, siyosiy vaziyatning notinchligi iqtisodiy tanglikni yuzaga keltirdi.

So'g'd viloyati aholisi ijtimoiy qatlamlari, asosan, savdogarlar, hunarmandlar, taqvodorlar, harbiy askarlar, ziroatkorlar va chorvador aholidan tarkib topgan. Ularning orasida dehqonlar mavqe jihatdan yuqoriroq turgan. Chunki ular zodagon sanalib, katta yer egalari hisoblangan. Jamiyatda dindorlarning ham ahamiyati va o'rni yuksak bo'lgan.

VI-VII asrlarda madaniy taraqqiyot jamiyatdagi siyosiy – iqtisodiy va ijtimoiy voqealar ta'sirida rivojlanib borgan. Turli xalqlarning til va yozuvlari alohida o'ringa va mavqega ega bo'lgan. Arab yozuviga qadar O'rta Osiyo hududlarida turk – runiy (miloddan avval shakllangan), uyg'ur (taxminan VI asr), monaviy (milodiy III - VIII asrlar), so'g'd, braxma va suryoniy yozuvlari mavjud bo'lgan. Bular orasida Xorazm yozuvi alohida o'ringa ega bo'lgan.

So'g'd davlati. V—VII asrlarda bu mayda ilk feodal davlatlar, avval eftaliylar, so'ngra Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan bo'lsa-da, ammo eftaliylar ham, turklar ham ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to'lab turish bilan ular o'z mustaqilliklarini ma'lum darajada saqlab qoladilar. Bu davlatlarning

hukmdorlari o'z atrofidagi mulkdor zodagon dehqonlar va ularning harbiy chokarlariga tayanardilar. Chunki ular o'zaro bir-birlari bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lib, shu boisdan biri ikkinchisidan cho'chigan holda yashar edilar. Ular orasida eng yirigi So'g'dning ilk feodal davlatlari konfederatsiyasi edi. Bu ittifoqqa Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan Samarqand, Maymurg', Ishtixon, Kushoniya, Vardona, Buxoro, Kesh va Naxshob mulklari birlashgan edi. Bu mulklarning har biri o'z hokimiga va harbiy chokarlariga ega edi. Ularning ko'pchiligi Samarqand ixshidiga tobe bo'lsa-da, ammo Buxoro, Kesh va Naxshoblar deyarli mustaqil edi. Xatto ular o'z tanga pullarini zarb qilardilar. VII asr birinchi choragida Kesh viloyati kuchayib, qudratli davlatga aylanib boradi. VII asr o'rtalarida Kesh hukmdori - **ixshid Shishpir** butun So'g'dda hukmronlikni qo'lga kiritadi. U o'z nomidan tangalar zarb ettiradi va Xitoy bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatadi. VI asr ikkinchi yarimida Keshda Axurpat hukmronlik qilgan vaqtida Kesh va Samarqand o'rtasida kurashlar kuchayib ketadi va Samarqand hukmronlikni qaytarib oladi. Endilikda Kesh ixshidi Samarqand ixshidiga tobe bo'lib qoladi va unga **ixrid** unvoni beriladi. Bu vaqtda Samarqand hokimi Varxuman bo'lgan. So'g'diyonaning mahalliy hokimlari Choch va Xorazmning mustaqil hokimlari bilan birlashgan edilar. Yirik siyosiy birliklar ma'lum muddatlarda shaharlardan birida o'z qurultoylarini o'tkazib turganlar.

Samarqand ixshidi saroyida ajdodlar ruxiga atab qurbonlik qilish uchun maxsus ibodatxona bino qilingan. Unda o'tkaziladigan har - yilgi diniy marosimlarda viloyat hukmdorlarining barchasi qatnashardi. Yozma va arxeologik manbalardan ma'lum bo'lishicha, So'g'd hukmdorlari O'rta Osiyo va chet el davlatlari bilan elchilik aloqalari olib borardilar. Masalan, Afrosiyobda ochilgan devoriy rasmlarda So'g'd hokimi Varxumaning Chag'oniyon, Choch va Xitoydan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlanadi.

So'g'diyona hududlari hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo'lgan hududlardan iborat bo'lgan. Bu vaqtda Buxoro mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdi va **buxorxudotlar** boshchiligida yashay boshladi. So'g'dda aholi juda gavjum yashardi. So'g'diylar hunarmandchilik, savdo-sotiq, dehqonchilik va bog'dorchilik, ayniqsa uzumchilikda nihoyatda omilkor edilar. Darg'om, Naxripoy, Xarkon kabi yirik anhorlardan sug'orilgan So'g'd yerlari juda hosildor edi. Sug'orma dehqonchilik rivoj topgan bu diyorda g'alladan tashqari, paxta va sholi ekilardi. Uning paxtasidan to'qilgan surp va bo'z matolaridan faqat

so'g'diylargina emas, balki butun dasht aholisi kiyinardi. So'g'dning sharbatli uzumlaridan musallas tayyorlangan. Samarqandning zarg'aldoq shaftolisi Xitoy poytaxtida «Samarqandning oltin shaftolisi» nomi bilan dong'i ketgan edi. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlar bilan bir qatorda ot, xachir, eshak va tuyalar boqilardi. Ayniqsa So'g'dning histori ko'ylari va tulporlari juda mashhur edi. Buxoro, Kesh va Maymurg' yaylovlaridan uyur-uyur -yilqilar muttasil Xitoyga haydab borilardi.

Toxariston davlati. Toxariston hozirgi Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashgan. Bu mustaqil davlat Xuttalon, Chag'oniyon, Termiz, Badaxshon, Kabodiyon, Vaxsh, Shuman, Shug'onon, Vaxon kabi 27 ta tog'li va tog' oldi viloyatlarini birlashtirgan. Ular har birining o'z hokimi va chokarlari bo'lgan. Masalan, Chag'oniyon viloyatining hokimi «chag'onxudot», Termizning hukmdori «termizshoh», Xuttalonniki – «malik» yoki «sheri xuttalon» deb yuritilardi. Mahalliy hukmdorlarning eng kuchli va nufuzlisi Xuttalon, Shuman, Kabodiyon, Shug'onon va Vaxon viloyatlarining hokimlari bo'lib, ular harbiy kuchlar zarur paytlarda 50 mingtagacha chokar to'play olardilar. Toxariston avval eftaliylar, so'ngra Turk xoqonligi tomonidan bo'ysundiriladi. Manbalarda ta'rif etilishicha, VII—VIII asrlarda Toxariston aholisining yarmi mahalliy, yarmi esa turklar bo'lgan. Uning bir qismi toxar, ikkinchisi turk, uchinchisi esa mahalliy tilda so'zlashgan. Podshoh, zodagonlar va fuqarolar budda diniga sig'inganlar, qator ibodatxonalar va kohinlar bo'lgan. 25 harfli yozuvi ko'ndalangiga chapdan o'ngga qarab bitilgan. Aholisi ip va ipak matolardan kiyingan. Tog'liklari po'stin va jun chakmon kiyishgan. Erkaklar soch va soqollarini qirtishlab, ayollari esa uzun soch qo'yib yurishgan.

Toxariston noyob tabiiy boyliklarga serob edi. U yerda qadimdan konchilik taraqqiy topgan. Birgina Badaxshonning o'zidan la'l, lojuvard, aqiq kabi qimmatbaho toshlar va oltin, temir va jez kovlab olingan. Serjilo toshlar va ma'danlar zargarlik, chilangarlik va temirchilikda ishlatilgan. Bu o'lkada ayniqsa qurolsozlik yuksalgan edi. Chokarlar kamon, gurzi, cho'qmor, xanjar va shamshir bilan qurollangan. Ularning qo'lida ajoyib to'qima balx sovutlari bo'lardi. Toxaristonda shishasozlik ham ancha rivoj topgan edi. Rangdor shishalardan surmadonlar, marjon va munchoqlardan tashqari xilma-xil shisha buyumlar yasalgan. VIII asr boshlarida Toxaristondan Xitoyga olib chiqilgan qizil va zumrad rangli shishalar xitoyliklarni lol qoldirdi.

Toxaristonda ayniqsa to'qimachilik yuksak darajada edi. Ip, jun va ipakdan rangli, guldor va yo'l-yo'l matolar to'qilgan. Qimmatbaho ipak va jun matolardan asosan zodagon dehqonlari hukmdorlar kiyinishgan.

Xullas, Toxariston mustaqil ilk feodal davlatlar qatorida tursa ham, lekin hali bir oz bo'lsa-da, markazlashmagan edi. Chunki uning har bir viloyati o'zining vorisiy sulolasiga mansub hokimlari tomonidan boshqarilgan. Ular alohida-alohida mayda davlatchalarni eslatardi. Hatto ularning har biri o'zga yurtlarga elchilar yuborardi. Shunday qilib, Toxariston ilk o'rta asrlarda tashkil topgan mayda davlatchalar konfederatsiyasini tashkil etardi.

Farg'ona (Dovon) davlati. Bu davrda Farg'ona vodiysida yana bir ilk feodal davlat hukm surardi. Qadimda bu mamlakat Dovon va Farg'ona deb yuritilgan. Uning podsholari «ixshid» deb atalgan, poytaxti Koson va Axsikat shaharlarida joylashgan. Farg'ona Kan siyosiy ittifoqidan mustaqil bo'lib, afshin tomondan boshqarilgan va Tyan-Shan xalqlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan.

Dovon shimol tomondan Yettisuv, g'arbdan Choch va Eloq, janubi-g'arbdan So'g'd, janubdan Toxariston va sharqdan Sharqiy Turkiston viloyatlari bilan chegaradosh bo'lgan. Xitoy manbalarida ta'riflanishicha, Farg'ona yerlari juda hosildor bo'lib, aholisi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va sholi ekan. Unda bog'-u bo'stonlar va gulzorlar mo'l bo'lgan. Koson, Axsikat va Kubo kabi yirik markaziy shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalarini rivoj topib, uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda xaridorgir bo'lgan. qo'shni mamlakatlarga arg'umoqlar, bo'yoqlar, rang-barang shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan.

Farg'ona vodiysida o'troq aholi bilan bir qatorda tog' va tog' oldi yaylovlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvadorlar yashagan. Qurama va Qoramozor tog'lari yon bag'rilarida qadimdan -yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu diyorda ko'paytirilgan tulpor otlarning dong'i jahonga taralgan. Farg'onada qo'y, xachir va tuyalar ham boqilgan.

Shunday qilib, VI—VIII asrlarda Farg'onada dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo'jaliklari va ichki hamda tashqi savdo rivoj topgan. U mustahkam iqtisodiy poydevorli o'lka edi. Strategik jihatdan qulay geografik o'rni, mustahkam mudofaa inshootlari bilan ta'minlangan Koson, Axsikat, Kubo kabi yirik shaharlari, tog' qal'alari, vodiy bo'ylab joylashgan qator-qator istehkomli qo'rg'onlari tufayli bu diyori kuchli harbiy imkoniyatga ham ega edi. Ilk o'rta asrlarda Farg'ona

O'рта Osiyoning siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan qudratli davlat bo'lgan.

Choch va Iloq davlatlari. V—VII asrlarda Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikkita mustaqil ilk feodal davlatlari hukmronlik qilgan. Manbalarda ulardan biri Choch davlati, ikkinchisi Eloq mulki nomlari bilan tilga olinadi. Chochning poytaxti Chochkat shahri bo'lib, podshohi «tudun» deb yuritilgan. Xitoy manbalarida Choch viloyati Shi va Chje_nomlari bilan ta'riflanadi. Eloqning poytaxti Tunkat bo'lgan, hokimlari «dehqon» deb atalgan. V asrda Choch viloyati Eftaliylar davlatiga, VI asrda esa G'arbiy turk xoqonligiga bo'ysundiriladi. VIII asrda Choch va Eloq birlashib yagona davlatga aylanadi va o'z mustaqilligini tiklab oladi. Choch va Eloq shimol va g'arb tomondan G'arbiy turk xoqonligi, sharqdan Farg'ona va janubdan Ustrushona bilan chegaradosh edi.

Choch va Eloq sertarmoq xo'jalikka ega mamlakat edi. Unda sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayniqsa konchilik, ichki va tashqi savdo yuksak darajada rivojlangan. Ilk o'рта asrlarda Chirchiq daryosidan Zog'ariq, Bo'zsuv, Anhor va Kalkovuz kabi yirik sug'orish tarmoqlari qazib chiqarilib, Chochning ekin maydonlari nihoyatda kengaygan. Bu davrda Choch vohasi uzil-kesil shakllanib, u 50 ga yaqin sug'orish shoxobchalari vositasida sug'orilgan. Dehqonchilikda ko'proq arpa, bug'doy va tariq ekilgan. Ayniqsa, Chochning poytaxt shahri atroflari obod edi. Unda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, feodal qo'rg'onlari va ko'shklari, obod qishloqlar qad ko'targan.

Choch va Eloq tog'lari oltin, kumush, rangli ma'danlar, temir va jilvador chaqmoq toshlarga boy edi. Bu tabiiy boyliklar tufayli qadimda bu o'lkada konchilik va unga asoslangan hunarmandchilik rivoj topadi. Oltin va kumushlar qazib olishda ayniqsa, Eloq - O'рта Sharq mamlakatlarida shuhrat topadi. Chotqol va Qurama tog'larida joylashgan Kuxisim, Lashkarak va Koni Mansurdan kumush, Ko'shbuloq va Qizil olmasoy konlaridan oltin, O'ngurlikon va Oqturpoq konlaridan esa feruza kovlab olingan.

Rangli va nodir ma'dan konlarining o'zaro yaqinligi, ayirboshlash savdo bozori bo'lgan ko'chmanchi chorvadorlar dashtining Choch va Eloqda tutashib ketgani, mamlakatlararo tashqi savdo aloqalarini bog'lovchi karvon yo'lining o'lka orqali o'tishi bu viloyatlarda ichki va tashqi savdo-sotiqning kengayib, shaharlarning gavjumlashuviga imkon beradi.

Chochning mohir ustalari metallardan qurol-yarog', uy-ro'zg'or buyumlari, oltin va kumushlardan turli xildagi zeb-ziynatlar yasaganlar, teri oshlab, charm pishirib, paxta va jundan mato to'qiganlar, sopol va shisha idishlar yasab, ichki va tashqi bozorni hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta'minlaganlar. Chochdan oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, g'alla, quruq meva va -yilqilar chetga chiqarilgan.

Shahar aholisining bir qismi savdo bilan mashg'ul bo'lgan. VI-VIII asrlarda Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq qilishda chochliklar Samarqand va Buxoro savdogarlaridan keyin uchinchi o'rinda turgan. Choch poytaxti tashqi savdo munosabatlarining markazi edi.

Chochning ijtimoiy tarkibi ham ilk feodal jamiyatiga xos edi. U mulkdor tabaqa zodagon dehqonlar, mehnatkash tabaqa erkin jamoa a'zolari - ozodlar; mulkdor tabaqaga mute - kadivarlar hamda erksiz qul va cho'rillardan iborat edi. **Xorazm davlati.** Xorazm boshqa shahar - davlatlariga nisbatan mustaqil edi. Mamlakatda Afrig'iy shohlari sulolasi hukmronlik qilganlar. VI-VII asrlarda Xorazmda iqtisodiy inqiroz hukm surgan bo'lishiga qaramay, u Sharqiy Yevropa davlatlari bilan muntazam savdo aloqalari olib borgan. Xorazm madaniyati o'z qiyofasini saqlab qolgan va hech qanday tashqi ta'sirga uchramagan edi. Xorazmda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Xorazm hududlarida IV-VI asrga oid yodgorliklardan biri Kat shahri yaqinidagi qadimgi Fir qal'asi harobalari o'rganilgan. Bu qal'a-shahar ilk o'рта asrlarda Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan. Beruniy Fir qal'asi haqida shunday yozadi: "Qal'aning uchta devori paxsadan va xom g'ishtdan qurilgan. Bularning biri ikkinchisi ichiga joylashgan, har birining balandligi boshqasiga nisbatan oshib boradi, ammo shoh qasri hammasidan ham balanddir". Turk xoqonligi davrida Xorazm ma'lum darajada o'z mustaqilligini saqlab, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanish sohasida katta yutuqlarga erishgan. Afrig'iylar sulolasi 995-yilgacha hukm surgan.

Nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston hududida ilk o'рта asr davlatlari tashkil topishining tarixiy shart-sharoitlari.
2. Eftaliylar davri yer egaligi munosabatlarining ilk o'рта asr yer munosabatlariga ko'rsatgan ta'siri.
3. Eftaliylar davri davlat boshqaruvining o'ziga xos tomonlari haqida so'z yuritib.
4. G'arbiy turk xoqonligi boshqaruv tizimining davlatchilik xususiyatlari?

5. Ilk o'rtta asr mahalliy davlat birlashmalarining davlatchilik tarixida tutgan o'rni?

5. MAVZU: IX-XIII ASR BOSHLARIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI

Reja:

1. Tohiriylar davlati va uning o'zbek davlatchiligi tarixidagi o'rni
2. Somoniylar davlati – o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida yangi bosqich
3. Qoraxoniylar davlati davlatchiligi tarixi
4. Xorazmshohlar davlatchiligi tarixi

Tayanch so'z va iboralar. Somoniylar, Somonxudot, mahalliy zodagonlar, turk g'ulomlari, Karmatlar harakati, dargoh, devonlar, harbiy-ma'muriy amaldorlar, hanafiylik, diniy me'morchilik, Qoraxoniylar, chig'illar, yag'molar, o'g'izlar, Hasaniylar sulolasi, Tamg'achxon, Qoraxitoylar, elekxonlar, Xorazmshoh-anushteginiylar, Otsiz, Sulton Sanjar, Gurganj, Amiri-oxur (miroxo'r), Amiri-shikor, Tashtdor.

1. IX asr boshlaridagi va siyosiy jarayonlar Tohiriylar davlatining tashkil topishi

IX-XIII asrlarda O'zbekiston hududida turli boshqaruv usullari va ma'muriy tizimiga ega bo'lgan turli sulolalar boshqargan bir qancha davlatlar hukm surdi. Xalifalikka karshi kuchayib borayotgan qo'zg'olonlar xalifalarning mahalliy zodagonlarga bog'likligini kuchaytirib yubordi va viloyatlarni boshqarishda mahalliy zodagonlarning roli ortdi. Shu jarayonda Xurosonda Tohiriylar xonadoni hukmron mavqeni egallay boshladi. Siyiston (Seiston) hokimi Abdulmuhammad Talxa ibn Abdulloh qo'lida xizmat xonadon boshlig'i, Roziqning Mus'ab, Xusayn va Tohir ismli o'g'illari bo'lib, ular birgalikda Hirot viloyatidagi Bushanj shahrini boshqarganlar.

Xorun ar Rashid (786-809) vafotidan so'ng uning o'g'li Amin xalifa bo'ldi. Bu vaqtda Xurosonda noiblik qilayotgan Abdulloh (keyinchalik Ma'mun laqabi bilan mashhur bo'lgan) 806-yildan boshlab o'tgan vaqt mobaynida Xuroson va Movarounnahrning noibi sifatida bu

yerda hukmronlikni to'laliligicha o'z qo'lga olgandan so'ng boshqaruvda katta o'ringa ega bo'lgan mahalliy zodagonlarning ayrimlarini o'z atrofiga yig'ib, ular bilan juda yaqinlashib ketgan edi. Garchi uni mahalliy zodagonlar qo'llab-quvvatlasada, ammo xalifalikning markaziy qismidagi arablar Aminni xalifalik taxtiga ko'taradilar. Bundan norozi bo'lgan Ma'mun ukasi Aminga qarshi kurashish va o'zining qonuniy hokimiyatini o'rnatish uchun besh -yil tayyorgarlik ko'radi. Albatta bu ishlarni Ma'mun yakka o'zi amalga oshira olmas va mahalliy zodagonlarning ko'magiga muhtoj edi. Ma'munning siyosiy va harbiy jihatdan bunday murakkab vaziyatga tushib qolishi mahalliy zodagonlarning hokimiyatdagi mavqeni oshib borishi uchun zamin yaratdi. Ma'mun o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun Xurosondan Tohir ibn Xusayn va Movarounnahrndan e'tiborli va mavqei yuqori bo'lgan Somonxudot xonadoni vakillari bilan ittifoq tuzadi va ularning bevosita qo'llab-quvvatlashlari va harbiy yordamlari bilan taxtni ukasidan tortib oladi. Ma'mun xalifalik taxtini egallab, Bag'dodni qo'lga kiritgach, 813 -yilda Tohir ni al-Jazirada noib, Bag'dodda xalifalik qo'shinlari sipohsalori, Iroqda esa soliq majburiyatlarni yig'ish boshqaruvchisi, 821-yil esa Xuroson noibi etib tayinladi. Ayni vaqtda Ma'mun o'ziga taxtni egallashda yordam bergan Movarounnahr zodagonlaridan Somonxudotning nabiralari – Asad ibn Samonxudotning farzandlarini bir qator viloyatlarga noib etib tayinlaydi. Jumladan, Nuh ibn Asadni Samarqand, Ahmad ibn Asadni Farg'ona, Yahyo ibn Asadni Shosh va Ustrushonaga, Ilyos ibn Asadni esa Xirotda hokim etib tayinlaydi. Somoniylar xonadoni vakillari bevosita Tohiriylarga bo'ysungan holda Movarounnahr viloyatlarining -yillik daromadidan ma'lum miqdordagi mablag'ni hiroj sifatida xalifalik xazinasiga yuborish majburiyatini olganlar. IX asr arab geografi Xo'rdodbeh ma'lumotlariga qaraganda, har -yili xalifa xazinasiga Shoshdan 607 ming kumush dirham, So'g'ddan 326 ming kumush dirham, Farg'onadan 280 ming kumush dirham, Ustrushonadan esa 50 ming kumush dirham yuborilgan.

Tohir ibn Husayn vafotidan so'ng Xurosonni Talxa (822-828 yy) va Abdullohlar (828-844) boshqardilar. Mustaqillikka intilgan Tohiriylar

vakili Abdulloh 833 -yilda Ma'mun vafotidan so'ng o'zini xalifalikdan mustaqil deb e'lon qildi va Marv (keyinchalik Nishopur) davlat poytaxti bo'ldi. Bu vaqtda Tohiriylar davlati tarkibiga Tabariston, Jurjon, Ray, Kirmon, Xuroson, Seyiston, Movarounnahrning janubiy hududlari kirgan. Muhammad ibn Tohir (862-873 yy) hukmronligi davrida mamlakat hududlariga hujum qilgan o'g'uz qabilalaridan mudofaa maqsadida Farova (Qizilrvat yaqinida) va Dehiston (Mashhad) qal'a-qo'rg'onlari qurilib, davlat hududlarining xavfsizligi birmuncha kuchaytirildi. Ayni vaqtda Tohiriylar xalifalikning qo'llab-quvvatlashi ostida Movarounnahr viloyatlari ustidan ham hokimlikni to'laligicha o'z qo'llariga olgan edilar.

Mamlakat garchi xalifalikdan mustaqil siyosat yuritib, o'z ichki muammolarini o'zi bevosita hal etish imkoniga ega bo'lsada, mamlakatdagi oddiy soliq to'lovchi xalqning ahvoli soliqlarning ko'pligi va bir tomondan ko'chmanchi turkiy qabilalarning hujumlari ta'sirida birmuncha og'irlashgan edi. Shu boisdan mamlakatda xalq qo'zg'olonlari tez-tez ko'tarilib turardi. Ularda ayniqsa «g'oziyalar» faollik ko'rsatardilar. G'oziyalar ko'chmanchilar hujumini daf etib turish maqsadida ko'ngillilardan IX asrning 60-yillarida tashkil etilgan bo'lib, ular mamlakat siyosiy hayotidagi faolliklarini ham oshirib borar edilar. Tohiriylar o'z hokimiyatlarini mustahkamlash uchun qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikka e'tiborni kuchaytirdilar. Biroq, bu davrda aholidan olinadigan soliqlar ham ko'paytirildi.

IX asr o'rtalariga kelib mamlakat ichida yuzaga kelgan siyosiy keskinliklar va xalq qo'zg'olonlari natijasida aholining quyi tabaqasidan bo'lgan Safforiylarning mavqei kuchayib boradi. Mazkur xonadon vakillarining yetakchisi Ya'qub ibn Lays o'zining Amr, Tohir, Ali ismli ukalari bilan birgalikda 861-yilda Sijistonni, 867-yil Xirotda va Bushanjni, 869-yil Kirmon va Forsni qo'lga kiritdilar.

Tohiriylarning so'nggi vakili Muhammad ibn Tohir (862-873 yy) Ya'qub ibn Lays bilan bo'lgan jangda mag'lub bo'lgach, safforiylar Nishopurni egalladilar. 879 -yilda Ya'qub vafot etgach, hokimiyatni uning ukasi Amir ibn Lays egalladi (879-900 yy) va xalifaga o'zining vassalligini ma'lum qildi. Safforiylar hukmronligi davrida ham xalq

ommasining ahvoli yaxshilanmadi. Tuzilgan katta qo'shinni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash uchun soliqlar ko'paytirildi.

Xurosonda eng yuqori mavqega erishgan safforiylarga xalifa Mo'tazid (870- 892 yy) tomonidan Xuroson viloyatining hokimligi topshiriladi, ya'ni Ya'qub ibn Laysni Balx va Toxariston hokimi etib tayinlash to'g'risida yorliq jo'natdi. 873-yil Ya'qub Tohiriylar hukmdori Muhammad ibn Tohir qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib, Tohiriylar davlatiga barham berdi.

2. Somoniylar davlati – o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida yangi bosqich

Tohiriylar sulolasining inqirozga yuz tutishi natijasida IX asrda Movarounnahrda yangi — Somoniylar sulolasi paydo bo'ldi. Ma'munning xalifalik taxtini egallashida Movarounnahrlik Somon ibn Xudodning ham alohida xizmati bor edi. Shuning uchun ham xalifa Ma'mun o'ziga sodiq Somonxudod avlodlariga katta ishonch bildirib, ularga Movarounnahrning turli hududlarini mustaqil boshqarish huquqini topshirib qo'yadi. Ahmad 819-820-yillardan 864-865-yillargacha Farg'ona mulkida, No'h 812-820-yillardan 841-842-yillargacha Samarqandda, Yahyo 819-820-yillardan 841- 842-yillargacha Samarqandda, Yahyo 819-820-yillardan 855-856- -yillargacha Shosh va Ustrushonada hokimlik qiladilar. Dastlabki davrlarda somoniylar Tohiriylarga tobe bo'lib, ular orqali xalifalikka ma'lum miqdorda to'lovlar yuborib turganlar. Xalifalik xazinasiga Samarqand hududi 326 ming, Farg'ona – 280 ming, Shosh – 607 ming, Usturshon – 50 ming muhammadiy dirham miqdorida har -yili to'lovlar yuborgan. Somoniylar, tohiriylardan farqli o'laroq, dastlab o'z hududlarida kumush dirhamlar emas, balki mis tangalar zarb etganlar. Biroq asta-sekinlik bilan somoniy hukmdorlar o'z ta'sir doiralarini kengaytirib, o'lka mustaqilligini mustahkamlab borganlar. Ayniqsa, No'h ibn Asad vafotidan so'ng Nasr ibn Ahmad Somoniyning Samarqandga noib etib ko'tarilishi (855) hamda ko'p o'tmasdan Yahyo o'limidan keyin (856) Shosh va Ustrushon yerlarining ham uning tasarrufiga o'tishi Somoniylar davlati hududlarining birlashuvida muhim

ahamiyatga ega bo'ldi. 865-yilda otasi Ahmad ibn Asad(865-892) vafotidan so'ng amalda Nasr Movarounnahrning birdan-bir yagona hukmdori bo'lib qolgandi. Nasr ibn Ahmad o'z davlatining sharqiy hududlarini ko'chmanchi qabilalarning hujumlaridan muhofaza qilish, so'ngra kuchli jangovar armiya tashkil qilish. Buxoro yerlarini tohiriylardan qaytarib olishdan iborat asosiy maqsad, vazifalarni ham muvaffaqiyatli hal eta oldi. Nasr Turkiston shahri tomon yurish qilib, ko'chmanchi qabilalar ustidan muhim g'alabaga erishadi. 874-yilda esa tohiriylarga qarshi ko'tarilgan Buxoro xalqi qo'zg'olondan foydalanib, Buxoroni ham o'z davlatiga qo'shib oladi. Buxoroni idora etishni Nasr ukasi Ismoilga topshiradi. Shu tariqa Movarounnahrning amaldagi mustaqilligi Nasr va Ismoil Somoniylar tomonidan ta'minlanib boshqariladi. Nasr Ismoilni o'z noibi deb hisoblar edi. Ismoil ibn Ahmad Buxoroda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuboriladigan soliqni yubormay qo'ydi. Shundan so'ng, aka-uka o'rtasida nizo paydo bo'ladi: 886-yili Nasr va Ismoil qo'shinlari to'qnashdilar. Bu jangda Ismoil mag'lub bo'ldi va u vaqtincha Buxoro noibligidan tushirildi. Lekin ikki -yil o'tgach aka-uka qo'shinlari o'rtasida yana to'qnashuv bo'ldi. Bu jangda Ismoilning qo'li baland keldi. Nasr qo'shini tor-mor qilindi. Movarounnahr hukmronligi Ismoil qo'lga o'tdi. Lekin Ismoil Nasrdan taxtni tortib olmadi va Nasr o'z vafotigacha (892-yili) somoniylarning boshlig'i sifatida Samarqandda qoldi. Nasr vafotidan so'ng Ismoil davlat boshlig'i bo'ldi. Poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. O'zaro janjal va isyonlarni bartaraf etgach Ismoil 893-yili ko'chmanchilarga qarshi qo'shin tortdi va Tarozni egalladi. U bu yerda xonni va uning 10 ming qo'shinini asir olib, bu jangda katta harbiy o'ljani qo'lga kiritdi. Ismoil arab bosqinidan keyin birinchi bo'lib o'zaro janjallar, bosqinchilar tomonidan talangan o'lkani buyuk va qudratli davlatga aylantirish uchun o'zining bor kuch-g'ayratini ishga soldi. Qudratli va markazlashgan davlat tuzish uchun Ismoil birinchi navbatda mahalliy zodagonlar va savdogarlarning manfaatlarini ko'zlab ish tutdi. Davlatning iqtisodiy kuch-qudratini oshirish, qishloq xo'jaligini, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi uchun keng shart-sharoitlar yaratib berish lozim edi. Shu maqsadda

Ismoil yaxshi qurollangan, katta va saralangan qurolli kuchlarni tashkil qilishga kirishdi. U ayniqsa, turk g'ulomlaridan iborat qismlarni tuzishga katta e'tibor berdi. Natijada Somoniylar davlati tez orada musulmon sharqidagi markazlashgan kuchli davlatga aylandi. Somoniylar sulolasi hukmronlik qilgan -yillar quyidagicha: Nuh ibn Asad(819-842), Ahmad ibn Asad(842-864), Nasr I ibn Ahmad(864-897), Ismoil ibn Ahmad (897-907), Ahmad ibn Ismoil (907-914), Nasr II ibn Ahmad(914-943), Nuh I ibn Nasr(943-954), Abdumalik ibn Nuh (954-961), Mansur I ibn Nuh(961-976), Nuh II ibn Mansur (976-997), Mansur II Nuh(997-999). Somoniylar davlatida markaziy va viloyatlar boshqaruvi tizimi Ismoil Somoniy davrida uzil-kesil qaror topdi. Bu davlatda markaziy boshqaruv dargoh (saroy) va devon (mahkama) orqali amalga oshirilgan. Boshqaruvda amir (hukmdor)ning shaxsiy lashkari bo'lmish turk g'ulomlarining roli katta bo'lgan. Eng obro'li, iqtidorli g'ulomlar xiyolboshi (otliq askarlar boshlig'i), so'ng xojib lavozimini egallaganlar. Amirning hamma hukm, farmoyishlarini ijro etuvchi sohibi xaros yoki amir (xaros) oliy siyosiy hokimiyatni boshqargan. Davlat siyosati va mafkura islom diniga asoslangani uchun Somoniylar davlatida ham xalifalik boshqaruv tartiblarini takrorlovchi, ayni vaqtda esa mahalliy turkiy xalqlarning davlatchilikdagi tarixiy an'alarini o'zida mujassam qilgan davlat boshqaruv tizimi shakllantirildi. Somoniylar saroyida ham devonboshilar, mirzaboshilar, miroxo'rlar va boshqa mansablar mavjud bo'lgan. Markaziy boshqarma 10 ta devondan iborat bo'lgan. Devonlarning eng kattasi vazir devoni hisoblanib, boshqalari unga bo'ysungan. Somoniylar dalatidagi markaziy hokimiyat boshqaruvi ta'sirida xo'jalik hayoti ham o'sib asta-sekinlik bilan rivojlanib bordi. Mamlakat xo'jalik hayotida «iqto» mulklarining o'rni katta edi. Bu mulk egalari esa iqtodori deb yuritilgan. Iqtodori ko'pgina mulklarini davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun yer va suv shaklida olganlar. Iqto shaklida hatto viloyatlar, vohalar, shahar va tumanlar hadya qilingan. Somoniylar davrida xo'jalikning barcha sohalari, dehqonchilik va chorvachilik rivoj topdi. Sug'orish shaxobchalarining kengayishi, suv inshootlari (kanallar, ariqlar, to'g'onlar)ning ko'plab bunyod etilishi natijasida ziroatchilikning Muhim tarmoqlari – g'allachilik, sholikorlik,

polizchilik, bog'dorchilik tez o'sib bordi. Bu sohalar, ayniqsa, Zarafshon, Qashqadaryo, Shosh, Farg'ona vodiysi va Xorazm vohasida ko'proq rivojlandi. Murg'ob, Buxoro, Samarqand va Shosh atroflarida paxtachilik maydonlari kengaydi. IX-X asrlar xo'jalik hayotida hunarmandchilik ham alohida o'rin tutgan. Shaharlarda to'qimachilik, kulolchilik, degrezlik, chilangarlik, miskarlik, zargarlik, shishasozlik singari hunar turlari ancha rivojlandi. Bu esa shaharlar qiyofasining keskin o'zgarishiga, ularda oliy imoratlar masjid-u madrasalar, ko'rkam rastalar-u karvonsaroylarning qad rostlashiga olib kelgan. Buxoroda kumush tanga va dirham zarb qilingan. Narshaxiyning yozishicha, Buxoroda bayt-ut-tiroz, ya'ni to'qimachilik korxonasi bo'lgan. Buxorodan zandanicha nomli matoni Shom, Misr, Rumga olib ketganlar. Somoniylar davlati feodal yer egaligiga asoslanganligi tufayli undagi mulkiy bo'linish ham turli xil shakllarga ega bo'lgan. Bular quyidagilardir: 1) mulki sultoniy – sulton (amir)ga tegishli yerlar; 2) mulk yerlari – xususiy mulk yerlari; 3) vaqf yerlari (machit, madrasa va boshqa diniy muassasalar tasarrufiga berilgan yerlar); 4) jamoa yerlari. Olinadigan soliqqa qarab yerlar ikkiga bo'lingan: a) «Mulki xiroj» – xiroj yerlar, ya'ni soliq olinadigan yerlar; b) soliq to'lashdan qisman yoki butunlay ozod etilgan yerlar. Somoniylar davrida ko'pchilik dehqonlar turli xil soliq va to'lov turlaridan tashqari davlat tomonidan ko'plab majburiyatlarni o'tashga ham jalb etilgan. Suv inshootlarini tozalash, ta'mirlash, to'g'onlar, ko'priklar, yo'llar qurish shular jumlasidan edi. Bunday og'ir ishlarga jalb qilingan odamlar haftalab, o'n kunlab, ba'zan esa oylab o'z hisobidan ishlab berishga majbur edilar. Qishloqlarda esa yersiz dehqonlarning ko'pchiligini kadivorlar, ya'ni yollanib ishlovchi korandalar tashkil etardi. Korandalar IX-X asrlarda «sherik» yoki «barzikor», Xurosonda esa «akkor» deb atalgan.

3. Qoraxoniylar davlati davlatchiligi tarixi

X asr boshlariga kelib Movarounnahr va uning atrof viloyatlarida yashovchi turkiy xalqlardan o'n mingga yaqin kishi islom dinini qabul qildi va Forob - Shosh - Chimkent - Turkiston oralig'idagi hududlarda o'troqlasha boshladi. Qarluqlar bilan birga o'g'uz qabilalari ham

Movarounnahr hududlarida o'troqlashgan va islom dinini qabul qilgan xalqlardan biri edi. Bu ikki urug'ga mansub xalqlar keyingi davrlarda o'zbek xalqining shakllanishi va etnik jarayonlarida Muhim o'rin tutgan edi. Hozirgi Xorazm atroflarida o'troqlashgan o'g'uzlar Somoniylarning ruxsati bilan Movarounnahr hududlariga kirib kela boshlaydi. Buxoroning janubiy viloyatlarida chorvachilik bilan shug'ulangan bu qabila keyinchalik turkman-saljuqlar nomi bilan o'z davlatlariga ham asos solgan edilar.

Turkiy qarluqlar esa chigil (jikil) va yag'mo qabilalari bilan yonma-yon Yettisuv va Issiqko'l bo'ylaridagi hududlarida joylashgan edi. Qarluqlar Yettisuv hududlarida qisman chorvachilik va qisman dehqonchilik bilan shug'ullanishsada, qolgan ikki qabilaga nisbatan ularning taraqqiyot darajasi ancha yuqori bo'lib, iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiy etgan bir qator shaharlariga ega edi. X asrda qarluqlar Somoniylar bilan karvon savdosi orqali faol munosabat o'rnatgan edilar. Qarluqlarga nisbatan taraqqiyot darajasi birmuncha orqada bo'lgan jikil qabilalari Issiqko'l atroflarida yashab, asosan chorvachilik va - yilqichilik bilan shug'ullanganlar, ularning ijtimoiy hayotida ko'chmanchi-chorvachilikka xos an'analar ustunlik qilgan.

Issiqko'lning janub tomonida yashagan yag'mo qabilalari esa asosan chorvachilik va ovchilik bilan mashg'ul bo'lib, ularning qolgan ikki qabilaga nisbatan jangovarlik xususiyatlari juda yuqori edi.

X asrga kelib turkiy qabilalar orasidagi ijtimoiy va mulkiy munosabatlarning faollashuvi jarayonida yaylovlar va chorvadan mahrum bo'lgan aholi soni ko'paydi. Bu esa turkiy qabilalarda o'troq turmush tarziga o'tish, dehqonchilik va hunarmandchilik hamda savdo bilan nisbatan faolroq shug'ulanish uchun turki berdi. Movarounnahrning o'troq aholisi bilan uzoq vaqtdan buyon davom etib kelayotgan o'zaro aloqalar ta'sirida turkiy qabilalarda ham asta-sekin yerga egalik va mulkchilik shakllari qaror topa boshladi, jamiyatda yerga egalik munosabatlari shakllanib bordi.

Turkiy chorvador xalqlarning ijtimoiy va siyosiy hamda iqtisodiy hayotidagi bunday o'zgarishlarda Buyuk Ipak yo'lining Movarounnahrda Xitoyga o'tuvchi tarmoqlari joylashganligi va turkiy

xalqlar ham bu jarayonda bevosita ishtirok eta boshlaganliklari, ikkinchidan mazkur xalqlarning ijtimoiy hayotida o'troqlashuv jarayonlarining kuchayib borishi, yangi shahar va dehqonchilik hududlarining shakllanishi va eskilarining mavqei ortib borishi o'zining eng katta ta'sirini o'tkazgan.

Shuningdek, Somoniylar va ulargacha ham Movarounnahrning yuksak madaniyatga ega mahalliy xalqlari bilan savdo va iqtisodiy, qisman madaniy aloqalarning faollashib borishi ham turkiy xalqlarning hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarning sodir bo'lishida juda katta omil bo'lgan edi. Umuman Movarounnahrning Arab xalifaligidan ajralib chiqishi va Somoniylar davlatining ichki va tashqi sohada olib borgan siyosati ma'lum darajada turkiy qabilalarning jipslashuv jarayonlarini ham kuchaytirib yuborgan edi. Buning ayrim omillari sifatida quyidagilarni aytish mumkin, birinchidan, Movarounnahrda o'troq aholining ko'chmanchi chorvador xalqlar bilan faol iqtisodiy aloqaga kirishuvi, buning natijasida turkiy xalqlarning avvalo madaniy va iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar madaniyati (ilm-fanning ayrim namunalari, kundalik turmushda ishlatiladigan jihozlar, hunarmandchilik mahsulotlari va boshqa shu kabilalar) va davlatchiligi bilan ma'lum darajada tanishuvi bo'lsa, ikkinchidan turkiy xalqlarning ixtiyoriy va majburiy holda islom dinini qabul qilishi (Ismoil Somoniy 893-yilda Tarozni bosib olganda bu yerdagi ibodatxonani masjidga aylantirgan va aholini islom diniga o'tkazgan edi), bunda turkiy xalqlar an'anaviy qabilaviy dinlar o'rniga yagona va o'rta asrlar siyosiy va ijtimoiy sharoitidan kelib chiqqan holda barcha qabilalarni birlashtirish quvvatiga ega bo'lgan yagona mafkurani o'zlashtiradilar va ayni vaqtda islom dinining qabul qilinishi o'rta asrlarga xos islom madaniyatining qabul qilinishi va yirik davlatlar bilan aloqani kuchaytirishga xizmat qiladi. Turkiy xalqlar ichki hayotida yuz bergan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar hamda ayrim tashqi ta'sir natijasida X asrga kelib bu xalqlarda ham davlatchilikning rivojlangan darajasiga o'tish jarayonlari boshlandi.

4. Xorazmshohlar davlatchiligi tarixi

Xorazm Somoniylar davrida ularga tobe viloyat hisoblanardi. X asr oxiri -XI asrning boshlariga kelib Xorazm hukmdori Ma'mun I va uning o'g'li Ali ibn Ma'mun Somoniylar davlati qulaganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko'rdilar. Xususan, 996-yilda **Shimoliy Xorazm** hukmdori Ma'mun ibn Muhammad ikki qismga bo'linib ketgan davlatni birlashtirib xorazmshoh unvoni oladi va Urganchni o'z poytaxtiga aylantiradi. Ammo, Movarounnahrda Qoraxoniylar va Xurosondagi G'aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo'lib, ko'p hollarda Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Ma'sudga qaram edi. Xorazmning mustaqil davlat sifatida **shakllanishi va rivojlanishi Anushteginiy Xorazmshohlar sulolasi davriga to'g'ri keladi.**

Ushbu sulolaning asoschisi yoki birinchi vakili **Anushtegin kelib** chiqishi jihatidan o'g'uz turklaridan bo'lib, yoshligida Garjiston (Gurjiston) da yashagan va yollanma jangchi (mamluk) bo'lgan. Saljuq sultoni Malikshoh I davrida Anushtegin tashtdorlik mansabiga (sulton hovuzlari va hammomlari ashyolari xazinachisi) **ko'tarilgan edi.** Manbalarning ma'lumot berishicha, tashtdorlik mansabiga sulton o'zining ishonchli odamlarini tayinlar edi va ko'p o'tmay Anushtegin sultonning yaqinlaridan biriga aylanadi. Natijada 1076 -yilda Sulton Malikshoh Anushteginni Xorazm hokimi etib tayinlaydi. Anushtegin Saljuqiylarga tobe bo'lib hokimiyatni boshqaradi va 1097-yilda vafot etadi. O'sha -yili uning o'g'li Qutbiddin Muhammad (1097-1128) Xorazm voliysi qilib tayinlanadi.

Qutbiddin Muhammad otasi davrida o'z davrining yirik shaharlaridan biri bo'lgan Marvda ilm olgan, xususan, din ilmlarini yaxshi o'rgangan edi. U Xorazm voliysi bo'lgach qobiliyatli hukmdor sifatida ulamolarga va din arboblarga homiylik qiladi. **Qutbiddin Muhammad Xorazmda o'z mavqegini mustahkamlash uchun anchagina kuch-g'ayrat sarflagan bo'lsada,** rasman Saljuqiylarga tobe bo'lgani bois, Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qildi. U Saljuqiylarning oliy hokimiyat uchun o'zaro kurashlarida ham faol ishtirok etganligi ma'lum. Tarixiy manbalarda Xorazmshohning unvoni «Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abulfath Mu'in Amiral-mo'minin» («Dunyo va din qutbi, g'alabalar otasi Mo'minlar amiri-xalifaning yordamchisi») deb ulug'lanishi Qutbiddin Muhammad Saljuqiylarga tobe bo'lsa-da, mavqei ancha baland bo'lganligidan dalolat beradi.

Shu sababli bo'lsa kerakki, 1128-yilda Qutbiddin vafot etgach Sulton Sanjar Xorazm taxtini uning o'g'li Aloviddin Otsizga (to'liq

nomi Al -Malik Abu Muzaffar Aloviddin Jaloliddin Otsiz; 1128-1156 yy) topshiradi. O'z davrining mohir sarkardasi va yaxshigina diplomati bo'lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib borishga harakat qilib Saljuqiylarning har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Otsiz birinchi marta Sulton Sanjarning itoatidan chiqib mustaqil harakat qildi va Saljuqiylarga tegishli bo'lgan Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlarni Jandgacha (Kaspiy dengizi bo'ylarigacha) bosib olib, Mang'ishloq viloyatini ham o'ziga bo'ysundirdi. Bundan g'azablangan Sulton Sanjar Otsizga qarshi yurish qilishga qaror qildi. Chunki o'sha davr siyosatini yaxshi tushungan Sanjar, agar Otsizni buysundirmasa o'ziga tobe bo'lgan Qoraxoniylar va G'aznaviylar ham isyon ko'tarishini bilardi. Shuningdek u, o'zining harbiy qudrati g'oyat kuchli ekanligini ham bilardi. Bularni hisobga olib Sulton Sanjar 1138-yilning oktyabrda Otsizga qarshi Xorazmga qo'shin tortdi va Xazorasp qal'asini qamal qildi. Sulton Sanjar Xorazmga jiyani Sulaymonshohni voliy qilib tayinladi. Ammo, ko'p o'tmay, 1139-yil fevralda Sulton Sanjar Marvga qaytgach, Otsiz o'z qo'shinlari bilan Xorazmga kelib Sulaymonshohni haydab yuborib qayta taxtni egalladi. 1156-yilda Otsiz qo'shol kasaliga uchrab vafot etadi va taxtga uning o'g'li Elarslon (1156-1172 yy) taxtga o'tiradi. Elarslon otasiga qaraganda ancha qulay vaziyatda taxtni boshqardi. Chunki 1157-yilda Sulton Sanjar vafot etganidan so'ng Saljuqiylar davlati mayda viloyatlarga bo'linib ketdi va Xorazmni mustaqil siyosat olib borishi uchun keng yo'l ochildi. Elarslon Xurosondagi Saljuqiylarning o'zaro kurashlaridan foydalanib Kaspiy bo'ylaridagi Dehistonni bosib oldi. Shuningdek u, otasi davrida Xorazmga bo'ysundirilgan ko'chmanchi turkman va qipchoq qabilalari yordamida Movarounnahrning ichki ishlariga ham tez-tez aralasha boshlaydi. 1158-yilda u katta qo'shin bilan Movarounnahrda qabul qildi. Bu vaqtda qoraxitoylarga vassal bo'lgan qoraxoniylar ko'chmanchi qarluq qabilalari bilan jang olib borayotgan edi. Elarslon qarluqlarga Buxoro va Samarqand uchun olib borilgan janglarida yordam beradi. Lekin qoraxitoylar qo'shinlari yordamga etib kelishi bilan Elarslon Xorazmga qaytishga majbur bo'ldi. U bir necha marotaba Xorazmga yurish qilgan bo'lsada, muvaffaqiyatga erisha olmadi. 1171-1172-yillarda qoraxitoylarning katta qo'shini Xorazmshohning o'lpinni o'z vaqtida to'lamayotganligini bahona qilib Xorazm ustiga yurish qiladi. Elarslonning buyrug'i bilan Sirdaryodagi katta to'g'onlar ochtirilib, Xorazm poytaxti yaqinidagi yo'llar suvga bostirildi. Bu qoraxoniylar qo'shini yurishini qiyinlashtirdi va

Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch) talon-taroj qilishdan saqlab qolindi. Ammo, qoraxitoylarning bu yurishi davrida Elarslon kasallikdan vafot etdi (1172-y). Shundan so'ng, uning o'g'illari Aloviddin Takash va Sultonshoh Mahmud o'rtasida uzoq -yillar toj-taxt uchun kurash bordi. Aloviddin Takash 1172-yilning dekabrda qoraxitoylar malikasi Chen Tiyon yordamida rasman taxtga o'tirgan bo'lsa-da, aka-ukalar o'rtasida kurash davom etdi. Chunonchi, 1174-yilda Sultonshoh Mahmudning onasi Turkon xotun Nishopur hukmdori Oy-Aboga qimmatli sovg'alar yuborib, Takashga qarshi ittifoq taklif qildi. O'sha -yili Gurganjdan 20 farsah uzoqlikdagi Subvurni shahri ostonasida Oy-Abo qo'shinlari Alovuddin Takash qo'shinlari bilan to'qnashdi. Bu jangda Takashning qo'li baland kelib, Oy-Abo asir olindi va qatl etildi. Turkon xotun va Sultonshoh Kaspiy dengizining sharqiy sohilidagi Dehistonga qochdilar. Xorazmshoh Takash 1193-yilning dekabrda Marv shahrini fath etib, shahar va uning atroflariga katta o'g'li Nosiriddin Malikshohni voliy etib tayinladi. Bag'dod xalifasi Nasr (1180-1225 yy) va G'arbiy Saljuqiylar sultoni Tog'rul II o'rtasidagi nizolardan foydalanib, Takash qo'shinlari 1194-yilning mart oyida Tog'rul II ga qarshi urush ochdi va uni mag'lub etib Hamadon shahrini egalladi. Xorazmshohning tobora kuchayib borayotganligidan xavfsiragan xalifa Nasr qo'shinlari Takashga qarshi chiqdilar. 1196-yilning iyun oyida Takash qo'shinlari xalifa qo'shinlarini engdi. Shu tariqa Afg'oniston va Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo'liga o'tdi va Xorazm davlati hududlari birdaniga ikki baravar kengaydi. Xorazm davlati endi Bag'dod xalifasiga tegishli joylar va G'uriylar bilan chegaradosh bo'lib qoldi. Ammo, ko'p o'tmasdan xalifa Nasr bilan Takash munosabatlari yana yomonlashganligi tufayli Xorazmshoh Iroqi Arab va xalifalik poytaxti Bag'dodni bosib olishga qaror qildi. Lekin bu yurish paytida Takash kasallanib, 1200-yil iyul oyida Xorazm bilan Nishopur orasidagi Shahrison shahrida vafot etdi. 1200-yilning avgust oyida Xorazmshohlar taxtiga Takashning o'g'li Qutbiddin Muhammad o'tirdi (1200-1221 yy) va otasining Aloviddin laqabini qabul qildi. U taxtga o'tirishi bilanoq ayrim muammolarga duch kelgan bo'sa-da, ularni zudlik bilan bartaraf etib, 1203-yilda qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni bosib oldi. Undan keyin esa Hirot va uning atroflarini egalladi. Aloviddin Muhammad 1207 -yilda Movarounnahrda yurish qilib, Buxorodagi Sanjar qo'zg'olonini bostirdi va Buxoroni egalladi. Xorazmshoh 1210-yilda qarluqlar bilan ittifoq tuzib qoraxitoylar ustiga yurish qildi. Bu yurish Xorazmshohning g'alabasi bilan tugadi va u

qoraxitoylarning O'zgardagi boy xazinasini qo'lga kiritdi. Umuman, Aloviddin Muhammad 1210 va 1212-yillarda qoraxitoylarga ikki marta qaqshatqich zarba berib ularni butunlay tor-mor etdi. Buning natijasida uning obro'yi oshib ketib ikkinchi Iskandar, ikkinchi Sulton Sanjar laqablarini olishga musharraf bo'ldi. Aloviddin Muhammadning say-harakatlari tufayli 1217-yilga kelib butun Movarounnahr, Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar hukmronligi o'rnatildi. Ammo, mamlakatning ichki siyosiy holati mustahkam emas edi. Bu holat mug'ul bosqini paytida yaqqol nomoyon bo'ldi.

Davlat boshqaruvi va siyosiy tizim. Harbiy boshqaruv. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruv idorasi «al-majlis ul oliy al faxri at-toji» deb nomlangan bo'lib, uni vazir boshqargan. Vazir – mamlakatda sultondan keyingi eng yuqori mansabdor shaxs bo'lgan. Vazir sultonning bosh maslahatchisi bo'lib, bevosita unga bo'ysungan. Vazir rasmiy marosimlarda, davlatlararo aloqalarda, mustamlakalar bilan olib boriladigan muzokaralarda xorazmshoh nomidan ishtirok etib, sulton va rayiat (fuqarolar) o'rtasida vositachilik qilgan. Barcha davlat amaldorlari, jumladan, amirlar, beklar va harbiy boshliqlar vazirga bo'ysungan. Vazirning vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- ashob ad-davanin yoki devonxonalar amaldorlarining boshlig'i. Yuqori mansabli amaldorlarini ishga tayinlagan yoki ishdan bo'shatgan;
- davlat amaldorlariga nafaqalar (arzak) va moddiy yordam (mavajib) joriy etish ishlarini boshqargan;
- davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy ozuqa va ashyolar bilan ta'minlanishini belgilagan;
- bojxona va xazina faoliyatini nazorat qilgan;
- sultonga muntazam ravishda hamrohlik qilgan, ba'zi paytlarda qo'shin jo'natib ularga boshchilik qilgan.

Xorazmshohlar davlatida vazirlik lavozimi katta hurmatga ega bo'lib, o'rta asr manbalarining birida vazir haqida shunday ma'lumot beriladi (Z. Bunyodov bo'yicha): «eng yuksak mahkama – vazorat (vazirlik) bo'lib, barcha jamoat ishlari hamda odamlar hayotining to'g'ri yo'ldan borishi u bilan aloqadordir, buning natijasida mamlakatning chiroyi va martabasi ortadi, davlatda tartib va qonunchilik o'rnatiladi. Vazir – idora qilish qonunlarini biladigan, davlat kelajagini biladigan, hayotiy tajribaga boy, yaxshi ishlarga undovchi, shon-shuhrat va yutuqlarga etaklovchi, fuqarolar ahvolidan ro'yi-rost xabardor qilib

turadigan, ko'rsatmalariga to'la ravishda ishonish mumkin bo'lgan kishi bo'lishi lozim...»

Vazirlarga sadr, dastur, xojayi bo'zruk kabi unvonlar berilgan. Vazir lavozimidagi shaxs o'zining siyohdoni (dovot) va ma'lum xil movutdan o'ralgan sallasi (dastor) bilan ajralib turgan. Ular asosan arab-fors mansabdorlari muhitiga mansub kishilar bo'lib, arab hamda fors tili, ma'muriy ishdagi layoqati, saroy tartib-qoidalarini bilishi shart bo'gan. Xorazmshohlar davlatining vazirlari asosan Xorazm, Buxoro, Nishopur, Isfaxon, Balx, Hirotdan chiqqan arboblar bo'lgan. Xorazm davlatiga qarashli viloyatlarning ma'muriy boshqaruvida ham vazirlar bo'lgan. Ba'zan shaharlarga ham vazirlar tayinlangan bo'lib, ular o'sha madaniy va iqtisodiy markazning yagona hokimi ham edilar. Xorazmshohlar davlatida vazir lavozimi dastlab Sulton Otsiz hukumatida paydo bo'lgan. O'rta asrlar yozma manbalarida Xorazmshohlar davlat boshqaruvidagi ko'pgina mansab va lavozimlar haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ularning asosiylari quyidagilardir:

Bosh hojib yoki ulug' hojib (hojibul-kabir) – oliy hukmdor shaxsi bilan bog'liq masalalar, marosimlar, marosimlarning nazorati bilan aloqador ishlarga javobgar bo'lgan. Ular sultonning eng zarur topshiriqlarini bajarganlar hamda hukmdorga doimiy ravishda hamrohlik qilganlar. Ular vazirlik devonining daftarlari, undagi yozuvlar, arxivlar, moliya sohasidagi kotiblar va amaldorlarning xatti-harakatini nazorat qilgan.

Ustozdor – xorazmshohlar saroyida xizmatkorlarga bosh bo'lib, otxonalar, oshxonalar, novvoyxonalar, sharobxonalar xo'jaligini boshqarar edi. Oliy hukmdorning birinchi chorlashidayoq ustozdor etib kelib, sulton topshiriqlarini boshqa xizmatkorlarga etkazar edi. Ustozdor saroyning barcha chiqimlarini amalga oshirgan. Saroy mansablarining barcha xarajatlari ham uning zimmasida bo'lgan. Ustozdor xazinadan chiqadigan barcha sarf-xarajatlar uchun doimiy ravishda sultonga hisobot berib turgan.

Amiri-oxur (miroxo'r) – sayischi, sulton otxonalari boshlig'ining lavozimi. U sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan. Miroxo'rlar harbiy yurishlarda ham faol ishtirok etganlar.

Amiri-shikor – sulton ovlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchisi lavozimi.

Tashtdor – sulton hammomlari va hovuzlarining boshlig'i. Uning qo'l ostida bir necha g'ulom bo'lgan. Tashtdorlar sultonga juda yaqin

odamlar bo'lgan. Ayrim sultonlar tashtdorlarga malik unvonini ham berishgan. Ayrim tashtdorlar hatto o'n ming askarlarga boshchilik qilib, harbiy yurishlarga ishtirok etganlar, ba'zilar esa sultonning shaxsiy elchisi vazifasini ham bajargan.

Sharobdor – sulton sharobxonasining boshlig'i. Sharobxonada turli sharoblar tayyorlash bilan birga shirin ichimliklar tayyorlash uchun shakar ham saqlangan. Sharobdorlar amirlar orasidan tayinlanib, uning qo'l ostida bir nechta g'ulomlar bo'lgan.

Qissador – bir hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig'ib payshanbadan jumaga o'tar kechasi sultonga topshirgan. Juma kuni esa sultonning javobini ariza egalariга etkazgan. Xorazmshohlar saroyida qissador eng obro'li mansablardan biri hisoblangan.

Choshnigir (bakovul) – u dasturxon yozilganda sulton taomlaridan zaharlanmasligi uchun o'zi birinchi bo'lib tatib ko'rar edi.

Davotdor – sultonning xos kotibi, farmonlarini yozuvchi.

Farrosh – sulton o'rin-to'shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig'i. Uning ixtiyorida gilamlar, chodirlar, poyondoqlar, ko'rpa-to'shaklar bo'lgan. Farrosh va maxsus o'rgatilgan g'ulomlar sulton atrofida doimo hozir turar edilar. Amir ul-a'lam (a'lamdor yoki yalovbardor) – sulton bayroqdori yoki sulton tug'ining sohibi.

Xorazmshohlarning davlat tizimi Saljuqiylardan deyarli farq qilmagan. Ilgari bo'lgani kabi davlat boshqaruvi dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan. Dargohda hojib, ulug' hojib Xorazmshohlar davrida ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Hojiblarga maxsus muzokaralar olib borish, xatto vazirlar faoliyatini tekshirish kabi muhim vazifalar topshirilgan. Hojiblarning viloyat hukmdori bo'lganliklari ham manbalardan ma'lum.

Xorazmshohlar davlati o'zining paydo bo'lgan davridan boshlab to inqiroziga qadar doimiy qo'shinlariga ega bo'lgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, Xorazmshohlar o'z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta'lim tizimini joriy qilganlar. Davlatdagi qo'shinlar soni hukmdorlar harbiy yurishlarining ko'lamiga qarab o'zgarib turgan. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, 1218-yilda Muhammad xorazmshoh yalpi qo'shinlar ko'rigi o'tkazib, unda «150 mingga yaqin otliq, 100 ming piyoda askar qatnashdi».

Xorazmshohlar davlatining eng oliy harbiy boshqaruv idorasi devon-al arz (yoki devon-al jaysh) deb nomlangan bo'lib, uning boshlig'i sohib devon-al arz (yoki sohibi devon-al jaysh, yoki ariz-al

jaysh) hisoblanar edi. Devon-al arz harbiylarga tegishli bo'lgan yer-suvlar, ularga beriladigan maosh va har xil to'lovlar, shuningdek, askarlarni ro'yxatga olish, ular va ular qo'lidagi qurol-aslahalarni tekshirib kurish ishlari bilan shug'ullanardi. Bu devon hamma harbiylarga belgilangan maoshlarini (mavajib, arzak) hamisha ma'lum vaqtda berib turar va harbiy boshliqlarning maoshini o'z qo'l ostidagilariga to'g'ri taqsimlanishini nazorat qilar edi.

Xorazmshohlar qo'shinlarining qo'mondoniga oid yoki muqaddam degan unvon tavsiya etilardi. Xorazmshohlar yangi zabt etilgan o'lka yoki viloyat yerlarini amirlarga iqto tariqasida taqsimlab berar, mahalliy amirlar orasidan eng qobiliyatlisini ularga boshliq qilib tayinlab unga amir-al umaro (amirlar amiri)

nomini berardi. Qo'shindagi 10 ming kishilik suvoriylar guruhiga qo'mondonlik qilgan kishilar malik unvoniga ega bo'lar edi. Janglarda alohida mardlik ko'rsatgan maliklarga esa xon unvoni berilgan. Qo'shindagi choparlar chovush, ularning boshliqlari esa muqaddam chovushiya deb yuritilgan. Maxsus xufiya va

ayg'oqchilar bo'linmalari josusiya deb atalgan. Urush boshlanishidan avval yoki urush e'lon qilingan vaqtda Xorazmshohlar harbiy kengash chaqirishar va unda oldinda turgan urush bilan bog'liq masalalar muhokama qilinardi. Ushbu kengashga Xorazmshohning o'zi boshchilik qilib, unga yirik harbiy arboblari, ulamolar, qonunshunoslar va munajjimlar taklif qilinar edi. Kengashda barcha takliflar ko'rib chiqilib, so'nggi qarorni shohning o'zi qabul qilardi. Xullas, XIII asrning birinchi choragida Xorazmshoh Muhammadning harbiy va siyosiy uquvsizligi tufayli Xorazmshohlar davlati inqirozga uchradi. Shunga qaramasdan, o'zbek xalqi o'rta asrlar davri davlatchiligi tarixida Xorazmshohlar davlati muhim o'rin tutadi. O'z davrida Xorazm davlati Movarounnahr, Xuroson, Mozandaron, Kirmon, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Sijiston, G'azna va boshqa davlatlar hamma viloyatlarni o'z tarkibiga olgan edi. Xorazm saltanati XII asrning oxiri – XIII asrning boshlarida musulmon Sharqining eng yirik va qudratli davlati edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. IX-XIII asrlarda o'zbek davlatchiligi tizimlarining mustahkamlanishi
2. Somoniylar davri davlat boshqaruvi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

3. Qoraxoniylar davrida harbiy boshqaruv tartibi qanday amalga oshirilgan.
4. Xorazmshohlar davrida davlat boshqaruvining amalga oshirilishi
5. Xorazmshohlar davlatida qo'shin tuzulishi.
6. Somoniylar va Qoraxoniylar davlat boshqaruvidagi o'xshashlik va farqlar nimalardan iborat?

6. Mavzu: Mo'g'ullar istibdodi davrida davlatchilik jarayonlari

Reja:

1. Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronligining o'rnatilishi va bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi
2. Chig'atoy ulusida harbiy-siyosiy tizim va davlat boshqaruvi
3. Chig'atoy ulusida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar

Mo'g'ul qabilalari va urug'lar shu mintaqada yonma-yon yashab turgan boshqa qabilalarga nisbatan iqtisodiy va siyosiy hamda madaniy jihatdan ancha qoloq bo'lib, qabilalararo o'zaro birlikning yo'qligi ularning ijtimoiy hayotini yanada yaxshilanishiga katta to'siq bo'lib turardi. Shunga qaramay bu qabilalarning jangovarligi juda yuqori darajada bo'lib, bir tomondan Xitoy bilan, ikkinchi tomondan o'zaro kurashlar ularning kuchli jangchilar bo'lib yetishishlari uchun katta ta'sir qilgan edi. XIII asr boshlariga kelib Mo'g'uliston, Sharqiy Turkiston, janubiy Sibir hududlari, Yettisuv va atrof hududlarda yashab, asosan ko'chmanchi chorvadorlik bilan mashg'ul bo'lgan ko'plab turkiy, mo'g'ul va boshqa qabilalar o'rtasida o'zaro siyosiy harbiy to'qnashuvlar kuchayib ketdi. Bu jarayonlarda asosiy yetakchi kuch mo'g'ul qabilalari bo'lib, Temuchin (1155-1227-yillar) boshliq mo'g'ullar jaloyir, o'yrat, kerait, nayman, qoraxitoy, qirg'iz, uyg'ur, qorlik kabi urug'larni kuch bilan birlashtirib, mo'g'ul qabilalarining dastlabki siyosiy ittifoqi va davlatiga asos soldilar. O'rta asrlar davrining eng jangovar davlatlaridan biri bo'lgan Mo'g'ullar davlatining tashkil topishi va keyinchalik qudratli imperiyaga aylanishi mo'g'ul hukmdori Temuchin nomi bilan bog'liq bo'lgan.

1205-yildayoq Qoraqurumda mo'g'ullar bilan yonma-yon yashab kelgan va ularning hukmronligi ostida bo'lgan jaloyir, o'yrat, kerait, nayman, qoraxitoy, qirg'iz, uyg'ur, qorlik kabi turkiy qabilalar ham ishtirok etgan qurultoy bo'ldi va unda Temuchin Chingizxon nomi bilan mo'g'ul xoni etib saylandi.

Hokimiyat tepasiga kelgan Chingizxon eng avvalo o'ziga tobe bo'lgan mo'g'ul va turkiy qabilalardan ko'p sonli va kuchli intizomga ega bo'lgan qudratli qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ladi. Qo'shinning soni 200 mingdan ortiq otlilik va piyoda qo'shinlardan iborat bo'lgan.

Har bir jangchi harbiy yurish vaqtida o'ziga zarur bo'ladigan qurol-yarog', jumladan, o'q-yoy, sadoq, nayza, qilich va boshqa harbiy aslahalarni, shuningdek, har qanday holatlar uchun zarur bo'ladigan arqon, qozon, mesh, igna, bolta, va oziq-ovqatlarini avvaldan tayyor holga keltirgan va yurish vaqtida ko'rsatilgan buyumlar har bir askarda bo'lishi shart bo'lgan. Bu talablarni bajarmagan askarlar qattiq jazolangan.

Mo'g'ullar qo'shini o'ntalik, yuztalik, ming va o'n ming kishilik harbiy bo'linmalardan tarkib topgan bo'lib, har bir bo'linma tegishli ravishda o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va tumanboshi (o'n ming kishilik qo'shin qo'mondoni) lar tomonidan boshqarilgan. Tumanlarni (o'n ming kishilik bo'linmalarni) odatda Chingizxonning aka-ukalari, amakilari va o'g'illari boshqargan.

Chingizxon hali hayotlik vaqtidayoq bosib olingan hududlarni to'rt o'g'liga boshqarish uchun taqsimlab bergan edi. Irtish daryosining narigi tomonidan to "mo'g'ullar otining tuyog'i yetgan joy" gacha bo'lgan yerlar, Sirdaryoning quyi oqimi (Sig'noq, Barchinlig'kent, Janikent, Ashnas shaharlari) va Xorazmning shimoliy-g'arbiy hududlari to'ng'ich o'g'li Jo'chiga berildi. Jo'chining yaylovlari Irtishda, qishlash joyi Sirdaryoning quyi oqimlarida edi.

Qoshg'ar, Yettisuv, Movarounnaxr ikkinchi o'g'il Chig'atoyga berildi. Chig'atoyning qo'shi Ili daryosi bo'yida edi.

Uchinchi o'g'il O'g'adayxonga G'arbiy Mo'g'uliston va Tarbag'atoy o'lkasi ajratildi. Uning qo'shi Chuguchakda edi.

Chingizxonning kenja o'g'li Tuluyga esa otasidan Xalxa Mo'g'uliston, ya'ni Shimoliy Mo'g'uliston meros qoldi. Uning qo'shi Kerulen daryosi bo'yida edi.

Jo'chining o'g'li Botuxon (1227-1255-yillar), O'g'adoy (1227-1241 -yillar) va Tuluyning o'g'li Munqa (1251-1260-yillar) zamonida mo'g'ullar saltanatining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'zgarishlar bo'ladi va Oltin O'rdaga asos solindi.

Chig'atoy (1227-1241-yillar) o'z yerlariga inju tarzida egalik qilgan. Olg'uygacha (1261-1266) bu yerlarda Mo'g'ul qooni hokimiyati joriy etilgan. Qoon nomidan Chig'atoy ulusini Maxmud Yalavoch

boshqargan. Mahmud Yalavochning hokimiyat tepasiga kelishining o'ziga xos sabablari bor edi.

XIII asr boshlaridayoq Chig'atoy tasarrufiga berilgan Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda Chig'atoy ulusi tashkil topadi. XVI asrning 40-yillariga qadar hukm surgan Chig'atoy ulusining markazi Yettisuvda edi.

Mo'g'ullar turli madaniyatga va rivojlanish darajasiga ega mamlakatlarni bosib olib, o'z hokimiyatlarini o'rnatgan bo'lsalarda, madaniy hududlarni boshqarish ishlaridan ancha yiroq edilar, bunday tajribaning yo'qligi esa ularni mahalliy hokimlar yoki boshqaruvda tajribaga ega kishilar yordamiga muhtoj qilgan va o'zlari esa, asosan, bosib olingan o'lkalarda o'lponlarni yig'ib olish va iqtisodiy hukmronlik bilan cheklanganlar.

Huddi shunday boshqaruv usuli Chig'atoy tomonidan Movarounnahrda nisbatan ham amalda joriy etildi. Bir necha -yillar davomida Chingizxoniga, uning vafotidan so'ng esa O'qtoy xizmatiga o'tgan xorazmlik savdogar Mahmud Yalavoch Movarounnahr viloyatlariga noib etib tayinlandi va u Movarounnahrni ijarador sifatida idora eta boshladi.

XIII asr o'rtalarida Chig'atoy ulusining mo'g'ul zodagonlari doirasida o'troq hayotga o'tish, shahar madaniy hayotiga yaqinlashish, mahalliy o'troq aholining boy madaniyatidan foydalanish jarayoni kuchayadi. Ijtimoiy hayotdagi bunday o'zgarishlar o'troq vohalardan uzoqda yashayotgan mo'g'ullar va o'troq hayotga yaqinlashgan mo'g'ullar o'rtasida o'zaro qarama-qarshiliklar va ijtimoiy-madaniy munosabatlarda bo'linishga olib keladi. Shu sababli bu davrda o'troq dehqonchilik viloyatlari va ularning ziroatkor va hunarmand aholisiga nisbatan mo'g'ul hukmron doiralari o'rtasida ikki xil munosabat yuzaga keladi.

Ko'chmanchi harbiy zodagonlarning katta qismi, xon xonadoni vakillari va ayrim qonlar o'troq hayotga mutlaqo qarshi bo'lib, ko'chmanchilik va chorvadorlik an'analari birinchi o'ringa qo'yar edilar.

Mahalliy zodagonlar, ruhoniy va savdogarlarning asosiy qismi va ayrim mo'g'ul xonlari (Kepakxon, Duvaxon, Tarmashirin, qisman Guyukxon, Munqaxon, Olg'uyxon) hamda harbiy ma'murlarning kichik bir qismi o'troq hayot tarafdori bo'lib, ular mamlakatdagi siyosiy boshboshdoqlik va tarqoqlikka qarshi kurash olib borib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intildilar. O'troq hayot va undagi

dehqonchilik, hunarmandchilik hamda savdo-sotiq ishlari davlat xazinasining asosiy daromad manbai ekanligini anglagan mo'g'ul hukmdorlari xo'jalikning bu tarmoqlarini rivojlantirish siyosatini ham yuritganlar. Buning uchun eng avvalo o'troq aholini talash va ekin dalalarining payhon etilishiga yo'l qo'ymaslik, mehnatkash aholidan davlat xazinasiga uchun yig'ib olinadigan soliqlar va yig'implarni tartibga solish, majburiy hashar ishlarini qat'iy tartibini belgilash, mahalliy hokimlarning soliq ishlaridagi shaxsiy o'zboshimchaliklariga yo'l qo'ymaslik va aholidan olinadigan soliq'larga qo'shimcha soliqlar joriy etilishini kamaytirish, madaniy va iqtisodiy markazlar hisoblangan shaharlardagi jamiyat hayotini faollashtirish va ichki bozorlarni kengaytirib savdoni yo'lga qo'yish, Buyuk Ipak yo'lidagi avvalgi mavqei qayta tiklash, karvonsaroylar barpo etish va xalqaro savdoni yo'lga qo'yish davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng asosiy siyosat bo'lishi lozim edi.

Bunday siyosat tarafdorlaridan biri Mo'g'ulistonning ulug' qooni Munqa va ikkinchisi Chig'atoy ulusining noibi Ma'sudbek edi. Xatto Munqa soliq va hashar ishlarini tartibga solish to'g'risida maxsus farmon chiqardi va mazkur yorliqda qayd qilinishicha, **Munqa hajmi** belgilanmagan eng og'ir soliq va o'lponlarni, xususan **Chingizxon** vafotidan so'ng berilgan payza va yorliqlarni bekor qiladi. Yomlar (aloqa bekatlari) bo'ylab aloqa xizmati uchun ajratiladigan otlar sonini belgilab, aholidan ortiqcha ot talab qilmaslik, fuqarolarning shaxsiy mulki hisoblangan otlardan foydalanishni ta'qiqlash va aloqa xizmati uchun ajratilgan otlardan boshqa maqsadlarda foydalanishni ta'qiqlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Chig'atoy ulusidagi siyosiy tizim?
2. Chig'atoy ulusidagi boshqaruv tartibi?
3. Chig'atoy ulusidagi iqtisodiy munosabatlarning ahvoli?
4. Chig'atoy ulusidagi yer egaligi?
5. Chig'atoy ulusidagi soliqlar?

7. MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARAQQIYOTI

Reja

1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi
2. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatga asos solinishi
3. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson
4. Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruvi

5. Amir Temur va temuriylar davrida iqtisodiy munosabatlar

Tayanch soʻz va iboralar. Siyosiy tarix, siyosiy tarqoqchilik, Hoji Barlos, Kesh viloyati, Tugʻluq Temur, Amir Husayn, "Loy jangi", Sarbadorlar, Mavlonzoda, Konigil voqeasi, davlat boshqaruvi, qurultoy, qonuniy hukmdor, soʻfiylar, harbiy yurishlar, Anqara jangi, siyosiy boshqaruv tajribalari, maʼmuriy idora usuli, boshqaruv tizimlari, yagona siyosiy tartib, Pirmuhammad, Halil Sulton, Jahongir Mirzo, Ulugʻbek, Shohrux Mirzo.

1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi

Oʻzbekiston davlatchiligi tarixining oʻrta asrlar davridagi yangi bosqichi buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur ibn Taragʻay Bahodir nomi bilan bogʻliqdir. Maʼlumki, XIV asrning 40-yillariga kelib Chigʻatoy davlati parchalanib, davlatning sharqiy qismi - Sharqiy Turkiston va Yettisuvni oʻz ichiga olgan Mugʻuliston davlati tashkil topadi. Chigʻatoy ulusida nisbatan barqarorlikni saqlay olgan Qozonxon (1336-1347yy.) oʻlimidan keyin davlat hududlari parchalanish, iqtisodiy vayronalik sari yuz tutib, Amir Qozogʻon (1347-1357yy.) davrida bu jarayon yanada avj oladi. 1348-yilda Chigʻatoy avlodlaridan boʻlgan Tugʻluq Temur Mugʻuliston taxtiga oʻtiradi. U Chigʻatoy ulusidagi siyosiy parokandalikka barham berish va Movarounnahrni bosib olish maqsadida bu hududlarga bir necha bor talonchilik urushlari olib boradi. Xususan Tugʻluq Temur 1360 -yilda Kesh viloyatini bosib oladi. Bu viloyatning hokimi boʻlgan Temurning amakisi Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Manbalarning maʼlumot berishicha, Amir Temur Amudaryo boʻyida amakisini kuzatar ekan amakisiga shunday murojaat qiladi: "Agar ikkovimiz ham vatanni tark etsak, merosiy yurtimiz shubhasiz begonalar qoʻliga oʻtib ketadi. Lozim topsangiz men podshoh (Tugʻluq Temurxon) xizmatiga borsam."

1363-yilda Mugʻuliston hokimi Tugʻluq Temur vafot etgach Ilyosxoʻja Movarounnahrдан haydaladi. Ammo, koʻp oʻtmasdan Movarounnahr ustiga yangidan yurishga tayyorgarlik koʻra boshlaydi va 1365-yilda katta qoʻshin bilan Sirdaryo tomonga yoʻlga chiqadi. Bundan xabar topgan Husayn va Temur harbiy kuchlarini jangga tayyorlaydilar. Birlashgan kuchlar va Tugʻluq Temur qoʻshinlari oʻrtasidagi jang 1365-yil 22-mayda Chinoz va Toshkent oraligʻida qattiq yogʻingarchilik paytida boʻladi va tarixda "Loy jangi" ("Jangi loy") nomini oladi. Bu jangda Temur va Husayn kelishib harakat qilmaganliklari oqibatida ularning birlashgan qoʻshini magʻlubiyatga uchraydi. Ayrim manbalar

bu magʻlubiyatning sababini Amir Husaynning sust va mayoqsizlik bilan harakat qilishi deb izohlaydi. Temurning oʻzi esa bu kabi holatlarni Husaynning hasadgoʻyligida deb biladi.

Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida Xurosonda (Afgʻonistonning shimoli-gʻarbi, Marv vohasi va Eronning shimoli-sharqiy qismi) paydo boʻlib, bu hududlardagi mugʻullar hukmronligi barham beradilar va markazi Sabzavor shahri boʻlgan Sarbadorlar davlatiga (1337-1381 yy.) asos soladilar Sarbadorlar harakati XIV asrning 50-60-yillarida ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida Movarounnahrda ham yoʻyiladi va uning markazi Samarqand edi. Sarbadorlarning harakatlantiruvchi kuchlari madrasa toliblari, shayxlar, umuman, oddiy aholidan iborat edi. Harakat qatnashchilarining asosiy maqsadi mugʻul istilochilari va zulm oʻtkazuvchi mahalliy qatlamlarga qarshi kurash edi.

Bu paytda Keshda boʻlgan Amir Temur Ilyosxoʻjaning magʻlubiyati haqidagi xabarni Amir Husaynga etkazadi va ular 1366-yilning bahorida Samarqandga etib keladilar. Samarqand atrofidagi Konigil mavzeyida qoʻzgʻolon rahbarlari bilan uchrashuv boʻlib oʻtadi. Amir Husaynning buyrugʻi bilan bu erda sarbadorlarning boshliqlari va aftidan, faol ishtirokchilari qatl etiladi. Temurning aralashuvi bilan faqat Mavlanzoda omon qoldirilib, Xurosonga joʻnatiladi. Muʼiniddin Natanziy maʼlumotlariga asoslangan A.Ziyoning fikricha, sarbadorlar gʻalabasidan soʻng samarqandliklar Mavlonzoda itoatiga oʻtib "uni imom va amir (sifatida) qabul qilganlar". Yaʼni, Samarqandda ham diniy, ham siyosiy hokimiyat Mavlonzoda qoʻliga oʻtgan. Uning bu "imomligi va amirligi" Samarqandning oʻzida deyarli bir -yil davom etgan. Shu bois ham Amir Husayn sarbadorlar harakatining boshliqlari va faollarini omon qoldirmasligi aniq edi. Amir Husayn uchun oʻz siyosiy raqiblarini zaiflashtirish va mavridi kelsa ulardan qutulish bergan jarayon orqali ham bilib olish mumkin. 1366-1370-yillar Amir Temur va Amir Husayn oʻrtasidagi ziddiyatlar kuchayib, bu kurash Husayinning oʻldirilishi bilan yakun topdi.

2. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatga asos solinishi

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, deyarli bir asrlk boshboshdoqlik hukm surgan mamlakatga qonunlar joriy etib, tartib oʻrnatish oson emas edi. Uni faqatgina kuchli siyosat yurguzib, mamlakat qudratini mustahkamlab amalga oshirish mumkin edi. Temur

o'ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida dastlab barlos qabilasidan maxsus gvardiya tashkil qiladi. Chunki bunday ishonchli gvardiya ayniqsa uning siyosiy va harbiy kurashlari uchun zarur edi. Shuningdek, Amir Temur davlat boshqaruvini o'z qo'liga olgan bo'lsa-da, ammo mavjud shart-sharoitda amaliy qadamlar qo'yib borish nihoyatda og'ir edi. Zero, mamlakat yo biron-bir viloyat, yoki ijtimoiy tabaqa doirasida kattagina mavqega ega bo'lgan amirlar avval boshda uning hukmronligini tan olgan bo'lsalar-da, ular bilan Amir Temur o'rtasidagi munosabat bundan buyon ularga va ularning namoyondasi bo'lmish ijtimoiy muhitga nisbatan yurgiziladigan siyosat bilan ko'p jihatdan bog'liq edi. Aynan shuning uchun ham 1370-yilning o'rtalarida Samarqandda o'tkazilgan qurultoyda Amir Temur barcha viloyatlardan nufuzli amirlar, lashkarboshilarni yig'ib, ularga har birining mavqei va martabasiga qarab biron-bir mansab va mulk (viloyat, tuman, shahar) taqsimlab beradi, katta-katta sovg'alar ulashadi.

Amir Temur Movarounnahrning qonuniy hukmdori sifatida mamlakat hududlarini birlashtirishga kirishar ekan, hududlar ustiga dabdurustdan harbiy yurishlar qilmasdan, kelishuvchilik siyosatini tutdi. SHu bois ham u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, Farg'ona, SHosh viloyatlarini o'z tasarrufiga kiritishda unchalik qiynalmadi. Ammo, Xorazmda ahvol boshqacha edi. Xorazmning o'sha davrdagi hukmdorlari (Husayn So'fi, Yusuf So'fi) Oltin O'rda ta'sirida bo'lib, elchilar jo'natilganligiga qaramay bir necha -yil Amir Temur hokimiyatini tan olmadilar.

Shuning uchun, ham Amir Temur Xorazm ustiga besh marotaba (1371, 1373, 1375, 1379, 1388 -yillar) qo'shin tortishga majbur bo'ladi. 1388 -yildan so'ng Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kirgan. Amir Temurning harbiy yurishlari 1386-yildan boshlab "uch -yillik", 1392-yildan "besh -yillik", 1399-yildan "etti -yillik" urushlar nomini olgan. XIV asrning 80-yillari o'rtalariga kelib butun Xuroson Sohibqiron ixtiyoriga o'tadi. "Uch -yillik" urush davrida Amir Temur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G'ilonni bo'ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab Tiflis, Arzurum va Van qal'asini egalladi.

1388-yilning yanvarida Amir Temurning qaytishidan xabardor bo'lgan dushmanlar chekina boshlaydilar. Amir Temurdan topshiriq olgan amirlar, Husayn, Shayx Ali Bahodir va boshqalar dushmani Sirdaryo bo'yidagi Sarisuv degan joyda quvib yetib, unga katta talofat etkazdilar. 1388-yilning oxiridagi yana bir to'qnashuv (Sagaron, Kattaqo'rg'on atroflarida) To'xtamishning mag'lubiyati va qochib

ketishi bilan yakunlandi. 1395-yilning bahorida Kavkazdagi Terek daryosi bo'yida To'xtamish va Amir Temur qo'shinlari yana to'qnashdilar. Bu jangda To'xtamish qattiq mag'lubiyatga uchradi, poytaxt Saroy Berka ishg'ol etildi va Oltin O'rdaning qudratiga qattiq zarba berildi.

Ta'kidlash lozimki, Sohibqironning bir mamlakatga qilgan yurishlari uning boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlari bilan ketma-ket borgan. Xorazm, Xuroson, Eron, Hindiston yurishlari bunga misol bo'la oladi. Ma'lumki, Sohibqiron hokimiyat tepasiga kelgan davrda Eron va Xurosonda ham bir nechta kichik davlatlar mavjud bo'lib, oddiy xalq va savdogarlar ulardan ko'p jabr ko'rar edilar. Amir Temur 1380-yildan boshlab Xuroson yurishlarini boshlaydi. Tus, Nishopur, Sabzavor shaharlari unga jangsiz taslim bo'ladilar. 1388-yilning yanvarida Amir Temurning qaytishidan xabardor bo'lgan dushmanlar chekina boshlaydilar.

Sohibqiron Ozaybarjonga bir necha bor hujum qilib 1387-yilda uni egallashga muvaffaq bo'ladi. 1392-yilda Armaniston va Gruziya Amir Temur izmiga o'tadi. Shimoliy Hindiston va Kashmir musulmonlari qaroqchilardan aziyat chekayotganligi bois Amir Temur Hindistonga ham yurish qilib, 1399-yil martida bu hududlarni ham egallaydi. 1400-yilda Amir Temur qo'shinlari turk sultoni Boyazid I va Misr sultoni bilan kurash olib borib, o'sha -yili Misr sultoni Farajni tor-mor etdi. 1402-yilda Amir Temur Anqara yonida Boyazid bilan ikkinchi marta to'qnashdi va uni tor-mor etdi.

Temurning bu g'alabasi ayniqsa evropaliklarda katta taassurot qoldirgan edi. Misol uchun: Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba munosabati bilan Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV va Vizantiya imperatori Temurga o'z tabriknomalarini yuborganliklari manbalarda ma'lum. Chunki, tadqiqotchilar tili bilan aytganda, Yevropaga ulkan xavf solib turgan Boyazid boshchiligidagi usmoniyar imperiyasiga berilgan zarba uchun endigina uyg'onayotgan butun Yevropa Amir Temurdan minnatdor edi. 1404-yilning may oyida Amir Temur Kichik Osiyodan Samarqandga qaytib keladi va Xitoyga bo'ladigan yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. 1404-yilda qahraton qishda Temurning 200 minglik qo'shini Samarqanddan Xitoy yurishiga chiqadi. O'sha -yili qish O'rta Osiyo tarixidagi eng qahraton qishlardan bo'lgan edi. Sirdaryoning suvi bir metrga muzlagan, askarlardan ko'pining qo'l-oyoqlarini, quloq-burunlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o'zi ham ko'p o'tmay shamollab qoladi. 1405-yil yanvar

oyining o'rtalarida O'troga to'xtashga qaror qilishadi va bu erda 18-fevral kuni buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

Amir Temur 35 -yil davomida harbiy yurishlar olib boradi. Ushbu yurishlar natijasida ulkan saltanat barpo etildiki, uning tarkibiga Movarounnahr va uning atrofidagi viloyatlar, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg'oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Osiyoning bir qator davlatlari kirgan. Amir Temurning ulkan davlat barpo etishdagi faoliyati uning maqsad va rejalariga ko'ra ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich 1360-1386-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda Sohibqiron Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlat barpo etishga erishadi. Ikkinchi bosqich 1387-1404 -yillarni o'z ichiga olib, bu davrda Amir Temur mamlakat qudratini mustahkamlash payida bo'ldi. O'sha vaqtdagi Qobul va Shimoliy Hind mulklarining hukmdori bo'lgan Pirmuhammadni taxtga o'tqazish tarafdorlari ko'p bo'lsa-da, Mironshoh Mirzoning o'g'li, Toshkent, Sayram, Turkiston yerlarining hokimi Xalil Sulton 1405-yilning 18-martida o'zining ming chog'li askari bilan shoshilinch tarzda Samarqand taxtini egallaydi. Xalil Sulton boshqa bir temuriy shahzoda Muhammad Jahongir Mirzo (Temurning ikkinchi o'g'li bo'lmish Jahongir Mirzoning o'g'li Muhammad Sulton Mirzoning o'g'li)ni xon deb ko'taradi va uning nomidan xutba o'qitib, tanga zarb ettiradi. Xalil Sulton vaqtincha Temurdan qolgan xazinalar evaziga Sohibqironning nufuzli a'yon va kiborlari, ayrim amirlarini ma'lum qismini o'z tomoniga og'dirib, Movarounnahr taxtini egallab olgan bo'lishiga qaramay, ko'p o'tmasdan kuchli norozilik va isyonlarga duch keladi. Avvalo, Temurning kenja o'g'li Shoxrux Mirzo Hirotda o'z nomiga xutba o'qitib, tanga zarb etishni joriy qildi. Shundan so'ng, Turkiston hokimi Shayx Nuriddin va Farg'ona hokimi Amir Xudoydod Xalil Sultonga qarshi isyon ko'taradilar. Bu isyonga O'tror hokimi Berdibek ham qo'shiladi. Xalil Sultonning ukasi Mirzo Sulton Husayn Amudaryo bo'ylarida o'z akasiga qarshi bosh ko'taradi. Temur taxtining asosiy valiahdi bo'lgan Pirmuhammad Amudaryodan kechib o'tib, Xalil Sultonga qarshi Nasafga qo'shin tortadi. Xalil Sultonni Iroq tomondan otasi Mironshoh Mirzo qo'llab quvvatlab turgan bo'lishiga qaramay, unga qarshi nizolar kuchayib bordi. Natijada 1405-yilning oxirlariga kelib Xurosonda Shohrux Mirzo, Balx, G'azna va Qandahorda Pirmuhammad Mirzo, G'arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshoh Mirzoning o'g'illari Umar Mirzo bilan Abubakr Mirzolar hokimi mutlaq bo'lib oladilar. Sirdaryodan shimolda joylashgan viloyatlar: Turkiston,

Sarbon, O'tror, Sayram Amir Berdibek tasarrufida qoladi. O'ratepa bilan Farg'onani Amir Xudoydod egallab oladi. Xorazmni esa Oltin O'rdaning taniqli sarkardalaridan biri Amir Idiku O'zbek ishg'ol etadi.

1405-1408-yillarda Shohrux Mirzo Xalil Sultondan Samarqand taxtini tortib olishga harakat qilgan bo'lsada, buning uddasidan chiqa olmadi. Balx, Seyiston, Xuroson va Ozarbayjonda temuriy shahzodalar va ayrim nufuzli amirlarning birin-ketin ko'tarilib turgan g'alayonlari bunga jiddiy to'sqinlik qilar edi. 1409-yilning boshlarida Movarounnahrda ham siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi. Bu vaqtda Amir Xudoydod Xalil Sultonni Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlog'ida mag'lubiyatga uchratib, uning o'zini asirlikka oladi. Xuroson hokimi Shohrux esa Mozandaron, Mashhad, Seyiston va Kirmondagi g'alayonlarni bostirib, bu viloyatlarda osoyishtalik o'rnatadi. So'ngra butun e'tiborini Movarounnahrqa qaratadi va 1409-yil 25-aprelda Amudaryodan o'tib, Samarqandga qo'shin tortadi.

Bu jangda Xalil Sultonni asir olgan Amir Sulton qo'shinlari tor-mor etilib, Xalil Sulton asirlikdan ozod qilinadi hamda Ray viloyatining (Eronda) hokimligiga tayinlanib 1411-yilda vafot etadi. 1409-yilning oxiriga qadar Movarounnahrda tinchlik va osoyishtalik o'rnatib, Xalil Sulton va boshqa temuriy shahzodalar tarafdorlariga keskin choralar ko'radi, izdan chiqqan xo'jalik hayotini, savdo-sotiqni tiklaydi, Shohrux Mirzo temuriylar davlatining oliy hukmdori sifatida e'tirof etilib, uning deyarli 40 -yillik (1409 -1447yy.) barqaror hukmronlik davri boshlanadi. Temur vafotidan so'ng o'tgan davr mobaynida davom etgan taxt va hududlar uchun o'zaro urushlar hamda isyonlar mamlakat aholisining iqtisodiy ahvoliga keskin ta'sir qilib, xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan edi. Shu bois, Shohrux Mirzo oddiy xalq tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tabiiy edi. Aynan shuning uchun ham Shohrux Amir Temur hukmronligi ostida bo'lgan hududlarda o'z hokimiyatini o'rnatishga hamda mamlakatda doimiy tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga jiddiy harakat qiladi.

Amir Temur va temuriylar davrida davlatning kuchli boshqaruvi asoslari yaratilgan bo'lib, bu asoslar saltanat tasarrufiga olingan xalqlar va millatlarning diniy e'tiqodi, milliy va irqiy mansubligi hamda sivilizatsiyalar taraqqiyoti darajasidagi tafovutlar va boshqa holatlarning o'z holicha davom etishiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan. Aksincha, mamlakat tarsarrufidagi barcha xalqlar va elatlar iqtisodiy siyosiy taraqqiyotining yanada yuksalishiga ijobiy turtki beribgina qolmasdan va ularga tarixiy sharoitni, ya'ni barcha xalqlar va davlatlar o'rtasida

madaniy va iqtisodiy aloqalarni - hozirgi qabul qilingan iboralar bilan aytganda integratsion jarayonlarning faol harakatda bo'lishiga imkon yaratib bergan edi. Amir Temur tomonidan davlat boshqaruvi sohasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida Movarounnahr va unga tobe viloyatlarda qonunga, uning ustivorligiga asoslangan davlat boshqaruvi tizimi shakllantirildi. Islohotlar jarayonida shu davrdagi mavjud davlat boshqaruv tizimidagi ko'chmanchi va o'troqlik xususiyatiga ega bo'lgan davlatchilik boshqaruvi an'analarning qaytadan tashkil etilishi, bunda o'troq va ko'chmanchi xalqlarning diniy, milliy, mintaqaviy, etnik qadriyatlarini asos qilib olingan bo'lsada, pirovard natijada mahalliy o'troq madaniyatga ega xalqlarning milliy davlatchilik an'analari asosiy o'ringa ko'tarildi.

Boshqaruv ikki idoradan - dargoh va vazirlik - devondan iborat bo'lgan. Dargohni oliy hukmdor boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlari, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlarini oliy devon yuritgan.

Oliy devon - ijroiya hokimiyatida bosh vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri turgan. Sarhadlar va tobe mamlakatlar boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir faoliyat ko'rsatib, devonbegiga hisobot berib turgan.

Markaziy hokimiyat tizimida shayxulislom, qozikalon, qoziyi ahdos (urf-odatlar bo'yicha hukm chiqaruvchi qozi, qoziyi askar, sadri a'zam (vaqf yerlari, mulklari mutasaddisi), dodhoh (fuqarolarning shikoyatlarini ko'ruvchi), eshikog'asi, saroy vaziri, yasovul va boshqalar bo'lgan.

Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan edi. Davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Amir Temur o'ziga qadar mavjud bo'lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal qiladi:³

1. Davlatning siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi;
2. Davlat va jamiyat siyosiy yaxlitligining buzilmasligi;
3. Davlat va jamiyatning muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilishi;
4. Boshqaruv tizimini muvofiqlashtirib turuvchi qonun va qoidalar ishlab chiqilishining shakllangan bo'lishi;

³ Ўзбекистон тарихи. давлат ва жамият таракқиети. 133-б.

5. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvolining davlat e'tiborida bo'lishi;
6. Fan va madaniyat ravnaqi to'g'risida doimiy qayg'urish;
7. Har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarining tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;
8. Davlat tepasidagi kuchlar o'tmish, zamon va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g'oyat yuksak ma'naviyat va millatparvarlik ila anglamog'i;
9. Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to'qqizinchisini, ya'ni jamiyatning rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatlarining ta'minlanishini qo'shdi.

4. Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruvi

Amir Temur davlat boshqaruvinu amalga oshirsada, biroq o'sha davr davlatchilik an'analarga asosan davlatning rasmiy hukmdorlari Chingizxon xonadoniga mansub Suyurg'atmish (1370-1388-yillar) va uning o'g'li Maxmudxon (1388-1402-yillar) hisoblanar edi. Rasmiy hujjatlar shu xonlarning nomidan bitilib, tangalarda ham shu xonlarning nomi aks ettirilsada, aslida amir darajasida bo'lgan Amir Temur tomonidan davlat boshqaruvining barcha sohalari to'laligicha amalga oshirilgan.

Mamlakatning asosiy markaziy boshqaruvi dargoh va devon tomonidan boshqarilib, unda yetti nafar vazir faoliyat yuritgan, devonda to'rt vazir markaziy hokimiyat ishlarini amalga oshirsa, qolgan uch nafar vazirlar viloyatlar boshqaruvi nazorati bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirganlar. Bular quyidagilardir:

1. Mamlakat va raiyyat vaziri - mamlakatdagi umumiy holatni boshqargan va nazorat qilgan.
 2. Sipoh vaziri (harbiy vazir) - harbiy soha uchun javobgar.
 3. Mulqchilik va soliq ishlari vaziri - zakot va boj, soliqlar ishlarini boshqargan va nazorat qilgan.
 4. Saltanat ishlarini yurituvchi vazir (saroy vaziri) - saltanat idoralari kirim-chiqimlari, xazinadan qilinadigan sarf-harajatlar, davlat moliyaviy tizimining nazoratchisi.
 5. Sarhadlar vazirlari - bu vazirlar uch nafar bo'lib tobe mamlakatlar bilan bog'liq moliyaviy va daromad ishlarini boshqarganlar.
- Amir Temur va temuriylar davri tarixining eng chuqur bilimdoni B.Ahmedovning ta'kidlashicha, yetti nafar vazirning o'ziga belgilangan

alohida vazifalari mavjud bo'lgan va ular qat'iy ravishda o'z zimmalaridagi vazifalarni ado etganlar va ular quyidagi tartibda bo'lgan:

- Birinchi, vaziri a'zam (bosh vazir) – saltanatning muhim ishlari bilan shug'ullangan.
- Ikkinchi, sipoh vaziri – mamlakatning harbiy masalalari bilan shug'ullangan.
- Uchinchi, (mulkchilik va soliq ishlari vaziri) - davlat yer-mulkleri, boj, zakot ishlari bilan shug'ullangan.
- To'rtinchi, (saroy vaziri) - saltanat kirim chiqimlari, xazina harajatlari bilan shug'ullangan.
- Beshinchi, adliya vaziri bo'lib, bu vazir devoni kuzzot (qozilar devoni) ga rahbarlik qilgan.
- Oltinchi, devoni mushrif – mansabdorlar faoliyatini nazorat qilish ishlari.
- Yettinchi, tashqi ishlar vaziri (devoni rasoil) – mamlakatlararo savdo va elchilik munosabatlarini boshqargan.

Ayni vaqtda, Amir Temur tomonidan turkiy davlatchilik boshqaruvining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan qurultoylarning faoliyati jonlantirildi. Qurultoyda mamlakatning taqdiri bilan bog'liq masalalar muhokama etilgan va u Millat majlisi vazifasini bajargan.

Ma'muriy jihatdan mamlakat uluslar, viloyatlar va tumanlarga bo'lib boshqarilgan. Mamlakat to'rt ulusga bo'lingan va har bir ulus va viloyatlar Amir Temurning o'g'illari va nabiralari tomonidan idora etilgan. Ayni vaqtda davlat yerlarining bir qismi suyurg'ol tarzida ham shahzodalarga va yirik amaldorlarga bo'lib berilgan. Garchi suyurg'ol tarzida berilgan yerning sohibi Amir Temurga sadoqat bilan xizmat etib kelgan va ma'lum bir hudud yoki mulkning markaziy hokimiyatga so'zsiz bo'ysunishini ta'minlasada, keyinchalik temuriylarning hukmronligi vaqtida yuzaga kelgan siyosiy tarqoqlikning iqtisodiy va siyosiy asoslaridan biriga aylanib qolgan edi, ya'ni viloyatlar hokimlari bilan bir qatorda ba'zi suyurg'ol mulk egalari ham o'zlarini mustaqil deb e'lon qilishga harakat qilgan edilar.

Ma'muriy tizim asosan ma'lum hududiy birlikning yetkazib beradigan qo'shinlari soni bilan belgilangan, o'n ming qo'shin bilan ta'minlash imkoniga ega hudud **tuman** (mo'g'ulcha – o'n ming) deb yuritilgan. O'z navbatida mingliklar – **hazorani**, yuzliklar – **sada**, o'nliklar – **dahalami** tashkil etgan.⁴

⁴ Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. 108-6.

Har bir viloyatning o'z hokimlari bo'lish bilan birga, moliya devoni, qozi, muftiy, muxtasib va mutavallilari ham faoliyat ko'rsatgan. Ular bir vaqtning o'zida mahalliy hokimiyatga va Oliy devonga bo'ysungan, bu esa mahalliy ma'muriy boshqaruvning mukammal darajada tashkil etilganligini ko'rsatadi.

Mahalliy boshqaruvda shuningdek, mahalla oqsoqollarining o'zni ham sezilarli darajada bo'lgan va oqsoqollar mahalliy aholi orasidan tayinlangan.

Amir Temur va temuriylar davrida davlat va boshqaruv masalalari, davlat va mahalliy hokimiyat vakillarining barchasi yagona markazga bo'ysundirilgan. Davlat boshqaruv tizimi mukammal davlatchilik tizimi bo'lib, u davlat hokimiyatini amalga oshirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilgan edi.

O'zbek xalki davlatchiligi tarixida Amir Temurning xizmati shundaki, u davlatchilikning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosatining tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi.

Mamlakatni boshqarishda eng avvalo o'z yaqinlariga suyangan Amir Temur davlat boshqaruv ishlarida islom qonun-qoidalariga ham amal qildi.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, eng avvalo uzoq -yillar davom etgan mo'g'ullar hukmronligining asoratlari – siyosiy tarqoqlik, boshqaruvdagi o'zboshimchaliklar, mamlakat ichki hayotida fuqarolar ustidan hukmronlik qiluvchi beklar va amirlarning zulmkorlik siyosatiga barham berdi.

Sohibqiron Amir Temur davlatining ma'muriy tizimi o'sha davrdagi milliy davlatchilik, fors, arab va mo'g'ul va o'sha davr davlatchiligining eng maqbul sifatlarini o'zida mujassamlashtirdi. Unda urf-odatlar, turli milliy qadriyatlar taraqqiyotiga yo'l ochish, inson farovonligini ta'minlash asosiy maqsad etib olingan edi. Sohobqiron Amir Temur davlatining ma'muriy tizimi davr uchun xos bo'lgan yangicha an'analarni o'zida mujassam etsada, davlatning barcha sohalarida turkiy davlatchilik an'analari ustunlik qildi.

Sohobqiron Amir Temur o'rta asr turkiy davlatchilik an'analari boshqaruvga asos qilib olib, ularni yangicha asosda rivojlantirdi.

Amir Temurning davlat boshqaruv asoslari o'sha davr tarixiy sharoitidagi eng afzal boshqaruv asoslarini o'zida aks ettirgan bo'lib, o'zga davlatlarning davlat boshqaruv ishlari uchun ham o'ziga xos tarzda andoza sifatida ta'sir o'tkazdi. Davlatning boshqaruv asoslari o'z

davri imkoniyatlaridan birmuncha o'zib ketgan bo'lib, fuqarolarning milliy, irqiy, diniy va taraqqiyoti darajasidan qat'iy nazar mamlakat obodligi va xalq farovonligi uchun xizmat qilgan.

Amir Temurning davlatchilik ta'limotida tarixiy davlatchilik tafakkuri, o'z davrining muhim ijodiy qonunchiligi va ta'limotlari uyg'unlashib, o'sha davr uchun yangicha mukammal davlatchilik asoslari yaratilgan va amalga oshirilgan.

Amir Temurning davlat boshqaruv qoidalari insoniylik poydevori ustida qaror topganligi uchun ham bu qadriyatlar o'zbek xalqining bugungi davlatchilik an'anasiga ham mos keladi.

Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosatidagi eng asosiy tayanchi harbiy qo'shinlar edi. Harbiy qo'shinlarning eng asosiy vazifalaridan biri esa mamlakat tinchligi va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashdan iborat edi.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki vaqtlaridanoq kuchli harbiy qo'shin tuzish harakatiga tushadi, buning asosiy sababi dastlabki vaqtlarda Movarounnahrning tevarak atrofida joylashgan mo'g'ul xonlari va amirlariga qarshi kurash olib borish bo'lsa, keyingi vaqtlarda kuchli davlat tuzish va uning xavfsizligini ta'minlash edi, bu masalalar esa o'z navbatida davlatning kuchli qo'shinga ega bo'lishini taqozo etardi.

Amir Temur harbiy islohotlarga katta e'tibor berib, eng avvalo qo'shin boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilarni tanlab olish va ularni tarbiyalab borish, qat'iy harbiy intizomga rioya etuvchi kuchli qo'shin tuzish, qo'shinni qurollantirish borasida ish olib bordi.

Amir Temurning harbiy islohotlari asosida tuzilgan qo'shinning asosini o'n nafar jangchidan iborat bo'linma tashkil qilgan. Bu bo'linma "ayl" deb yuritilgan. O'z navbatida o'n nafar "ayl" birikib, yuz kishilik qo'shinni "xo'shun"ni tashkil etgan. O'n nafar «xo'shun» esa ming kishilik qo'shin "xazora"ni tashkil etgan, o'n nafar "xazora" birikib, "tuman", ya'ni o'n ming kishilik qo'shinni tashkil etgan, "tuman" lashkar deb ham yuritilgan.

Mazkur qo'shinlar alohida tartibda maxsus harbiy qo'mondonlar tomonidan boshqarilgan, harbiy qo'mondonlik aksariyat hollarda nasl-nasabiga qarab emas, balki harbiy sohadagi malakalariga qarab bo'linma "xo'shunboshi" tomonidan, ming kishilik qo'shin "mirixazora" tomonidan, o'n ming kishilik lashkar esa "tumanboshi" yoki "tumanog'asi" tomonidan boshqarilgan va jangga boshlab kirilgan.

Har bir askar va har bir qo'mondon davlat tomonidan maxsus maosh – **ulufa** bilan ta'minlab borilgan. Ayni vaqtda janglarda o'zini ko'rsata olgan va mardlik namoyon qilgan askarlar va lashkarboshilar maxsus mukofotlar va in'omlar bilan taqdirlangan. Agar biron-bir lashkarboshi dushman qo'shinini mag'lub etsa va biron-bir hududni qo'lga kiritisa, u maxsus tug', noqora, bahodirlik martabasi va eng asosiysi harbiy masalalardagi davlat kengashlariga qatnashish huquqiga ega bo'lgan.

Amir Temur qo'shinlarini boshqargan qo'shin boshliqlari – amirlar, asosan unga sodiq bo'lgan o'n ikki urug' (qabila) – barlos, arg'in, jaloyir, tulkichi, do'ldoy, mo'g'ul, sulduz, to'g'oy, qipchoq, arlot, tatar va tarxonlardan tanlab olingan bo'lib, butun harbiy faoliyati davomida Amir Temur 313 nafar kishiga amirlik rutbasini bergan edi. Mazkur 313 nafar amirlarning biri **amir ul-umaro**, to'rt nafari **beklar begi**, qolganlari **mingboshi** va **yuzboshi** martabasida bo'lishgan. Bulardan tashqari o'n ikki kishi birinchidan o'n ikkinchi darajagacha bo'lgan amirlar sanalib, ularning har biriga bittadan bayroq va noqora, amir ul-umaroga ham bayroq va noqora, o'n ming kishilik qo'shin, tug', to'rt nafar beklarbegining har biriga ham bayroq, noqora, chodir va karnay berilib, bu narsalar amirlarning martabalarini va qo'shindagi maqellarini belgilab bergan.

Bunday o'ziga xos ramzlar ayni vaqtda qo'shin yoki ayrim alohida bo'linmalarining umumiy qo'shindagi mavqei, o'rni va darajasini hamda uning kim tomonidan boshqarilayotganligini ham anglatib turgan.

Katta qizil bayroq qo'shin boshlig'i, ya'ni amir al-umaro yoki beklarbegi uchun xos bo'lsa, ot yoli bog'langan uzun tug' tuman og'asi (o'n ming kishilik qo'shin qo'mondoni)ning, ikki tomoniga kokillar (yoki shokilalar) osilgan ikki noqora yuzboshi uchun xos bo'lgan harbiy ramzlar yoki belgilar hisoblanar edi. Otliq jangchilar bo'linmalarini boshqarish uchun maxsus ajratilgan otliqlar ot egarlarining ikki tomoniga ikki tabl dovul (nog'ora) osilib, jang paytlarida otliq askarlarning jang harakatlarini tartibga solish va boshqarish uchun turli musiqa usullarida chalib borilgan.

Qo'shin tuzilishiga ko'ra bir necha qismdan iborat bo'lib, asosiy bo'linmani bir necha tumanlarni o'z ichiga olgan "**manglay**", ya'ni asosiy avangard qismlar tashkil qilgan. Manglay bilan qo'shinning asosiy qismlari oralig'ida esa qo'mondonning qarorgohi va uning tevarak "**zahira**" qismlar joylashgan bo'lib, u "**izofa**" deb yuritilgan. Urush vaqtlarida jang oqibatining qanday tugashi bevosita izofa qismlariga bog'liq bo'lgan. Qo'shinining eng asosiy jangovor qismi

markaz, o'ng va so'l qanotlardan iborat bo'lgan. Uning o'ng qanoti «**burong'or**», so'l qanoti esa «**javong'or**» deb yuritilgan. Burong'or va javong'orning oldida Yana bittadan kichik bo'linmalar-qo'riqchi bo'linmalar harakatlangan va ular «**kanbul**» deb yuritilgan. Qo'shin harakatlanayotgan vaqtda esa asosiy qo'shindan oldin kuzatuv ishlarini olib boruvchi eng tajribali askarlardan iborat «**xabargirlar**» (harbiy qo'shin razvedkasi) harakatlangan. Shuningdek, qo'shinning o'z yo'l **boshlovchilari** ham bo'lib, ular ham harbiy bo'linma hisobida bo'lgan. Bu bo'linmaning ortidan yana bir kichik bo'linma «**yasovul**» lar harakat qilgan.

Shu tariqa murakkab tuzilishga ega bo'lgan qo'shin yetti qismdan iborat bo'lib, markaz-manglay, burong'or-o'ng qanot, javong'or-so'l qanot mustaqil tarzda harakatlangan, asosiy qo'shinning qanotlarida harakatlanuvchi ikki manglay va ikki kanbullar bo'linmalari asosiy qismlarga birikkan holda harakatlangan va ularga tobe hisoblangan.

Harbiy yurishlar vaqtida har bir jangchi o'zi bilan oziq-ovqat, sadog'ida o'ttizta o'qi bilan kamon, qilich, nayza va qalqon hamda sovut olib yurishi shart bo'lgan. Otliq askar esa yuqorida aytilganlarga qo'shimcha ravishda mingan otidan tashqari yana bitta ot olib yurishi belgilab qo'yilgan. Har bir ayl – o'n kishilik askariy bo'linma o'zi bilan chodir, qozon, ketmon, ikkita belkurak, bolta va o'roq, igna va ip, arqon hamda bittadan oshlangan teri olib yurishi lozim bo'lgan.

Harbiy sohada islohotlarni amalga oshirar ekan, Amir Temur eng avvalo, har bir askar va har bir harbiy qo'shin qo'mondonlarining harbiy intizom va harbiy nizomga qat'iy ravishda bo'ysunishini va amal qilishini eng zaruriy va birlamchi vazifa etib qo'ygan. Ayni vaqtda, harbiy sarkardalarning eng quyi pog'onadagilardan boshlab qo'shin boshliqlarigacha harbiy san'at, jang qilish uslublari, jang taktikalari va harbiy harakatlarni olib borish malakalari, o'z qo'llari ostidagi oddiy askarlarga nisbatan har sohada adolatli bo'lishlarini talab qilgan va ularning martabalarini ko'tarishda ham shu kabi xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan. Oddiy askar esa nizomni qat'iy bajarishga majbur bo'lish bilan birga jang vaqtida ayovsiz va dovyurak bo'lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala qilishi va adolatli bo'lishi lozirligi belgilab qo'yilgan.

Amir Temurning harbiy islohotlari natijasida qo'shin qat'iy tartibga va tizimga asoslangan qudratli armiyaga aylandi. Qo'shinning tuzilishi ham o'ziga xos tarzda belgilab qo'yilgan bo'lib, tinchlik

vaqtlarida ham, urush holatlarida ham harbiy intizomga va tartibga qat'iy amal qilingan.

5. Amir Temur va temuriylar davrida iqtisodiy munosabatlar

Amir Temur va temuriylar hukmronligi -yillarida yer egaligi an'anaviy tarkibini saqlab qoldi. Avvalgidek asosiy yer egasi davlat hisoblanib, davlatga qarashli yerlar «**mulki devoniy**» deb yuritilgan, shuningdek, xususiy yerlar – «**mulk**», diniy muassasalar ixtiyorida yerlar – «**vaqf mulki**» yoki «**mulki vaqf**» asosiy yer egaligi turlari bo'lib, qishloq jamoasi tasarrufidagi yerlar - **jamoat yerlari** ham mavjud bo'lgan.

Amir Temur va temuriylar davrida ham davlat oldidagi xizmatlari uchun yerlarni in'om qilish an'anasi saqlangan va xatto kengaygan bo'lib, bunday yerlar «**suyurg'ol**» nomi bilan yuritilgan. Suyurg'ol yerlar suyurg'ol egalarning hokimiyatdagi va jamiyatdagi mavqelariga qarab turlicha – kichik-kichik yerlardan tortib bir necha o'nlab qishloqlarni o'zida birlashtirgan yirik mulklargacha bo'lgan. Kichik yer-mulklar asosan kichik unvonli harbiy zobitlar va oddiy askarlarga berilgan va ular 40 tanobgacha (80 jarib) bo'lib, soliqlar va yig'imlardan ozod etilgan. Yirik suyurg'ol egalari esa asosan hukmron tabaqaga mansub bo'lib, ularning yer-mulklarga egaligi siyosiy tusga ham ega bo'lgan. Har bir suyurg'ol egasi o'z tasarrufidagi mulkda markaziy hokimiyatga bo'ysungan holda to'la hukmronlik qilish vakolatiga ega edi. Ko'p hollarda bunday mulklar meros tariqasida ham qoldirilgan bo'lsada, davlatga qarshi xatti-harakatlari uchun suyurg'ol egasi mulkdan mahrum qilinishi yoki mulkning miqdori yoki hududlari qisqartirilishi ham mumkin edi. Ayniqsa, temuriylar hukmronligi -yillarida yirik suyurg'ol egalari yoki ayrim hududlarni o'z ta'sir doirasiga kiritgan hokimlar va amirlarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik holatlari kuzatiladi. Bunday hokimiyatga bo'ysunmaganligi mahrum etilganlar, masalan, 1414-yilda hokimiyatga bo'ysunmaganligi uchun Shohrux Mirzo tomonidan Mirzo Iskandar, 1415-yilda esa Boyqaro Mirzo o'zlari egalik qilayotgan suyurg'ol mulklaridan mahrum etilgan edilar.

Amir Temur va temuriylar davrida **tarxon yorlig'i** berish keng tarqalgan bo'lib, odatda tarxon yorlig'i sohiblari o'z mulklaridan to'lanadigan soliqlar va yig'imlar hamda boshqa turli majburiyatlardan ozod etilganlar. Tarxon egalari ham yirik suyurg'ol egalari kabi siyosiy hayotga jiddiy ta'sir o'tkazib turganlar.

XV asrda ziroatchilik bilan shug'ullanuvchi qishloq ahli orasidan bir qismi imtiyozlarga ega bo'lgan va ular soliqlarning oz miqdorini to'lashgan. Aholining juda katta qismini ijarachi – **chorikorlar** va **jamoah dehqonlari** tashkil etgan. Qishloqlar **jamoah** yoki **kariyah** deb yuritilgan. Uning mulki butun jamoah ahliga qarashli bo'lgan.

XV asrda ziroatchilar qanday yer-mulklarida yashab, ekin ekishlariga qarab hiroj to'laganlar. Ular asosan to'rt turga –

1. Davlat yerlarida ishlovchi ziroatkorlar yoki muzoriylar.
2. Xususiy mulk yerlarida ishlaydigan ziroatchilar yoki muzoriylar.
3. O'z yerlarida ishlovchi ziroatchilar yoki muzoriylar.
4. Vaqf yerlarida ishlovchi ziroatchilar yoki muzoriylarga bo'lingan.

Temuriylar davrida soliqning asosiy turi – xiroj bo'lgan. Obikor dehqonchilik yerlaridan davlatga to'lanadigan asosiy soliq "**xiroj**" (moli xiroj) bo'lib, bu soliq dalalarda hosil to'liq yetilib, maxsus soliqchilar tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan xirojning miqdori belgilab berilgandan so'ng to'langan. Soliq pul bilan yoki mahsulot tarzida ham to'lanishi mumkin bo'lgan. Soliq umumiy hosilning 3/1 qism miqdorida bo'lgan. Bog'lardan tanobona solig'i olingan. Shuningdek, jon solig'i, ulog', begar ham asosiy soliq turlaridan hisoblangan.

Mag'lub shahar aholisidan **sari shumor** (jizya) olingan. Mamlakatlar xavf ostida qolgan vaqt davrida favqulodda soliq-**avorizot** yig'ib olingan.

Amir Temur va temuriylar davrida nafaqat Movarounnahr, balki Sharqning eng yirik shaharlari hisoblangan Samarqand, Buxoro, Toshkent, shuningdek temuriylar davrida yirik iqtisodiy-siyosiy va madaniy markazlarga aylangan Shohruxiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi va boshqa bir qator shaharlar yirik iqtisodiy markazlarga aylandi. Bu shaharlarda o'rta asr hunarmandchiligining barcha turlari rivoj topdi va taraqqiy etdi.

Hunarmandchilik sohasida asosiy ishlab chiqaruvchi ijtimoiy toifa erkin hunarmandlar bo'lgan. Ular shaharda yashovchi savdogarlar bilan bir qatorda madaniy markazning o'rta hol vakillari sanalganlar. Do'kondor va hunarmandlardan **tamg'a solig'i** olingan.

Xalq ko'plab hashar ishlari – **begarga** jalb etib turilgan. Shuningdek, yuqorida ko'rsatilgan soliqlardan tashqari mulkdorlar o'z mulklarining qirqdan bir qismi miqdorida **zakot** to'lab turgan. Chegaradagi bojxonalarda chetdan kelgan savdogarlardan **boj** undirilgan, mahalliy savdogarlar esa **tagjoy solig'i** to'lasalar, bog'dorlar **tanobona** solig'ini to'laganlar.

Asosiy soliqlardan tashqari aholi zimmasida soliq ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldorlarning ta'minoti uchun yig'iladigan qo'shimcha soliqlar ham bo'lib, ular asosan soliq (hosil) miqdorini belgilovchilar uchun ("**sohibi jamona**"), soliq yig'uvchilar uchun ("**muxassiloni**"), davlat xazinasiga soliqlardan tushadigan kiritim-foydani nazorat qiluvchilar va boshqaruvchilar uchun ("**zobitona**"), dorug'alar uchun ("**dorug'ona**"), suv ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldorlar va miroblar uchun ("**mirobona**") bir qator soliqlar yig'ib borilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun nazorat savollar

1. Amir Temurning hokimiyatni egallashdagi siyosiy-harbiy faoliyati
2. Davlat boshqaruvida dargoh va devonning o'rni qanday edi?
3. Amir Temur davlatida huquqiy munosabatlar qanday qonunlarga asoslangan edi?
4. Amir Temur davlatida soliq tizimi qanday tartibda amalga oshirilgan?

8. MAVZU: XVI-XIX ASR BIRINCHI YARMIDA O'ZBEK DAVALTCHILIGI TARIXI.

Reja:

1. Shayboniylar davlati markaziy va mahalliy boshqaruvi
 2. Shayboniylar davlati harbiy qo'shin va soliq tizimi
 3. Shayboniylar davlati huquq tizimi
 4. Qo'qon xonligi davlat boshqaruv tizimi
 5. Xiva xonligi davlat boshqaruv tizimi
- Tayanch so'z va iboralar.** Dashti Qipchoq, Shayboniylar, Ashtarxoniyalar, shariat qonun qoidalari, shayxulislom, harbiy boshqaruv.

1. Shayboniylar davlati markaziy va mahalliy boshqaruvi

Shayboniylar davlati o'z mohiyatiga ko'ra yirik davlat bo'lib, oliy hokimiyat cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i xon tomonidan boshqarilgan. Xonlikning siyosiy tizimida, boshqaruvida Amir Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib qoidalar, xususiyatlar bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos an'analar ham mavjud edi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun qoidalari amal qilingan. Davlatni boshqarishda xon saroyidagi oliy darajadagi amaldorlardan tashkil topgan markaziy boshqaruv va viloyat hokimlari qo'lidagi mahalliy boshqaruv asosiy o'rin tutib, ular mamlakatning amaldagi haqiqiy egalari edilar.

Ular yordamida, bevosita ishtirokida xon ma'muriy boshqaruvi amalga oshirardi.

Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi hayotiga bog'liq barcha masalalarni hal qiladigan dargoh - saroy devonida jamlangan edi. Davlatning oliy darajali amaldorlari a'zo bo'lgan va odatda bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu mahkama mamlakatning siyosiy, moliyaviy, harbiy tashkiliy va boshqa masalalarni ko'rib chiqar edi. Bu yerda qabul qilingan qarorlar xonning tasdig'i bilangina kuchga kirar va hayotga joriy etilardi.

Ko'kaldosh, Otaliq, Naqib, vaziri a'zam, vazir, devonbegi va boshqa oliy darajali saroy amaldorlari, no'yon, tug'begi, kutvol, dorug'a, qo'rchiboshi va boshqa harbiy amaldorlarning fikri va manfaatlarini ham qarorlar qabul qilinishida katta ahamiyatga ega edi.

Davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy amaldorlardan tashqari, ulamolalar, din peshvolari, shayxlar va xojalarning, aynan Shayx ul-islom, qozi kalon, Mufti kabi diniy mansab egalarining ham ta'siri katta bo'lgan. Bu davrda ayniqsa, Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'idan chiqqan xojalarning mavqei juda oshib ketdi.

Mahalliy boshqaruv viloyat hokimlari qo'lida bo'lib, ular ham o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Uning tarkibiga qo'shinga boshchilik qiladigan, shariat qonunlarining to'g'ri bajarilishini nazorat qiladigan, aholidan soliqlarni yig'ib oladigan amaldorlar (rais)lar kirgan. Viloyatlar o'z navbatida kichik ma'muriy birliklar: tuman, kasaba va mavzelerga bo'linib idora qilingan.

Mahalliy boshqaruvning eng quyi bo'g'ini oqsoqol (kalon taron) tomonidan boshqariladigan qishloq jamoalari edi.

Xonlik viloyat (ulus)ga bo'lib boshqarilgan. Manbalarda Samarqand, Qarshi, Shaxrisabz, Xisor, Balx, Termiz, Karmana, Qorako'l, Miyonqol, Shosh, Turkiston, Farg'ona, O'ra-tepa, Marv kabi viloyatlardan tashkil topganligi ko'rsatilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Odatda, bunday yuksak mavqega xonning yaqin va ishonchli kishilari, qarindoshlari, yirik qabila boshliqlari, harbiy yurishlarda o'zini ko'rsatgan o'zbek sultonlari muyassar bo'lgan. Xonlikni chegaralari doimiy bo'lmay tez-tez o'zgarib, kengayib yoki qisqarib turgan.

2. Shayboniylar davlati harbiy qo'shin va soliq tizimi

Mamlakat siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida yirik sarkardalar, qo'shin boshliqlarining o'ri katta edi. Ichki va tashqi xavfni bartaraf

etishda, yangi yerlarni bosib olish uchun qilinadigan istilochilik yurishlarida qo'shinlarning soni, harbiy tayyorgarligi, qo'shin boshliqlarining qo'mondonlik mahorati katta ahamiyat kasb etardi.

Shayboniylar qo'shini asosan otliq va piyoda askarlardan tashkil topgan. qo'shin urishda o'q-yoy, uzun, nayza, qilich, gurzi, uzun dastali jang boltasi (tabarzin), changak kabi asosiy hujum qurollaridan foydalangan. Abdullaxon II davrida qo'shin Xorijdan keltirilgan pilta miltiqlar bilan qurollantirilgan. Shayboniylar qo'shinida navkarlar himoya uchun qalqon (sipar)dan foydalanganlar, hamda temir simdan mayda qilib to'qilib, usti ipak va baxmal mato bilan yopilgan sovut-jovshan (forscha baxtar) yoki jiba (jeva) - temir yoki po'latdan ishlangan maxsus kiyim kiyib jang qilganlar. Abdullaxon II davrida Yevropadan keltirilgan jovshan (sovut) ham bo'lgan. Urushda yaroq va o'q o'tmasligi uchun otlar ustiga maxsus yopinchiq gejm (kejim) yopishgan.

Qo'shin tarkibida naftandozlar, manjaliqchilar va tosh otuvchilar ham bo'lib, ular shahar va mudofaa qo'rg'onlarini egallashda katta o'rin tutgan. XVI asrning 2-yarmidan boshlab Abdullaxon II qo'shinida chet ellardan keltirilgan kichik zambaraklar paydo bo'ladi.

Qo'shin tarkibi, uning jangovor saflanishi, jang qilish tartibi, Chingizxon va Amir Temur qo'shinlari harbiy tuzilishi, urish taktikasiga asoslangan bo'lib, unga Shayboniyxon davrida ko'chmanchi o'zbeklarga xos bo'lgan bir qancha yangi jang usullari kiritildi (To'lg'ama).

Shayboniylar qo'shini asosan, qalb (kavl) deb ataluvchi markaziy qism, barong'or (o'ng qanot) va javong'or (so'l qanot) qismlaridan hamda xirovul (qo'shinning orqa qismi)dan tashkil topgan. Ularga xonning o'zi va tajribali o'zbek sarkardalari boshchilik qilgan.

Qo'shinning qanotlariga boshchilik qilgan sarkarda o'g'lon deb yuritilgan. Qo'shini oldida manglay (avangard) deb ataluvchi harbiy qism yarim doira shaklida saf tortib borgan. Uning oldida esa tez harakatlanuvchi kichik jangovor qism - ilg'or bo'lgan. Shayboniylar qo'shinida umumiy qism oldida boruvchi «qoravul» deb atalgan maxsus qism, qo'shinining o'ng va so'l qismlari oldida boruvchi «kichik» g'o'l deb yuritilgan bo'linmalar va ortidan boruvchi maxsus yordamchi bo'linma - chanoh bo'lgan.

Qo'shin tarkibida tug'chi qism, ya'ni bayroq ostida ehtiyotda turuvchi (tug'ni qo'riqlovchi) 20-30 ming kishilik jangovor harbiy bo'linma hamda zabongilari - ya'ni dushman tomonidan yashirin

ravishda "til" tutib keluvchi maxsus bo'linma va xabarchi - dushman to'g'risida umumiy ma'lumot keltiruvchi bo'linmalar ham bo'lgan.

Harbiy yurishlar paytida xon uchun rasmiy qabul marosimlari o'tkaziladigan maxsus joy - bargoh hozirlashgan.

Qo'shinda saralangan o'zbek navkarlaridan tuzilgan xonning qo'riqchilari ham katta rol o'ynagan.

Shayboniylar qo'shini ham Chingizxon va Amir Temur qo'shinlaridek 10 minglik korpuslar - tumanlarga bo'lingan. Unga no'yon deb ataluvchi harbiy sarkarda boshchilik qilgan. Tumanlar o'z navbatida minglik, yuzlik, o'nliklarga bo'lingan.

Qo'shinni jangga hozirlash, ularning maoshini to'lash va boshqa tashkiliy ishlar bilan maxsus amaldor - tavochi shug'ullangan.

Qo'shinni qurol-yarog' bilan ta'minlashga ma'sul bo'lgan amaldorlar - jevachi bo'lib, u xonning qurol-aslahalariga ham javobgar bo'lgan.

Harbiy amaldorlar va navkarlarga xazinadan beriladigan -yillik maoshdan tashqari harbiy yurishlar paytida qo'lgan kiritiladigan o'ljadan ham berib turilgan.

Shayboniylar davrida 40 dan ortiq turli soliq va jarimalar mavjud bo'lgan. Soliq to'lovchi aholi fuqaro (raiyyat) deb yuritilgan va ulardan soliqlardan tashqari jarimalar ham undirib olingan.

Yerdan olinadigan asosiy soliq xiroj bo'lib, u ishlab chiqarilgan mahsulotning 5/1 miqdorida pul yoki mahsulot bilan olingan.

Zakot solig'i savdogarlar va chorvadorlardan olinib, uning hajmi 40/1 miqorida bo'lgan.

Shahar aholisi, hunarmandlar va do'kondorlar maxsus soliq - tamg'a to'laganlar. Yirik boylar va sudxo'rlarga tegishli savdo rastasida do'konlarni ma'lum haq evaziga ijaraga olib, o'z mahsulotlarini sotganligi uchun taxti joy (tagjoy) deb ataluvchi soliq to'langan.

Boshqa dinga mansub savdogarlar o'z mahsulotlarining 5/1 qismini juzya solig'i tarzida to'laganlar.

Bu davrda yana ixrojt, tog'ar, ulufa - ko'nalg'a, begar, madadi lashkar, boj, tansuqot, tuxfa va boshqa soliqlar mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi butun o'rta asrlar davriga xos edi. Raiyyat soliqlarni to'lashdan tashqari turli ishlarga mudofaa inshootlarini, sug'orish tarmoqlarini tiklash kabilarga majburan jalb etilgan.

3. Shayboniylar davlati huquq tizimi

Xonlikda jinoyatni aniqlovchi va jazo beruvchi asosiy mahkama islomiy shariat qonun-qoidalariga asoslanib tutuvchilar qozilik idoralari

edi. Davlatdagi Oliy sudya qozi kalon bo'lib, viloyatlardagi jinoyatlarni jazolash viloyat qozilari qo'lida edi. Oliy jazo-o'lim hukmini faqat xonning maxsus farmoni bilan amalga oshirganlar. Aybdorni aniqlashda shariat qonunlariga asosan ikki kishi guvohiligi yetarli bo'lgan. Viloyatlarda, tumanlarda jinoyat ishlarini viloyat hokimi nazoratida mahalliy qozilar olib borgan. Jinoyatchilarga gunohiga qarab o'lim jazosi, ma'lum muddatga (ko'p-chilik hollarda umrbod) zindonga tashlash, tan jazosi berish (darra urish, barmoqlarini kesib tashlash), saziy qilish, qoziqqa o'tkazish kabi jazo choralari ham qo'llanilgan. Aybdorlarga jazo berish ko'pincha bozor oldida maxsus maydonda - aholi ko'z o'ngida amalga oshirilgan.

harbiylar sodir etgan jinoyatlar va jazo turlari maxsus har-biy sudyalari qozi askar va mufti askar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Mol-mulk bilan bog'liq jinoyatlar, o'g'irlik shariat qonunlariga rioya qilmaslik uchun beriladigan jazolar turi ko'pincha amal-dorlarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lib ma'lum jinoyatlar uchun aniq jazo oldindan belgilab qo'yilmagan.

Bu davrga oid hujjatlarda (Joybor shayxlari arxivi, Samarqand qozilik idorasi hujjatlari) fuqarolik ishlari, huquqiy ma'muriy jinoyatlar, tartib buzarlilar va ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Masalan: Buxorodagi Katta Foziyon va kichik Foziyon madrasasiga tegishli hujjatlarda (1535) madrasada o'qish va hujrada yashash tartib-qoidalarini buzgan talabalarga quyidagi jazo choralarini ko'rilishi qayd etilgan. Agar talaba darslarga bir oy sababsiz qatnashmasa uni hujradan mahrum qilishgan, agar talaba dangasaligi tufayli darslarni yaxshi o'zlashtira olmasa yoki bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'ta olmasa unga nafaqa to'lash bekor qilinib, hujara tortib olingan.

Ruzbexon Isfaxoniyning «Mehmonnomai Buxoro», «Suluk al-muluk» «Podsholarning xulq atvorlari» asari (15 bobdan iborat).

Savollarga javob tariqasida yozilgan bo'lib, davlat ishlarida, musulmonlar bilan o'zaro munosabatlarda, dorug'alar tayyorlashda, xiroj, ushr, juzya kabi soliqlarni yig'ib olishda nimalarga asoslanish lozimligi va Shayboniyxonlar davlati haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

4. Qo'qon xonligi davlat boshqaruv tizimi

Ma'muriy-hududiy tuzilishi va aholisi. XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib, bu davrda

Norbo'tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni o'z itoatiga kirgizib, ularni Qo'qonga bo'ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg'ilon viloyatlari vodiydagi eng katta mulklar edi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi yerlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki - viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan tilga olinadi. Uning hududlariga Ohangaron, Chinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo'ylaridagi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan. Bu mulkning hokimlari manba va hujjatlarda hokim, hukmdor, voliy, noib atamaları bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo'jand, O'ratepa va Jizzax atrofidagi yerlarga ham ketma-ket yurishlar qililib, 1817 -yilda O'ratepa bosib olinadi. Muhammadalixon davrida xonlikning hududlari yanada kengayadi. Bu davrda xonlik shimolda Rossiyaga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g'arbda Xiva va Buxoro amirligi bilan, janubda Qorategin, Darvoz va undan uzoqroqdagi yerlar -Shug'onon, Ro'shon va Vaxon (bu hudud Qo'qonga nomigagiga qaram bo'lgan) Ko'lob bilan, sharqda Qashg'ar bilan chegaralangan. Xonlik yerlariga Sirdaryo bilan Qorategin O'rtasida joylashgan Farg'ona hududlari, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Namangan, Xo'jand va boshqa shaharlar, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida joylashgan Qurama viloyati, Turkiston, Sirdaryoning quyi oqimidan to Balxash ko'ligacha bo'lgan qirg'izlar yashaydigan yerlar, ko'chmanchi qirg'izlar yashaydigan Billur tog'ining sharqiy etaklari, 1830 -yildan boshlab g'arbiy etaklari ham kirgan.

XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi beklik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy - hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo'qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darhon. "Туркистанские ведомости" (1876, №13) to'plamida esa Asaka, Marg'ilon, Baliqchi O'sh, So'x, Koson va O'zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi. Hokimlar va hududiy bo'linma boshliqlari xon oilasi a'zolari, unga yaqin guruhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda etakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun: Xudoyorxon davrida yettita beklik xonning o'g'illari va yaqin qarindoshlari tomonidan boshqarilgan. O'z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o'zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berganlar. Qo'qon xonligining ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimida bek (hokim, voliy)

va uning o'rdasi alohida o'rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan hokim va qozi ko'plab vakolatlarga ega bo'lgan. Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi tizimi Movoraunnahrdagi o'rta asrlardagi davlatlar boshqaruv tizimiga juda o'xshash bo'lgan.

Xonlikda mutlaq huquqlarga ega bo'lgan va qadimgi odatlarga ko'ra, saylanib qo'yiladigan xon cheklanmagan huquqlarga ega bo'lib, u harbiy-ma'muriy, diniy amaldorlar yordamida davlatni boshqargan. Dastlabki hukmdorlar «biy» unvoni bilan hokimiyatni boshqargan. Olimxon davridan (1805) esa «xon» unvoni bilan yuritila boshlagan.

Xon saroyida Muhim ishlarni ko'rib chiqadigan Kengash tuzilgan bo'lib, unga "mingboshi" boshchilik qilgan. A'zolari dasturxonchi, risolachi va yana ba'zi Muhim amaldorlar bo'lgan. Davlatni boshqarishda bu Kengashning ham o'rni katta edi. Saroy amaldorlari ichida ming boshi (bosh vazir) va amiri lashkar (harbiy vazir), qush-begi - xon maslahatchi yoki viloyat hokimi, parvonachi (xon maslahatchisi), shig'ovul, xudoychi xonning yordamchisi, tunqator, xon yotog'i posboni, tundan topshiriqlarni bajaruvchi, noib (sarbozlar boshli-g'i) otaliq, dodxoh, mextar boshi, dasturxonchi, to'qsoba, devonbegi, mirzaboshi, sarkor va boshqa Muhim amaldorlar hisoblanganlar. Ular o'z xizmatlari evaziga maosh va tegishli yer mulklari olishgan.

Mansablardan amirlashkar va mingboshilikka bir kishi tayinlangan.

Bulardan tashqari shariat, sud ishlariga oid mansabdor muddaris, Shayx ul islom (rais), Oliy sud- qozi-ul kuzot, qozi-kalon bosh qozi, katta qozi, qozi askar, maxsus qozi, a'lam (huquqiy-maslahatchilar boshlig'i), mufti va boshqa mansabdorlar bo'lgan. Bu mansablarni ishga tayinlash va faoliyati ustidan nazorat qiluvchi mansabdor shaxs "shig'ovul" deb atalgan.

Qo'qon xonligidagi barcha mansablar uch toifaga oliy, o'rta va past darajalarga ajratilgan.

Qo'qon xonligining asosiy hududini Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati, Xo'jand, O'ratepa, Janubiy Qozog'iston va hozirgi Qirg'iziston Respublikalari tashkil qilgan. Xonlik ma'muriy jihatdan bekliklarga bo'linib boshqarilgan. Ularning ko'pchiligi turli davrlarda xonlik tarkibiga kirib chiqib turgan. Asosiy bekliklar sifatida Namangan, Marg'ilon, Andijon, To'raqo'rg'on, O'sh, O'ratepa, Xo'jand, Toshkent, Turkiston, Chimkent va boshqalar bo'lgan. Bekliklar xon tomonidan tayinlanadigan hokim - qushbegi tomonidan boshqariladigan, kichik ma'muriy birliklar amin va oqsoqolliklarga bo'lingan.

5. Xiva xonligi davlat boshqaruv tizimi

Xiva xonligi xon tomonidan saroy amaldorlari yordamida boshqariladigan, yakka hokimlikka asoslangan davlat bo'lib, xonlikdagi eng yuqori unvon xon bo'lib, u siyosiy, harbiy va diniy hokimiyatga ega edi. Xon va boshqa amaldorlarning mansabi bu xonlikda meros tariqasida avloddan avlodga o'tgan.

Xon davlatni boshqarishda harbiy ma'muriy, harbiy va diniy amaldorlarga tayangan, xonlikdagi mansab va unvonlar 3 toifaga bo'lingan.

Xondan keyingi eng katta nufuzga inoq, otaliq va biylar unvonlarga ega bo'lgan. Ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lib, davlatning siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, harbiy, hayotini nazorat qilgan.

Inoq – vazirlik, xondan keyingi birinchi mansabdor bo'lgan. Davlat hokimiyatining markazlashuvi va kuchayishi natijasida XIX asrning birinchi yarmidan boshlab inoqlarning ahamiyati pasayib, qushbening ta'siri orta boradi. Qushbegi asosan, xonning barcha yorliq va farmonlari uchun javobgar, o'troq aholiga boshchilik qilish, soliqlarni davlat xazinasiga tushib turishi ustidan nazorat olib borgan. Mehtar esa xonlikning moliya ishlari hamda uning Shimol-dagi o'troq aholisini boshqarishga rahbarlik qilgan.

Xonlikning siyosiy iqtisodiy hayotida ulardan tashqari naqib, amir-ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklarbegi, devonbegi, parvonachi, dasturxonchi, eshik og'asi, shotir, yasavulboshi, udaychi, mingboshi, mirobboshi va boshqa mansabdorlar ham Muhim o'rin tutgan. Diniy hokimiyat Shayxulislom boshliq din peshvolari qo'lida bo'lgan. Mahalliy shayxlar Said ota Shayx avlodlari, Darvish shayxlari davlatdagi nufuzli diniy amaldorlar sirasiga kirar, barcha diniy mansablar ularning vakillariga berilar edi.

Barcha farmonlar, davlat ishlari, hujjatlar o'zbek tilida yozilardi. Dastlab xonlik ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, keyinchalik (XVIII asrning boshlari XIX asrning boshlaridan) davlatdagi asosiy ma'muriy birlik beklklar deb yuritila boshladi.

Bu davrda xonlik 16 ta beklklar va 2 ta noiblikdan iborat bo'lgan. Ular Xozarasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna Urganch, Qo'shko'prik, Gitraq, Fazovot, Qiyot, Shobboz, Shovot, Toshhovuz, Ambarmanaq, Urganch, Xo'jayli, Shumanay va Qo'ng'iro't beklklari hamda Beshariq, Qiyot-Qo'ng'iro't –noibliklaridan iborat bo'lgan.

Bu beklklar va noibliklarni xon tomonidan tayinlanadigan *beklar va noiblar* boshqargan. Xiva shahri esa xon va bosh vazir (inoq) tomonidan boshqarilgan.

Inoqlar ta'siri kuchaygan davrda ulardan 5 kishi a'zo bo'lgan. Xon Kengashi ham bo'lib, u maslahat organi hisoblangan.

Xonlikning o'troq aholi qavmlar bir masjidga birlashgan bir guruh aholi bo'lib, uning boshida saylanib qo'yiluvchi *oqsoqol turgan* qavmlar eng boshling'ich soliq va ma'muriy birlik bo'lgan. Xonlikdagi shaharlarni idora qilish hokimlar va ularning yordamchilari -- yuzboshi va oqsoqollarga topshirilgan.

Xonlik tarkibiga kirgan qozoq va qoraqalpoq aholisini biylar, turkmanlarda esa vakil va bek boshqargan. Bir necha avlodga birlashga urug'larni biylar boshqargan u otaliqga, ular esa beklar begiga bo'ysungan.

Xonlikda asosiy sudlov ishlarini qozilik idoralari tomonidan amalga oshirilgan. qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, oliy shaxs xon bo'lib, og'ir jinoyatlarni o'zi ko'rib hal qilgan. Undan keyingi o'rinda Bosh sudya – qozikalon turgan. Xonlikdagi barcha viloyat, tuman kasaba, shaharlarda xon tomonidan tayinlangan qozilar bo'lib, ular o'z yordamchilari – muftilar yordamida mulkchilik bilan bog'liq mojarolarni hal qilish, mayda jinoyatlarni ochish va shu kabi ishlar bilan shug'ullangan. Viloyatlardagi jinoyatlarni ko'rib chiqishda mahalliy hokimning ishtirok etish huquqi bor edi. qishloqlardagi mayda mojarolarni qishloq oqsoqollari tomonidan hal qilinardi.

Aybdorlarga nisbatan o'lim jazosi, tana a'zolarini (barmaq, qo'lini) kesish, kaltaklash, mol-mulkini musodara qilish, jarima solish va boshqa jazo choralarini tayinlanardi.

Xonlik hayotida Muhammad Rahimxon I (1806-1825) tomonidan o'tkazilgan siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy islohotlarining ahamiyati katta. Islohotlarga ko'ra xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash ta'sis etilgan, soliqlar tartibga solinadi. Ularning muntazam ravishda yig'ilishi tufayli xazina daromadlari oshib boradi.

Bojxona tashkil etilib, tashqi savdodan keladigan daromadlar ko'paytirilgan. Ichki muomala uchun oltin va kumush tangalar zarb etilgan. Orolliklar- qoraqalpoqlar Xiva tarkibiga qo'shilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:
1. Dashti Qipchoq hududlarida XIV asrlardagi siyosiy hayotning asosiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

2. Shayboniyxon Movarounnahrni bosib olguncha temuriylar bilan qanday munosabatda bo'lgan?
3. Boburning tarix sahnasidagi o'rni.
4. Shayboniylar davlatida amalga oshirilgan islohotlarning mohiyati?
5. Shayboniylar davlatining inqirozi sabablarini ochib bering.
6. Ashtarxoniyning hokimiyatni egallash jarayoni qay tarzda ro'y berdi?
7. Qaysi xonlar ashtarxoniy sulolasi orasida alohida o'ringa ega deb
8. Xiva inoqlarining hokimiyatdagi ta'siri oshib borishiga qanday shart — sharoitlar ta'sir ko'rsatdi?
9. Qo'ng'irotding Xiva xonligi taxtiga kelishi qanday natijalarga olib keldi?
10. XVI — XIX asr boshlarida Xiva xonligi iqtisodiy ahvol qay tarzda mavjud bo'lgan?
11. Xiva xonligi iqtisodiy hayotida tashqi savdning ahamiyati qanday edi?
12. Xiva xonligidagi soliq va yig'imlar Buxoro xonligidagi soliq va yig'imlardan nimasi bilan xususiyatlanardi?
13. Qo'qon xonligi hududi, aholisi, etnik tarkibi haqida qanday ma'lumotlarga ega bo'ldingiz?
14. XVIII asrda Qo'qon xonligida ichik kurashlarning kuchayishini nimalarda ko'rish mumkin?
15. XVIII asrda Qo'qon xonligining ijtimoiy — iqtisodiy ahvoli qanday holtada edi?
16. XVIII asrda Qo'qon xonligi madaniyatining taraqqiy etishi jarayonlarini ko'rsatib bering.
17. XVIII asr va XIX asr boshlarida Toshkent bekligining siyosiy mavqei va aholisi haqida nimalarni bilasiz?

9. MAVZU. TURKISTONDA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKA BOSHQARUV TUZUMINING QAROR TOPISHI

Reja

1. O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi davrida . Turkiston o'lkasida davlat boshqaruv tizimining o'zia xos xususiyatlari .
2. O'lkaning uyezdlarga bo'linishi. 1886 -yilgi "Turkiston o'lkasining boshqarish haqida nizom" va boshqaruvning kuchayishi.

Tayanch so'z va iboralar. Mustamlaka boshqaruv usuli, Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi, Angliya raqobati, ingliz josuslari, Zirabuloq jangi, Gandimiyon shartnomasi, Turkiston general-gubernatorligi, "Muvaqqat Nizom", harbiy va fuqarolik hokimiyati, harbiy komendant, biy, oqsoqol, rais, qozi, boshqaruvchi, "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizom", ma'muriy-hududiy bo'linish, markaziy boshqaruv, viloyatlar, uyezd (tumanlar) lar, uchastka (volost) lar, shahar, qishloq, ovul boshqaruvi, viloyat boshqarmasi.

Turkistonni bosib olish masalasi rus podsholari va imperatorlarini doimo diqqat markazida bo'lgan. Turkistonni Rusiyaga qaram qilish uchun to'g'ridan to'g'ri amaliy ochiq harakat Petr I davridan boshlandi. U o'zining sharqqa nisbatan tajovvuzkorlik siyosatini, Markaziy Osiyo va Hindiston yerlariga suqlanib qarayotganligini yashirib ham o'tirmadi. «Sharq bilan aloqada Qirg'iziston tasarrufi kalit va darvoza hisoblanadi. Shuning uchun, millionlab so'm sarflansa ham Qirg'izistonni bo'ysundirish yoki hech bo'lmasa, u yerda Rusiya ta'sirini o'rgatish zarurdir.» Petr I o'z fikrlarini amalga oshirish uchun amaliy tadbirlarni ishlab chiqdi. O'zining tajovvuzkorlik siyosatini amalga oshirish maqsadida 1717 -yilda knyaz Bekovich-Cherkaskiy katta qo'shin bilan yuboradi. Biroq bu harakatga Xiva xoni Sherg'ozixon uzil kesil chek qo'yadi. Ammo Rusiya hukmdrolari o'z niyatlarini amalga oshirish maqsadida, 1717 -yilda Omsk, 1718 -yilda Semipalatinsk, 1720 -yili Ust-Kominagorsk, 1720 -yilda Orenburg harbiy qal'alari qurildi.

XVIII asrning o'zida chor ma'murlari yovuz niyatlarini amalga oshirish uchun hozirgi Qozog'iston hududlarida 46 ta katta, 96 ta kichik harbiy qal'alar qurganlar. Shunday qilib, 1839-1840 -yillarda podsho Nikolay I ning buyrug'i bilan Orenburg harbiy gubernatori A. Perovskiy katta qo'shin bilan Xivaga qarab yo'lga chiqdi. Ammo u orqaga qaytishga majbur bo'ldi. Turkiston yerlarini bosib olishning yangi to'lqini 1847 -yilda boshlandi. Shu -yili Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyi Qo'qon xoniga qarshi Raim harbiy qal'a egallandi va ruslar o'zini Orol harbiy qal'asi barpo qilindi 1852 -yili rus qo'shinlari Oq machitni (Qizil o'rda) egallandi, jang 22 kun davom etdi.

Turkistonni bosib olish masalasi podshoh Aleksandr II tomonidan 1859-1861 -yillarda o'tkazilgan saroy kengashida muhokam qilindi va birinchi navbatda Qo'qon xonligini bir yoqli qilish va unga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilindi. Shu tariqa, 1864 -yildan g'arbdan Veryovkin, sharq tomondan Chernyaev qo'shinlari urush harakatlarini boshlab yubordilar. Shu tariqa Toshkentni 1865 -yil 15 iyunda zabt,

1865 -yil 17 iyunda Toshkent Rossiya imperisiyaning tarkibiy qismiga aylanganligini haqidagi bitimga imzo chekildi.

1868 -yil 22 iyunda Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida sulh bitimi imzolandi. 1873 -yil 12 avgustda Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan Kaufman o'rtasida Gandimiyon qishlog'ida sharnoma imzolandi va Xiva xonligi Rossiyani vassaliga aylantirildi. 1876 -yil Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon bostirildi (1873-1876 y.) va Rossiya imperatori Aleksandr II farmoni bilan, Qo'qon xonligi tugatilib, Farg'ona viloyati tuzilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Viloyatga esa, Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi. 1877-1885 -yillar davomida Oloy vodiysida, Qizil Arovat, Ashxobod, Marv bosib olindi va 1895 -yilda Pomirdagi chegaralar belgilangan. Angliya, Afgoniston hukumatlari bilan shartnomalar tuzildi va O'rta Osiyo Rossiyaning to'la mustamlakasiga aylandi.

O'rta Osiyoni bosib olgan Rossiya oldida, bu o'lkani boshqarish, idora qilish usulini ham ishlab chiqishdek tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi. Rossiya harbiy vaziri D. Milyubid va podsho maslahatchisi, V. Girs 1867 -yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi» haqida qonun loyihasini tuzdilar, u Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi va Amaliy kuchga kirdi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, o'lkada mutloq hokimiyat uning qo'liga o'tdi. General gubernatorlik kengashi va To'rto'q bo'limidan iborat mahkama tuzildi.

1-bo'lim. Ma'muriy va nazorat,

2-bo'lim. Moliyaviy va xo'jalik,

3-bo'lim. Soliqlar va shaharlar mablag'lari ishlarini boshqargan.

4-bo'lim. Maxsus bo'lim deb atalgan.

General gubernator bir vaqtda podshoh noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror bo'lgan. u Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperatori agentligi orqali, Xiva xoini esa Amudaryo bo'limi boshlig'i orqali nazorat qilib turgan. Turkiston general gubernatorligi viloyatlarga, viloyat uyezdlarga, uyezdlar uchastkalariga bo'lingan. Viloat harbiy gubernatorligiga, general darajasidagi, uyezd boshlig'iga kapitan darajasidagi zobitlar tayinlangan. Mazkur tuzilmaning negizi-o'zagi uyezd bo'lib, uning boshlig'i general-gubernator tomonidan tasdiqlangan va katta vakolatga ega bo'lgan. Uyezd boshlig'i ma'muriy, politsiya, harbiy hokimiyatni o'zida birlashtirgan. Odamlarga jarima solish, 7 kunga hibsdan saqlash mumkin bo'lgan, shu boisdan uni «hokim to'ra» deb ham atashgan.

Qishloqlarni boshqarish uchun uchastka boshlig'iga bo'ysinuvchi bo'lis (volost) va ovul, ma'muriy boshqaruvi joriy etildi. Tub yerli aholi orasidan bo'lus boshqaruvchisi (oqsoqol yoki mingboshi) qishloq oqsoqollari—(yuz boshi, ellik boshi, o'n boshi) hamda ovul oqsoqollari, ularning o'rinbosarlari saylanadigan bo'ldi. Ammo, bu mahalliy aholi vakillari ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lganlar. Toshkent shahrini boshqarish Nizomi ishlab chiqildi va u 1877 -yili Sank -Peterburgda maqullangach, kuchga kirdi. Nizomga ko'ra—shahar dumasi va boshqarma saylandi. 3000, 1000, 500 so'mlik mulkka ega bo'lganlarga saylov huquqiga ega bo'ladi xolos. Ushbu mablag'i bo'lmaganlar saylov huquqidan mahrum edilar.

Duma – farmoyish beruvchi organ bo'lib, uning Rossiyaliklardan saylangan oqsoqollar boshqargan.

Hokim – noiblardan saylanuvchi shahar boshqarmasi tashkil etadi, ijro etuvchi hokimiyat organ vazifasini bajaradi.

O'lkada tashkil etilgan politsiya va sud idoralari ham mustamlakachilik tartibini mustahkamlashga, mahalliy aholini har qanday norozilik harakatini bo'g'ish va bostirishga qaratilgan edi. Chorizmning ma'muriy idora usuli o'lkani iqtisodiy o'zlashtirish, aholini ma'naviy jihatdan tobelikda saqlash, ruslashtirish siyosati bilan uyg'unlashtirilgan edi.

Xulosa shuki: Rossiyaning mustamlakachilik siyosati; 1) Markaziy Osiyo xalqlarining milliy davlatchiligimizdan mahrum qildi; 2) ularni taraqqiyotning umum sivilizatsiya jarayonlarida mustaqil ishtirok etish yo'llarini kesib qo'ydi; 3) jamiyatning ijtimoiy jarayonlariga jiddiy zarar yetkazdi.

II masala. 1917 -yilning 15-22 noyabrida Turkiston o'lkasi ishchi, Askar va dehqon deputatlari sho'rosining III s'ezdida Turkistonni boshqaradigan bolsheviklardan iborat hukumat idoralari tashkil topdi. Ya'ni o'lkada hokimiyatining siyosiy xarakteri va strukturasi turdi. Ushbu qurultoy qarorlari to'la to'kis shovinistik va millatchilik ruhi bilan bitilgan qarorlar qabul qildi. Avvalo, Turkiston o'lkada Xalq Komissarlar sho'rosi raisi etib, shovinist F. I. Kolesov, uning o'rinbosari qilib Zeleski saylandi.

Qurultoyda Komissarlik (vazirlikka to'g'ri keladi) lavozimlari ham quyidagicha taqsimlandi. hammasi bo'lib 14 komissarlikni tashkil qiladi.

- 1) temir yo'llar Pochta va telegraf komissari – Kolesov
- 2) Xalq maorifi komissari – Permezskiy

3) Oziq-ovqat ishlari komissari – Domogatskiy

4) Tashqi ishlar komissari – Perefilov

5) Mehnat komissari – Poltaratskiy

6) Savdo vasanoat komissari – Lyapin

7) Dehqonchilik komissari – Chegodaev va hakoza

Ushbu hukumat tarkibiga birorta mahalliy millat vakillaridan kiritilmadi. Ular mahalliy xalqning na tilini, na dinini, na madaniyatini, na milliy urf-odatlarini, bu yerda asrlar osha tarkib topgan tarixiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini bilmas edilar. Ayniqsa, bu o'lkada jahonga tanilgan Fan va diniy ta'lim maskani bo'lib aniq va dunyoviy fanlar yo'zasidan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan allomalarni eshitmaganlar. Bu hol keyinchalik o'lkada Sho'rolar hokimiyati «tartib qoidalarini» o'rnatish chog'ida o'zining eng yaramas va jirkanch qiyofasini ko'rsatdi. Chunki bu Yevropadan yuborilgan tasodifiy rahbar unsurlar mahalliy shart sharoitlar bilan hisoblashmadilar. Turkistonda ulug' rus shovinistik siyosatini zo'rlik yo'li bilan davom ettirdilar. Zo'rlik va xalqlarni ezishga qaratilgan sovet rejimi o'zining ilk davridan boshlab Turkistondagi tub xalqlarga nisbatan mustamlakachilik siyosatini yuritdi. Chor Rossiyasini mustamlakachilik tizimi sobiq sovet Rossiyasi davrida yanada takomillashtirildi.

O'lkada «sovet avtonomiyasi»ni bevosita tashkil etishni RKP(b) MK va RSFSR XKM Turkistonning favqulodda vakolati berilgan P. A. Kobozev zimmasiga yuklandi. V. I. Leninning vakili Toshkentga 1918-yil aprel oyining boshida yetib keldi. 20 aprelda Turkiston sovetlarining V s'ezdi ish boshladi. U respublikaning rasmiy maqomini tasdiqlash lozim edi. 1918 -yil 20 aprel kuni tegishli sinfiy mezonlar asosida saylangan s'ezd delegatlari «Rossiya sovet federatsiyasining Turkiston sovet Respublikasi haqida Nizom»ni qabul qildilar. Unda sotsialistik davlatchilik tuzilishining asoslari belgilab berilgan edi. Ushbu hujjatga muvofiq Turkiston o'lkasining butun hududi uning geografik chegaralarida, Buxoro va Xivani istisno qilgan holda, «Rossiya federatsiyasining Turkiston respublikasi» deb e'lon qilindi va u «avtonom» tarzda boshqarilib, RSFSR Markaziy hukumatini tan oladi hamda o'z faoliyatini markaziy hukumat bilan muvofiqlashtiradi, deb belgilab qo'yildi.

Nizom markaziy va mahalliy davlat organlarining mavjud tuzilmasi va funksiyalarini mustahkamlab qo'ydi: 1) ishchi soldat, dehqon deputatlari Sovetlari s'ezdi Turkiston Respublikasining oliy

qonun chiqaruvchi organi, 2) markaziy ijroiya qo'mita doimiy oliy qonun chiqaruvchi organ, 3) Xalq komissarlari sovet ijroiya organi, 4) sovetlar va ularning ijroiya qo'mitalari – joylardagi hokimiyat deb e'lon qilindi.

Shunday qilib, Turkiston muxtoriyatida mujassam bo'lgan o'ziga xos milliy davlatchilikni siqib chiqarish g'oyasining lenincha strategiyasidan kelib chiqqan holda, «sovetlar asosidagi avtonomiya», «milliy o'z taqdirini o'zi belgilash»ning sovet varianti deb e'lon qilindi. Amalda u tub joy aholiga amaldagi suverenitetni bermadi, o'lkaning «sotsialistik markazga qaramligiga yo'naltirilgan edi.» Buni «Rossiya sotsialistik sovet federatsiyasining Turkiston Respublikasi Konstitutsiyasi» tasdiqlar edi. Unga muvofiq mudofaa, tashqi aloqalar, pochta telegraf, dengiz ishlari, temir yo'llar, bojxona, savdo-sanoat va moliya sohalari, federal hukumati qo'lida bo'lishi alohida aytib o'tilgan. Mahalliy aholining rasmiy e'lon qilingan «avtonom huquqlari» faqat tashviqot maqsadini ko'zlar edi. Mahalliy millat vakillaridan chiqqan davlat arboblari – Turkiston ASSR XK Kengashi raisi K. Otabaev, TKP MQ kotibi N. To'raqulov, TASSR MIK raisi – Rahimboboev, F. Xo'jaev, A. Ikromovlar Turkistonda yuz berayotgan siyosiy xatoliklarni ro'y-rost tanqid qildilar. Biroq ularni barchasini repressiya qilindi. Shunday qilib, oktabr to'ntarashidan keyingi dastlabki -yillar, sotsializm to'la va o'zil kesil g'alabasiga, rivojlangan sotsializm deb atalgan - yillarda ham sovet sotsialistik davlatchiligining faol tarzda zo'rlab tiqishtirilishi davri bo'ldi. Milliy davlat o'z taqdirini o'zi hal etishdan iborat qonuniy huquqidan mahrum qilinganligi O'zbekiston jamiyati turli qatlamlarining kuchli ijtimoiy va davlat tuzimini joriy etishga muvofiq bo'ldi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya impeiyasi tomonidan bosib olinishining asosiy sabablarini aytib bering.
2. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy ma'muriy boshqaruv tizimi nimalarga asoslangan edi?
3. Turkiston general-gubernatorligida politsiya va sud hokimiyatining asosiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
4. Turkiston general-gubernatorligida shaharlar boshqaruvi tartibi qanday edi?
5. Turkiston general-gubernatorligida agrar siyosatidan ko'zlangan maqsad?

6. Sho'rolar tuzumi davridagi davlatchilik masalalarida yuzaga kelgan ziddiyatlarni aytib bering
7. XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasining ma'muriy tuzilishi qanday edi?
8. Fevral demokratik revolyutsiyasi Turkiston o'lkasini siyosiy sharoitiga qanday ta'sir qilgan?
9. «Shuroi Islomiya»ning maqsad va vazifalari nimadan iborat?

10. MAVZU: TURKISTON MUXTORIYATI MILLIY DEMOKRATIK DAVLATCHILIKNING DASTLABKI TAJIRIBASI

Reja

1. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi.
 2. Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi
 3. Turkiston Muxtoriyatining bolsheviklar tomonidan tugatilishi
- Tayanch so'z va iboralar.** Sho'roi Islomiya, Sho'roi Ulamo, Muvaqqat hukumat, Turkiston komiteti, qurultoy, Xalq Komissarlari Soveti, markaziy hokimiyat, Turkiston muxtoriyati, Milliy majlis, Turkiston o'lka musulmonlar sho'rosi.
- 1917 -yil 27 fevralda Petrogradda demokratik inqilob g'alaba qozonib, Rossiya imperatori Nikolay II taxtdan ag'darib tashlandi. Bu inqilob Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Xususan, Turkiston jadidlari, ziyolilari va islom ulamolarining tashabbuslari bilan 1917 -yil martida "Sho'roi Islomiya", 1917 -yil iyulida "Sho'roi Ulamo", 1917 -yil iyulida "Turk Adami Markaziyati" ("Turk federalistlari partiyasi"), 1917 -yil sentyabrda "Ittifoqi musulmin" kabi siyosiy partiyalar tuzildi.
- 1917 -yil 7 aprelda Petrograddagi Muvaqqat hukumat qarori bilan N.N. Shchepkin raisligida Muvaqqat Turkiston komiteti tuzildi. Ammo, 1917 -yilning aprel va sentyabr oylarida bo'lib o'tgan Butunturkiston musulmonlarining I va II qurultoylari Turkiston Muxtoriyati tashkil etish g'oyasini ilgari surib, hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlariga berishga qarshi chiqdi. 1917 -yil 20 sentyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston va Qozog'iston musulmonlarining qurultoyidagi asosiy masala Turkiston o'lkasining siyosiy tuzumini belgilash edi. O'sha davrdagi manba tili bilan aytganda "Qurultoy. Turkiston Muxtoriyatini tayin etishga jazm qildi". Qurultoy muxtoriyatga "Turkiston Federativ Respublikasi" degan nomni qo'yib, parlament respublikasi asosida tuzilajak bo'lg'usi davlat tuzumining

bosh tamo-yil va me'yorlarini belgilab berdi. Afsuski, bu rejalar amalga oshmadi.

1917 -yil 25 oktyabrda (yangi sana bilan 7 noyabrda) V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar(kommunistlar) Petrogradda Muvaqqat hukumatni ag'darib tashlab, hokimiyatni zo'raonlik bilan egalladilar. Toshkent shahrida 28 oktyabrda boshlangan qurolli to'qnashuvlar 1 noyabrda Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasini qamoqqa olish bilan yakunlandi. Turkiston bolsheviklari o'lkadagi butun hokimiyatni qo'lga olish uchun shafqatsiz kurashga kirishdilar. Demokratik kuchlar esa bu holga qat'iy norozilik bildirdilar.

1917 -yil 13-17noyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan shahar o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarining Turkiston o'lka s'ezdi qatnashchilari hokimiyatni to'laligicha bolsheviklar qo'lga o'tishiga keskin qarshilik ko'rsatishdi. S'ezd hokimiyat masalasiga oid quyidagi rezolyusiyani qabul qildi: "Turkistonda hokimiyatni ishchi, dehqon va soldat deputatlari qo'lga o'tishi bilan hokimiyat masalasidagi munozara shunday xulosaga keldi: 1.Rossiya inqilobi ko'targan xalqning ozodligi, tengligi, do'stligi shiorlari ostida Turkiston aholisining 98 foizini tashkil etuvchi, 10 mln. sonli musulmon aholisi milliy-madaniy o'z-o'zini boshqarishning barcha huquqlariga ega; 2.Musulmonlarining o'z taqdirini o'zi belgilash va umuminsoniy taraqqiyotiga bo'lgan qiziqishi Qur'on va SHariat qonunlaridan o'z-gacha bo'lishi mumkin emas. Musulmonlar inqilob natijasida qo'lga kiritgan huquqlarni amalga oshirar ekan Rossiyadagi siyosiy partiyalarning birontasi tarkibida faoliyat ko'rsatishi va ularning partiyaviy kurashlarida qatnashishi mumkin emas. Lekin, Rossiya fuqarolari bilan umumiy jamiyat manfaatlarini hisobga olib mamalakatni Ta'sis majlisiga olib boruvchi hokimiyatni qo'llab-quvvatlashi maqsadga muvofiqdir;

3. Butun Rossiya doirasida hokimiyat qanday tuzilishidan qat'iy nazar musulmonlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqlarini mahalliy sharoitni yaxshi bilgan, musulmonlarning urf-odatlarini va yashash sharoitlari bilan yaxshi tanish bo'lgan, xalqning xohish irodasiga ko'ra yangicha hayot tartiblarini joriy qila oladigan kishilardan iborat mahalliy hokimiyat orqali amalga oshirishlari mumkin. Shuning uchun mahalliy hokimiyat birinchi navbatda musulmon vakillaridan, ma'lum miqdorda boshqa siyosiy tashkilotlarda faoliyat ko'rsatuvchi, lekin musulmonlarga xayrixoh bo'lgan vakillardan tashkil topishi kerak;

4.Hokimiyatni mahalliy aholi manfaatlarini uchun tasodifiy va

begona bo'lgan harbiylar, ishchilar va dehqon(krestyan)larning mayda guruhlari qo'lidagina to'planib qolishi demokratik prinsiplarga mos emas va mahalliy aholini o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lidagi erkin harakatlariga kafolat bera olmaydi. 1917 -yil 15-22 oktyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III s'ezdida 15 kishidan iborat hukumat - Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti tuzildi. Unda 8 ta o'rin so'lsyerlarga, 7 ta o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berilib, hukumat tarkibiga tub aholi vakillaridan bitta ham vakil kiritilmadi. XKS raisi lavozimini F.Kolesov egalladi. Turkistonda hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tishi bilan o'lkada Muvaqqat hukumatning barcha bo'g'inlari tugatilib, o'rniga avvalo jazo organlari va sovet boshqaruv tizimi o'rnatildi.

Turkiston XKS 1917 -yil 28 noyabrda o'lkada qizil gvardiya bo'linmalarini tuzish haqida qaror qabul qiladi. Bu bo'linmalar Sovet tuzumi va bolsheviklarga qarshi ko'tarilgan dastlabki ongli chiqishlarni bostirishda faol ishtirok etdi. Turkiston XKS 1917 -yil oxirlarida o'z qarori bilan "Sho'roi islomiya" va boshqa mahalliy demokratik tashkilotlarni tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning rahbarlari keyinchalik Turkiston Muxtoriyati hukumatiga qo'shildilar, ayrimlari istiqolchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qildilar. "Sho'roi Ulamo" tashkilotining Toshkent sho'basi faqat 1918 -yil 13 mayda yopib qo'yildi. Turkiston o'lkasi XKS o'zining tuzilishi va boshqaruv apparatlari jihatidan tubdan farqlanuvchi hukumat edi. Turkiston XKS tarkibiga kirgan 15 ta komissarlik o'lkadagi boshqaruv ishlarini butunlay qamrab olgan bo'lib, boshqaruv tizimining farqli tomoni shunda ediki, Turkiston XKS tashkil topgan paytdayoq Rossiyadagi Markaziy hukumatni tan oldi. Chunonchi, Turkiston XKS raisi F.Kolesov Petrograddagi XKS nomiga yuborgan telegrammada quyidagicha ta'kidlagan edi: "Komissarlar Soveti o'z oldiga sizning hamma dekretlaringizni amalga oshirish vazifasini qo'ydi... Bizning to'la-to'kis qo'llab quvvatlashimizni hisobga olishingizni so'raymiz".

Tadqiqotchilarning (Q.Rajabov, M. Haydarov) fikricha, Turkiston o'lkasi yangi hukumati o'sha kunning o'zida (1917y. 23 noyabr-Sh.G.) aholiga qilgan murojaatida ham o'zining asl maqsadlarini yashirib o'tirmadi. Murojaatda ham telegrammada bo'lgani kabi quyidagilarga alohida urg'u berilgan edi: "Xalq Komissarlari Soveti markaziy

hokimiyatning barcha dekretlarini og'ishmay amalga oshiradi va o'z faoliyatida s'ezdning ...qarorlariga amal qiladi. Bu topshiriqlarni bajarish yo'lidagi har qanday qarshilik sovetlar tomonidan keskin choralar ko'rish bilan kutib olinadi". Tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, Turkiston XKS o'z faoliyatining birinchi kunlaridan boshlab sovet siyosatini amalga oshirishga, Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini mustahkamlashga qattiq va astoydil kirishdi. Barcha mahalliy sovetlarga zudlik bilan qizil gvardiya tuzishga kirishish taklif qilindi. O'lka komissarligi tarkibida bo'lgan va boshqaruvda asosiy rol o'ynaydigan harbiy, tashqi savdo, shuningdek, pochta, telegraf va temir yo'llar boshqaruvi masalalari butunlay Rossiyadagi tegishli idoralarga berib qo'yilishi oqibatida Turkiston XKS ijrochi organga aylanib qoldi. Markazdan yuborilgan barcha mas'ul xodimlar, turli komissiya va tashkilotlar o'z siyosatlarini qo'g'irchoq organga aylangan o'lka XKS orqali yuritdilar.

1917 -yil oktyabr-noyabr oylarida Toshkent va Qo'qonda yuz bergan voqealar Turkistonda ijtimoiy-siyosiy harakatlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Qo'qon shahrida 1917-yil 26-28 noyabr kunlari Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yevropalik qismi vakillari ham qurultoyda teng huquqli bo'lib ishtirok etdilar. Qurultoyning 27-noyabr kuni qabul qilingan qarorida shunday de-yiladi: "Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy davlatning nomi aniqlanib e'lon qiladi". 28-noyabrda tashkil topayotgan davlatning nomi aniqlanib " Turkiston Muxtoriyati" deb ataladigan bo'ldi. Butunrossiya Ta'sis s'ezdi chaqirilgunga qadar hokimiyat to'la ravishda Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo'lida bo'lishi haqida qaror qabul qilindi. Muvaqqat kengash a'zolaridan 12 kishilik hukumat tuziladigan bo'ldi. Qurultoy jarayonida Turkiston Milliy Majlisi 32 kishidan iborat qilib saylandi. Turkiston Muxtoriyatining faol ishtirokchilari, hukumati tarkibiga muxtoriyatchilik harakatining faol ishtirokchilari jumladan, quyidagilar xukumat a'zolari bo'ldilar: 1. Muhammadjon Tinishboev -Bosh vazir, ichki ishlar vaziri, 2-chaqiriq Davlat Dumasining a'zosi. 2. Islom Sulton Shoahmedov (Shagiaxmedov) -Bosh vazir o'rinbosari, a'zosi, temir yo'l muhandisi.

Butunrossiya Musulmonlari Kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

3. Mustafó Cho'qay tashqi ishlar vaziri, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a'zosi, Turkiston o'lka Musulmonlar Sho'rosining raisi, huquqshunos.

4. Ubaydulla Xo'jaev (Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev) –harbiy vazir, Butunrossiya Musulmonlar kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

5. Hidoyatbek Yurg'uli (Yurali) Agaev –yer va suv boyliklari vaziri, agronom.

6. Obidjon Mahmudov –ozuq-ovqat vaziri, Qo'qon shahri dumasining rais o'rinbosari, jamoat arbobi

7. Abdurahmon O'rozaev –ichki ishlar vazirining o'rinbosari, huquqshunos.

8. Solomon Abramovich Gersfeld –moliya vaziri, huquqshunos.

Muvaqqat hukumat tarkibiga kirishi lozim bo'lgan qolgan 4 o'rin yevropalik aholi vakillari orasidan nomzodlar ko'rsatilishi uchun ularga ajratildi. Qurultoy tugagach, 1 dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a'zolari (barcha 8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnoma e'lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar, ular yakdillik va hamjihatlikka da'vat etilgan edi. Shuningdek, Turkiston Muxtoriyati hukumatining Milliy davlatchilikning qaror topishini jo'shqin muborakbod etib, matbuotda taniqli ma'rifatparvarlar, diniy, jamoat va siyosat arboblari birin-ketin chiqishlar qilib, Muxtoriyatni tabrikladilar. O'sha paytda chop etiladigan "Ulug' Turkiston" gazetasi sahifalari Qo'qon, Samarqand, Toshkent, Kaspiyorti viloyatidan Turkiston Muxtoriyatini qo'llab-quvvatlovchi xabarlar bilan to'lib toshgan edi.

Yangi hukumat faoliyati faqat Qo'qonda yoki Farg'ona vodiysida emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub yer aholisi tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlanganligi bois, Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq orasida katta e'tibor qozondi. Shuning uchun ham ma'rifatparvar Fitrat Muxtoriyat e'lon qilingan tunni "Milliy laylatulqadrimiz" deb atadi. Xalq ommasining qizg'in qo'llab-quvvatlashidan ilhomlangan Muxtor hukumat vakillari jadal faoliyat boshladilar. Dastlabki kunlardan boshlab Millat majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e'lon qilinib, yangi hukumat davlat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb etdi.

Bir nechta hukumat gazetalari o'zbek, qozoq va rus tillarida nashr etila boshlandi.

Shuningdek, hukumat milliy qo'shinni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratdi. Harbiy vazir Ubaydulla Xo'jaev ishtirokida o'tkazilgan ko'rik-parad vaqtida askarlar soni 2000 nafarga etgan. Bundan tashqari Qo'qonda Ergash qo'rboshi rahbarlik qilgan ikki mingga yaqin mirshablar ham bor edi. Yangi hukumat iqtisodiy sohada 30 million so'm miqdorida ichki zayom chiqarishni yo'lga quydi. Chunki gazetalarini nashr qilish, muxtoriyat qo'shinlarining ta'minoti hamda hukumatning ichki harajatlari uchun mablag' zarur edi. Shuningdek, yangi hukumat a'zolari ochlik girdobida qolgan Turkiston aholisiga Orenburg orqali g'alla keltirish muammosini hal qilish uchun ham amaliy qadamlar tashladi. Ammo, umumxalq tomonidan qo'llab-quvvatlangan Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan ma'qullanmadi. 1917 -yil 13 dekabrda Toshkentning eski shahar aholisi "Muxtor Turkiston uchun" shiori ostida tinch namoyish o'tkazdilar. Toshkent shahar sovetidagi bolsheviklar esa, shaharda qurolli kuch bilan tartib o'rnatishga buyruq berdilar. Natijada tinch namoyish qatnashchilari o'qqa tutilib, 16 kishi halok bo'ldi.

Shunga qaramasdan, Muxtoriyat hukumatini qo'llab-quvvatlash davom etaverdi. Xususan, 1917 -yil 26-30 dekabr kunlari Qo'qon shahrida bo'lib o'tgan musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlari I favqulodda qurultoyining ham asosiy masalasi Turkiston muxtoriyatiga munosabat masalasi edi. Butun Turkiston o'lkasidan 200 yaqin vakillar qatnashgan ushbu qurultoy 30 dekabrda Turkiston muxtoriyati hukumatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, Turkiston o'lkasi Xalq komissarlari Sovetiga ishonchsizlik bildirish haqida qabul qilgan deklaratsiyasida quyidagi fikrlar bor edi:

"Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti barcha aholi ayniqsa, musulmonlar hohish-istaklarining ifodachisi emasligi; Turkiston o'lkasi xalqlari irodasi ikki qurultoyda muxtoriyat e'lon qilinganida ifodalanganligi;

Turkistonda yagona hukumat organi butun musulmonlarning qurultoyida tashkil topgan va musulmon ishchi, askar va dehqonlarning qurultoyida to'ldirilgan Turkiston Muxtoriyati hukumati ekanligini e'tiborga olib, Musulmon ishchi, dehqon va askarlar qurultoyi Turkiston Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatni darhol Turkiston Muxtoriyati hukumati va Millat Majlisiga topshirilsin deb istak bildiradi".

Ta'kidlash lozimki, yangi davlatchilik barcha milliy guruhlarning

mutanosibliği prinsiplari, umumdemokratik va milliy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi asosida barpo etilgan edi. Yuqorida qayd etilganidek, Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati aholini oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj mahsulotlari bilan ta'minlash, o'z moliyaviy jam'arnasini yaratish, turli-tuman siyosiy partiyalar va harakatlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish vazifalarini hal qilish yuzasidan qizg'in harakatlarni amalga oshira boshlagan edi. Sovet hokimiyatidan farqli o'laroq, Turkiston Muxtoriyati hukumati qonuniy asosda tashkil etilgan edi. Turkiston Muxtoriyati hukumati keng musulmonlar ommasi va demokratik kayfiyatdagi evropalik aholining vakolatini olgan edi. Shuning uchun ham aytish mumkinki, Turkiston Muxtoriyati o'z taqdirini o'zi belgilagan xalq respublikasi edi.

Ammo, o'lka bolsheviklari Turkiston Muxtoriyati hukumati katta xavf deb qaradilar. 1918 -yil 19-26-yanvar kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulodda IV s'ezdida Muxtoriyatga butunlay salbiy munosabat bildirildi. Ushbu s'ezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror chiqardi. S'ezd bolsheviklar fraksiyasining Turkiston Muxtoriyati to'g'risidagi rezolyusiyasini qabul qildi. Ushbu rezolyusiyada Turkiston qonuniy hukumati munofiqlar haqida "qoraguruhchilar to'dasi" deb ataldi. Bu ham etmagandek, bu s'ezd bolsheviklarning tazyiqi ostida qonuniy kuchga ega bo'lgan, tub erli aholi manfaatlarining himoyachisi bo'lib maydonga chiqqan o'lkadagi ilk demokratik va xalqchil hukumat Turkiston Muxtoriyati ustidan shafqatsiz hukm chiqardi. 1918 -yil 30-yanvarda Turkiston XKS Muxtoriyat hukumati tugatish uchun harbiy harakatlar boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning "Dashnoqsutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan beshafqat qurolli drujinalaridan ham keng foydalandilar. 31-yanvar kunning ikkinchi yarmida boshlangan janglar bir necha kun davom etdi. Qon to'qilishini oldini olish maqsadida muzokaralar olib borish harakatlari natija bermadi. 1918 -yil 19-fevralda Qo'qon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari natijasida ag'darib tashlandi. Hukumat boshlig'i Mustafo Cho'qay shaharni tark etib, yashirinishga majbur bo'ldi. Vazirlarning ayrimlari halok bo'ldi, ayrimlari qo'lga olindi. Dahshatli janglar va talon-tarojlar natijasida 10000 qo'qonlik o'ldirildi. Turkiston Muxtoriyati hukumati ag'darilishi turkistonliklar tomonidan Rossiyaning Turkistonga nisbatan tajovuzkorona rejalarini mavjudligining

yangi dalili sifatida qabul qilindi va ular qo'llariga qurol olib o'z Vatanlarini bosqinchilardan himoya qilishga otlandilar. Bu bilan Turkistonda sovetlarga qarshi istiqbolchilik harakatiga asos solindi.

II. MAVZU: SOVETLAR ANDOZASI ASOSIDA TASSR. XXSR VA BXSRLARNING TASHKIL TOPISHI

Reja

1. Turkiston Avtonom Sovet Respublikasining tashkil topishi.
2. Xiva xonligining ag'darilishi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi.
3. Buxoro amirligining ag'darilishi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi.

Tayanch so'z va iboralar. Turkiston Respublikasi, o'lka konferensiyasi, Turkiston konstitutsiyasi, Milliy ishlar xalq komissarligi, "Sovet avtonomiyasi", Turkiston KP, Turkkommissiya, Turkiston Respublikasi to'g'risidagi nizom, Musbyuro, "Idorai mashrutiyasi", Amudaryo bo'limi, Favqulodda komissiya, Muvaqqat inqilobiy hukumat, XNK, Butunxorazm sovetlari, BXSRL, "YOsh buxoroliklar", demokratik kuchlar, Xalq Nozirlar Sho'rosi, muvaqqat harbiysiyosiy bitim, Buxoro Konstitutsiyasi, BSSR.

Turkistonda hokimiyatning faqat ishchilar va yevropalik millat vakillari qo'lida bo'lib qolishi o'lkadagi barcha demokratik kuchlarning hukumatga bo'lgan ishonchsizligini kuchaytirib yubordi. Bunga qarshi Markazdagi bolsheviklar hukumati chekka o'lkalari, shu jumladan Turkistonda ham "sovetcha asosdagi avtonomiya" o'rnatishga qattiq kirishdi. Bu vazifani amalga oshirish uchun Moskvadan ko'plab partiya va sovet xodimlari Turkistonga jo'natildi. Jumladan, P.A. Kobozev O'ra Osiyoning favqulodda komissari qilib yuborildi. 1918 -yil 20 aprel — 1-may kunlari Toshkentda Turkiston o'lkasi Sovetlarining V s'ezdi bo'lib o'tdi. Unda "proletar demokratiyasi"ga tegishli tamo-yillari bo'yicha tanlab olingan 251 deputat (shundan 120 tasi tub millat vakillari) ishtirok etdi. S'ezd kun tartibidagi asosiy masala Turkistonda Sovet mafkurasiga asoslangan bolshevikcha avtonomiya yaratish bo'ldi.

Sovetlarning V o'lka s'ezdi o'zining markaziy hokimiyatga tobeligini ochiq namoyon etib, Moskvaga sovet Rossiyasi siyosiy rahbariyatining "barcha inqilobiy shiorlari hayotga qat'iy tadbiiq etilishi" ta'kidlanib telegramma jo'natdi. Bunga javoban V.I.Lenin va I.Stalin zudlik bilan javob telegrammasi yo'lladilar. Unda quyidagi so'zlar bor edi: "...sovnarkom sizning sovetlar asosidagi o'lkaning avtonomiyasini

qo'llab-quvvatlaydi. Biz siz boshlagan ishlarni yoqlaymiz va butun o'lkani sovetlar tarmog'i bilan qoplaysiz, mavjud sovetlar bilan to'liq aloqada bo'lasiz deb to'liq ishonamiz".

S'ezd delegatlari Lenin va Stalinning ko'rsatmalari asosida 1918-yil 30 aprelda "Rossiya Sovet Federatsiyasi **Turkiston Sovet avtonom respublikasi**" haqida Nizomni qabul qildi. Ushbu Nizomda Turkistonda davlat qurilishi asoslari, uning hududi, oliy qonunchilik va ijroiya organlari, mahalliy organlar tuzilishi, vazifalari va ularning sovet Rossiyasi bilan o'zaro munosabatlari belgilab berildi. Ushbu Nizom Turkistonda avtonom respublika tuzilganligini qayd etib, unga muvofiq, Buxoro va Xivadan tashqari, Turkiston o'lkasining geografik chegaralaridagi butun hudud Rossiya sovet federatsiyasining **Turkiston Sovet Respublikasi** deb e'lon qilindi. "Nizom"da Turkiston Respublikasi avtonom ravishda boshqarilib, "o'z xatti-harakatlarini Rossiya Sovet Federatsiyasi markaziy hukumati bilan muvofiqlashtiradi", deb qayd etildi. S'ezdda "markaziy hukumat bilan o'zaro munosabatlarni belgilash uchun" besh kishidan iborat komissiya tashkil etish va Moskvaga yuborishga qaror qilindi.

S'ezd sovet Turkistonining qonun chiqaruvchi oliy organi — Markaziy Ijroiya Komiteti (Tur SIK)ni sayladi. 36 kishidan iborat bu komitetning yarmi bolsheviklar, yarmi so'l eserlar (18 tadan) edi. Ushbu komitet sovetlar s'ezdlari oralig'idagi davrda o'lkada oliy hokimiyat vazifalarini bajaruvchi oliy qonunchilik organi bo'ldi. Turkiston MIK raisi qilib Markazdan hukumatning favqulodda komissari P.A.Kobozev (hamrais qilib A.Salkin) saylandi. Shuningdek, Turkiston XKS tarkibiga 16 kishi (9 ta bolshevik va 7 ta so'l eser) kiritildi. Mahalliy millat vakillaridan to'rt kishi — S.Jo'raboev, S.Yusupov, Sh.Ostonboev va S.Azimboevlar Turkiston MIKga saylanib, S.Tursunxo'jaev sog'liqni saqlash xalq komissari sifatida hukumat tarkibiga kiritildilar.

1918-yil 17-25-iyunda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Turkiston bolsheviklarining o'lkalar konferensiyasi Turkiston kommunist-bolsheviklar partiyasining I s'ezdi deb nomlandi. O'lkadagi kommunistik guruhlar ushbu s'ezdda ilk marta tashkiliy jihatdan rasmiylashib, Rossiya KP (b) tarkibidagi Turkiston Kompartiyasiga asos soldi. S'ezdda 7 kishidan iborat Markaziy komitet saylanib, uning tarkibiga mahalliy kommunistlardan Nizomiddin Xo'jaev ham kiritildi. "Temir qonun", "po'latdek kuchli intizom", "diktatorlik vakolatlari" kabi sinfiy xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan Turkiston KP Rossiya KP (b)ga bo'ysunar edi. Turkiston kommunistlari Markaz bergan har

qanday topshiriqlarni so'zsiz ijro etishlari natijasida Turkiston o'lkasining Rossiyaga siyosiy va iqtisodiy qaramligi mustahkam asoslarda shakllandi.

Turkiston avtonom respublikasi sovetlarining VI favqolodda s'ezdi 1918-yil 5-14-oktyabrda g'oyaviy kurashlar jarayonida kechgan bo'lsada, unda Turkiston MIK maxsus komissiyasi tomonidan tuzilgan Turkiston avtonom Respublikasining **konstitutsiyasi** muhokamalanib tasdiqlandi. Yangi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzumni mustahkamlash maqsadida qabul qilingan ushbu konstitutsiya Turkistondagi quyidagi qonun kuchi bilan mustahkamlandi: tashqi ishlar, Xalq komissarliklarini qonun kuchi bilan mustahkamlandi: maorif, harbiy ishlar, ichki ishlar, adliya, mehnat va ijtimoiy ta'minot, pochta va telegraf, temir yo'l, dehqonchilik, oziq-avqat, davlat nazorati, millatlar ishlari, xalq xo'jaligi Markaziy kengashi.

Konstitutsiyaga ko'ra, ishchi, soldat va dehqon deputatlarining sovetlari Respublika mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanib, Turkiston avtonom Respublikasining tarkibida 5 ta: Sirdaryo, Yettisuv, Farg'ona, Kaspiy orti, Samarqand viloyatlari mavjud bo'lgan. S'ezdlar orasida viloyat (oblast)ijroya komiteti davlat hokimiyat organi bo'lib hisoblangan. Markazda va joylarda inqilobiy komitetlar (revkom) ham tuzilib, ular nazorat va reviziya (taftish) qilish, kengashlarni tarqatib yuborish kabi vakolatlarga ega bo'lganlar. Viloyat kengashlari va ijroiya komitetlari qoshida boshqaruv, harbiy, adliya, mehnat va ijtimoiy ta'minot, xalq maorifi, moliya, pochta va telegraf, yer-suv, oziq-ovqat, davlat nazorati, sog'liqni saqlash, kommunal sovet kabi bo'limlar ochilgan.

Konstitutsiyaga ko'ra, viloyatlar uyezdlarga, volost, shahar, qishloq va ovullarga bo'lingan. Uyezd, shahar sovetlari o'zlarining ijroiya komitetlari va bo'limlariga bo'lingan. Qishloq va ovul ijroiya komitetlari esa o'z bo'limlariga ega bo'lmagan. Rossiyaning Turkistondagi siyosiy hukmronligi, birinchidan, o'lkada sovetcha asosdagi avtonomiyaning o'rnatilishi bilan joriy etilgan bo'lsa, bu jarayonning ikkinchi bosqichi, davlat boshqaruvi konstitutsiya yo'li bilan markaziy federal hukumatga topshirilishini konstitutsiya yo'li bilan rasmiylashtirilishi bo'ldi. Zero, Turkiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-bob, 30-§ ilovasida yozilishicha, mudofaa, tashqi aloqalar, pochta-telegraf, dengiz ishlari, temir yo'llar, bojxona, savdo-sotiq, sanoat va moliya masalalari markaziy federal hukumat ixtiyorida qoldirilgan edi.

Achinarli tomoni shunda ediki, mahalliy aholining katta qismi o'lkaning davlat tuzilishini belgilab beruvchi asosiy hujjat bilan hech bo'lmaganda umumiy tarzda ham tanisha olmadi. Sababi, u mahalliy tillarda e'lon qilinmagan edi. Ushbu hujjatda sovetlarga xos "o'z taqdirini o'zi belgilash" Turkistondagi mahalliy aholining mustamlaka holatini o'zgartirmadi. Davlat hokimiyat organlarining tarkib topgan tuzilmasida, ularni shakllantirishning tor sinfiy tomonli sharoitida ular har qanday avtonomiyaning asosiy negizi bo'lgan huquqdan-milliy-hududiy birlik aholisining davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirilishi huquqidan foydalanish imkoniyatiga ega emas edilar. Tadqiqotchilarning fikricha, konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan "sovet avtonomiyasi" o'z mohiyatiga ko'ra milliy-hududiy birlik edi.

1919 -yilning mart oyida Turkiston respublikasi sovetlarining Favqulodda VII s'ezdi bo'lib o'tdi. Unga qadar 1918 -yil 10-avgustda (V o'lka s'ezdida) Milliy ishlar xalq komissarligi bo'yicha maxsus Nizom qabul qilingan edi. Ushbu Nizomga ko'ra, Milliy ishlar xalq komissarligida statistika, tashkiliy-tashviqot va madaniy oqartuv bo'limlari tashkil qilingan edi. Ammo, Turkiston hukumati a'zolaridan Kazakov, Uspenskiy, Salkin kabilar Turkiston MIK qoshidagi milliy ishlar seksiyasini tarqatib yuborishni so'rab VII s'ezdga loyiha taqdim etdilar. Ular mazkur seksiyani "millatchilikning bir ko'rinishi" sifatida baholadilar.

Shunga qaramasdan, milliy masaladagi murakkab vaziyatni hisobga olgan RKP (b) MK 1919 -yil 3-iyulda "Hokimiyatga mutanosib vakillik to'g'risida" degan qaror qabul qilishga majbur bo'ldi. Ushbu qarorda Turkiston mahalliy aholisining partiyaga mansubligi shart qilib qo'yilmasdan, ularni mutanosib ravishda davlat qurilishi ishlariga keng jalb qilish zarur deb ko'rsatilib, mahalliy aholining mol-mulkini majburiy ravishda davlat ixtiyoriga olishni (rekvizitsiya) to'xtatish vazifasi ham qo'yilgan edi. Turkiston respublikasi hukumati bu qarorni yashirishga harakat qilgan bo'lsa-da, shov-shuvlardan so'ng uni e'lon qilishga majbur bo'ldilar. Ammo, ushbu qaror bo'yicha e'tiborga molik biror-bir amaliy ish qilinmadi.

Sovetlar tuzumi Turkistondagi boshqaruvni tashkil etishda katta byurokratik apparatning paydo bo'lishiga zamin yaratgan edi. Biroq, tadqiqotchilarning fikricha, bolsheviklarning kadrlar masalasidagi siyosati nafaqat milliy sohada, balki uquvsizligi bilan ham ajralib turadi. Misol uchun: davlatning mas'ul lavozimlarida mutlaqo savodsiz odamlarning ishlashi tabiiy hol edi. Bu xodim bolsheviklar manfaatini

himoya qilishi kifoya edi. Undan tashqari, Turkistondagi oliy hokimiyat - Turkiston MIK, hukumat - Turkiston XKS, g'oyaviy rahnamo - Turkiston KP kabi o'lka boshqaruvida Muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlar mahalliy aholi ixtiyorida bo'lmagan.

1919 -yilning 8-oktyabrida V.Lenin Butunrossiya MIK va RSFSR XKSning Turkiston ishlari bo'yicha komissiya (Turkkomissiya) tuzish to'g'risidagi qarorini imzoladi. Bu komissiya tarkibiga Sh.Z.Eliava - rais, M.V.Frunze, V.V.Kuybishev, Ya.Rudzutak, F.I.Golosheykin, T.I.Bokiylar kirdilar. Ushbu komissiya juda katta vakolatlarga ega bo'lib, jumladan, Butunrossiya MIK va XKSning vakolatiga, Turkiston hududlarida va qo'shni davlatlarda ularning nomidan ish ko'rish huquqiga, RKP (b) MK nomidan respublikada oliy partiya nazorati va rahbarligini amalga oshirishga, o'lka partiya tashkilotlarini tarqatib yuborish, favqulodda s'ezdlar va konferensiyalar chaqirish hamda partiya MK qarorlarini qat'iy bajarishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni ko'rish huquqlariga ega edi. Ushbu komissiyaning asosiy maqsadi - mahalliy aholi manfaatlarini yo'lida ishlash emas, balki Turkistonda sovet hokimiyatining mavqeini mustahkamlash, imperiyaviy markaz bilan lenincha rahbariyatning go'yo "strategik to'g'ri yo'lini buzgan", yangi hokimiyatning maqsad va mohiyatlarini "buzib" ko'rsatgan mahalliy arboblar faoliyatini nazorat qilish hamda ular o'rtasidagi masofani uzoqlashtirishdan iborat edi.

Turkiston komissiyasi amalda mintaqadagi barcha partiya, sovet, xo'jalik va partiya tashkilotlariga rahbarlik qilib, Markazdagi bolshevikcha siyosatni qat'iy ravishda amalga oshirishga kirishdi. Turkkomissiya o'lkadagi butun hokimiyatni to'laligicha o'z qo'lida to'plab, faqat markaz manfaatlarini amalga oshiruvchi "davlat ichidagi davlat" vazifasini bajardi.

Sovet hokimiyatining Turkiston respublikasida hayotga tatbiq etgan dekret va qarorlari mahalliy xalqlarni mustamlakachilik asoratida tutib turish uchun xizmat qilgan edi. Xususan, Butunrossiya MIKning 1920 -yil 10-apreldagi "Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasi to'g'risidagi" qarorida, 1921 -yil 11-apreldagi "Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasini ta'sis etish to'g'risidagi" dekretida, RKP (b) MK 1920 -yil 19 iyunda qabul qilgan "Turkiston Respublikasi to'g'risidagi" Nizomda, umuman, RKP (b) tomonidan e'lon qilingan ko'plab dekretlar, chaqiriqlar, murojaatnomalarda ko'zda tutilgan xalqlarga erkinlik berish, o'z taqdirini o'zlari belgilash, ajralib chiqib mustaqil davlat tuzish huquqi o'rniga Turkiston o'lkasiga yarim huquq

va erkinliklar berish, uni Rossiya tarkibidagi avtonom respublika shaklida saqlash siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Turkiston o'lkasi mustamlakachilikning yangi "sovet" shakliga aylandi. Sovet hokimiyatining Turkistonda olib borgan mustamlaka boshqaruv siyosati hamda markazlashtirish harakatlari TSR boshqaruv organlarida faoliyat ko'rsatayotgan milliy rahbar xodimlarning kuchli noroziliklariga sabab bo'ldi. Milliy kommunistlar o'lkadagi bolsheviklar siyosatiga ochiqdan ochiq qarshi chiqq boshladilar. Milliy rahbar xodimlarining norozilik kayfiyatlarini yuzaga chiqishida 1919 -yil martda tuzilgan o'lkada Musulmonlar byurosi (Musbyuro) Muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunonchi, Qayg'usiz Otaboev, Yusuf Aliev, Abdulla Rahimboev, Sanjar Asfandiyorov, Nazir To'raqulov, Inomjon Xidiraliev kabi ko'plab milliy rahbar xodimlar Turor Risqulov raisligidagi Musbyuro atrofida birlashgan edilar.

1920 -yil yanvar oxirlarida Musbyuroning III konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu konferensiyada Turkistondagi uchta partiyaviy tashkilot - TKP O'lkada komiteti, Musbyuro va ajnabiy kommunistlar partiyasi yagona kommunistik partiyaga birlashtirildi. Konferensiya qarorida "Turkiston turkiy xalqlarining kommunistik partiyasi" deb rasmiy nomlangan ushbu partiya keng mehnatkashlar ommasining partiyasi bo'lishi, RKP (b) MKga nisbatan viloyat (o'lkada) komiteti huquqlaridan foydalanuvchi va unga bo'ysunuvchi o'z MK tomonidan boshqarilishi kerak edi. Shuningdek, konferensiyada T.Risqulov tomonidan Turkiston Sovet Respublikasi nomini o'zgartirib, uni **Turkiston respublikasi** deb atash taklif qilinganda bu taklif konferensiya ishtirokchilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Taklif etilgan Turk respublikasiga TSR dan tashqari qo'shni milliy respublikalarda (hoz. Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston davlatlari) yashovchi turkiy xalqlar kirishi kerak edi. T.Risqulov o'z ma'ruzasida Turkiston respublikasi Konstitutsiyasini qayta ko'rib chiqish, musulmonlarning alohida armiyasini tuzish hamda qizil armiyaning musulmon bo'lmagan barcha qismlarini Turkistondan olib chiqib ketish masalasini ham ko'targan edi. T.Risqulovning ushbu g'oyalari TKPning V o'lkada konferensiyasi (1920 -yil yanvar) da ham ma'qullandi. Musbyuroning III konferensiyasi "Turkiston muxtoriyati va Konstitutsiyasi haqidagi rezolyutsiya" qabul qildi.

XX asr boshlarida ham Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi hisoblangan Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv tizimi ruslar bosqiniga qadar shakllangan

holatda qolgan edi. Mamlakatda xon boshliq feodal amaldorlar, dindor ruhoniylar mamlakat boshqaruvida cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, iqtisodiy hayotda esa yerga egalik munosabatlari ham avvalgi holatdagidek saqlanib qolgan edi. Imperiya hukmronligi ta'sirida ko'pgina yuqori mansablar (inoq, otaliq, biy) oldingidek iqtisodiy asosini yo'qotgan bo'lsa ham, lekin yuqori unvon sifatida mamlakat siyosiy hayotida katta ta'sirga ega edi.

Xiva xonligidagi asosiy shaharlarga Xiva, Urganch, *Toshhovuz*, Hazorasp, Pitnak va boshqalar kirgan. Xonlik hududi Rossiya bosqinidan keyin 62.236 kv.km bo'lib, u 20 ta beklilik va 2 ta noiblikdan iborat edi. Aholi aniq ro'yxatga olinmagan bo'lib, bu davrga oid manbalarda, u 600 mingdan 900 mingga qadar ko'rsatiladi. Ularning 60 foizdan ko'prog'ini o'zbeklar, 28 foizini turkmanlar, qolganlarini qozoq, qoraqalpoq, fors (eroniy), arab, rus va boshqa millat vakillari tashkil etgan.

Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotda ancha orqada qolgan Xiva xonligida sanoat ishlab chiqarishi yo'q darajada bo'lib, bu yerda o'ndan ortiq paxta, yog' zavodlarigina bor edi. Aholining asosiy qismi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, kosibchilik va boshqalar bilan shug'ullangan. Xalq ommasining turmush sharoiti ancha og'ir bo'lib, ular hosildor yerlar, sug'orish manbalarini o'z qo'lida to'plab oigan amaldorlar va ruhoniylarga ko'plab soliqlar to'lab turganlar. O'sha davr manbalarida qayd qilinishicha, Xiva xonligida 20 dan ortiq soliq to'lovlari va majburiyatlar bo'lgan. Ayniqsa, Birinchi jahon urushi -yillarida soliq va to'lovlarning miqdori hamda turi yanada oshgan.

XX asr birinchi choragida butun Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi kabi Xiva xonligida ham xalq harakatining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati, jadidchilik g'oyalari tashkil etdi. Turkiston va Buxorodan farqli o'laroq, Xiva xonligidagi jadidchilik harakatining shakllanishida, harakatning asosiy yo'nalishi hisoblangan maktab maorif ishining taraqqiyotida Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz), qozikalon Salimoxun va uning o'g'li Bobooxun, vazir Islomxo'ja, mirzaboshi va devonbegi lavozimida ishlagan Pahlavonniyoz Komil Xorazmiy, Xonqa hokimi Muhammad va boshqalar katta rol o'ynadilar. Ular o'z hisoblaridan bir qancha maktablar ochishdi. Bobo Oxun Salimov do'sti Bekjon Rahmonov bilan bu maktablar uchun darslik kitoblarini ham yozishgan. Xonlikda jadidchilik harakatining shakllanishida Munis, Ogahiylar asos solgan va keyinchalik Bayoniy boshchiligida davom ettirilgan tarixchilik va

tarjimonlik maktabining mavjudligi, tarix va o'tmishga e'tiborning kuchliligi ham katta rol o'ynagan. Shuningdek, Turkiston va Buxorodagi kabi Xiva xonligida jadidchilik harakatining shakllanishida tashqi omil, ya'ni Rossiyadan kelgan ilg'or fikrli ziyolilar, inqilobiy ruhdagi surgun qilingan yoshlar va Rossiyadagi o'zgarishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Jadidchilikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan matbuot Xiva xonligi hududida mavjud bo'lmasa ham xonlikdagi ilg'or ziyolilar Turkiya, Eron, Rossiya, shuningdek, Toshkent Samarqand va Buxoroda chiqadigan jadid gazetalari va jurnallari bilan tanishib borganlar.

Xorazmdagi jadidchilik harakatidan 1914-yil avgust oyida Yosh xivaliklar tashkiloti tuzildi, unga rais qilib Polvonniyoz Hoji Yusupov (1861-1936) saylangan. Yosh xivaliklar harakatida bu davrda qozikalon Bobo Oxun Salimov (1874-1929)ning ham o'rni bo'lakcha edi. Yosh xivaliklar dasturining asosini mavjud tuzum doirasida islohotlar o'tkazish, maktab-maorif ishini yaxshilash, xon hokimiyatini cheklash kabi masalalar tashkil qilar edi.

Iqtisodiy qiyin sharoitda yashayotgan xonlik aholisining ahvoli boshlanib ketgan birinchi jahon urushi bois yanada og'irlashdi. Xonlik istibdodiga qarshi 1915-1916-yillarda turkmanlar Junayidxon boshchiligida qo'zg'olon ko'tardilar. Turkman, o'zbek, qozoq aholisining mavjud tuzumga qarshi kurashini Yosh xivaliklar partiyasi rahbarlari faol qo'llab-quvvatlashdi.

1917-yil fevral inqilobi paytida Xiva xoni Asfandiyorxon Yaltada dam olayotgan edi. Shuning uchun ham u Rossiya imperatorining taxtdan voz kechganini eshitgan zahoti xonlikka shoshildi. Asfandiyorxonni kutib olishga chiqqan davlat arboblari orasida Husaynbek Matmurodov, Polvonniyoz Hoji Yusupovlar ham bor edilar. Xiva garnizonidagi soldatlar ham xuddi Rossiyadagi kabi o'z sovetlarini tashkil qilishgan edilar. Ana shu sovetlarning faollaridan Latipov, Tinishov va boshqalarning tashviqotlari bilan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq Yosh xivaliklar 4-aprelda soldatlarning Muvaqqat hukumatga qasamyod qilishi uchun to'plangan tantanaga kishilarni yig'ib borib, soldatlardan Xiva xonini ag'darib tashlashni so'rashdi. Garnizon boshlig'i xonni taxtdan olib tashlamaslik talabi bilan Yosh xivaliklarga yordam berishga ruxsat berdi. 5-aprel kuni Asfandiyorxon rus soldatlari himoyasida saroyga kelib, xalq nomidan qo'yiladigan talab (manifest)ni imzolashga majbur bo'ldi. Manifestga asosan xon hokimiyati qoshida qonun chiqaruvchi organ - Majlis va Nozirlar kengashi tashkil etildi. Majlisning birinchi yig'ini 1917-yil 26 aprelda

bo'lib o'tdi. Unda Majlis raisi etib, Bobo Oxun Salimov, nozirlar kengashining raisi etib, Husaynbek Matmurodov saylandilar. Bu tashkil qilingan davlat organlari tarkibida Yosh xivaliklarning a'zolari ko'pchilikni tashkil qilar edi. Lekin keyinchalik Asfandiyorxon Xiva garnizoni boshlig'i general Mirbadalov va Zaytsevlarning yordami bilan Majlisdan Yosh xivaliklarning a'zolarini siqib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Turli bahonalar bilan Husaynbek Matmurodov va bir qancha Yosh xivaliklarni zindonga tashladi. Polvonniyoz Hoji Yusupov, Nazir Sholikorov, Bobo Oxun Salimov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobojon Yaqubov va boshqalar xonning ta'qibidan qutulish uchun To'rtko'l, Chorjo'y, Toshkent kabi shaharlarga qochib ketishdi. Bu paytda To'rtko'l va Toshkentda sovet hokimiyati o'rnatilgan edi. Sovet hukumati orqali Yosh xivaliklarning Asfandiyorxon, Zaytsev, Junayidxonlarga o'z hamfikrlarini zindondan ozod qilishni talab qilib, yuborgan bir qancha telegrammalari hech qanday natija bergani yo'q. Aksincha, oktyabr to'ntarishidan keyin Xiva shahridan rus askarlari olib chiqib ketildi va Asfandiyorxon o'zining harbiy tayanchidan mahrum bo'ldi. Bu 1916-yil qo'zg'olonidan keyin Eronga qochib ketgan Junayidxonning Xiva xonligiga qaytib kelishi va bu yerda katta mavqega ega bo'lishiga sabab bo'ldi. Chunki mingdan ortiq qurollangan sarbozlarga ega bo'lgan Junayidxon bilan xonning lashkarboshisi qilib Asfandiyorxon va uning atrofidagi a'yonlar bundan keyin hokimiyatni saqlab qolishga tayanchlari yo'q edi. Shuning uchun ham Asfandiyorxon Junayidxonni "sardori karim", ya'ni xonning lashkarboshisi qilib tayinladi. Shu bilan o'zi Junayidxon qo'lidagi qo'g'irchoq xonga aylanib qoldi. Xonlikdagi hokimiyat esa to'la ravishda Junayidxon qo'lga o'tdi. Toshkentga yetib kelgan Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq Yosh xivaliklar 1918-yil bahorida sovet hokimiyatining faollaridan biri bo'lgan Yusuf Ibragimovning maslahati bilan o'zlari to'rt kishi bo'lishiga qaramasdan Yosh xivaliklar partiyasining Markaziy Qo'mitasini tashkil qildilar.

1918-yil oktabr oylariga kelganda, Yosh xivaliklar ta'siri bilan Junayidxon va Asfandiyorxon o'rtasiga nizo solindi va buning natijasi o'laroq Junayidxonning o'g'li Eshshi tomonidan Asfandiyorxon qatl qilindi. Uning o'rniga akasi Sayid Abdulloxon xon deb e'lon qilindi. Junayidxon Xiva xonligi hududida bolsheviklardan mustaqil bo'lgan davlatni saqlab qolishga harakat qildi. 1918-yil noyabr oyida Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarda tashkil qilingan sovet hukumatiga qarshi Junayidxon bir necha marotaba muvaffaqiyatsiz

urush olib bordi. 1919-yil aprel oyida sovet hukumati bilan Junayidxon o'rtasida Taxta shartnomasi tuzildi. Unga sovet hukumati tomonidan Kristoforov, Xiva xonligi tomonidan Junayidxon imzo chekdilar. Bu vaqtinchalik kelishuv bo'lib, unga ikkala tomon ham amal qilmadi. Bu paytda To'rtko'lda mulla Jumaniyoz Sultonmurodov boshliq Yosh xivaliklar partiyasining qo'mitasi tuzilgan bo'lib, ularning soni Xiva xonligi hududidan qochib o'tganlar hisobiga kundan-kunga ko'payayotgan edi. Ularni sovet hukumati xivalik inqilobchilar deb, bolsheviklar partiyasi safiga qayd qilishgan. Mana shu Yosh xivaliklarning talablari va turkman urug'lari orasida Qo'shmamedxon, G'ulomalixon kabi urug' sardorlarining Junayidxon bilan kelishmay qolganligi haqidagi xabarni hisobga olgan bolsheviklar Skalov rahbarligida 1919-yil 22 -mustaqil davlat-Xiva xonligi hududiga bostirib kirdilar. 1920-yil 1-fevralda Junayidxon qo'shinlarini tor-mor qilgan qizil armiya Xiva shahriga kirib bordi. 2-fevral kuni so'nggi Xiva xoni Sayid Abdulloxon taxtdan voz kechdi.

Xivada Jumaniyoz Sultonmurodov rayisligida Muvaqqat inqilobiy qo'mita tashkil etildi. 1920-yil 26-30 aprel kunlari Xorazm mehnatkashlarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tib, unda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilindi va Polvonniyoz Hoji Yusupov rayisligida Xalq Nozirlar Sho'roi tuzildi. Bu hukumat tarkibiga asosan Yosh xivaliklar partiyasining a'zolari kirgan bo'lib, ular mamlakatda demokratik tuzumni o'rnatish, mustaqil davlatni barqarorlashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirdilar. Ana shunday ishlarning bittasi sifatida Bobo Oxun Salimov raisligidagi delegatsiyaning uch oy davomida Moskva va Petrograd shaharlarida bo'lib, 1920-yil 13-sentabrda RSFSR bilan XXSR o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy shartnomaning imzolanishi bo'ldi. Bu hujjatga asosan XXSR mustaqil davlat hisoblanib, sovet Rossiyasi bilan o'zaro teng va bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslikka kelishib olindi. Lekin XXSR hukumati rahbarlari olib borgan mustaqil siyosat sovet tuzumi va uning respublika hududidagi vakillariga yoqmasdi. Chunki Polvonniyoz Hoji Yusupov boshliq hukumat xususiy mulk, vaqf yerlarini, diniy muassasalarni tarqatib yuborish o'rniga ularni saqlab qolish va mustahkamlashga harakat qilayotgan edi. XXSRning Konstitutsiyasida ham xususiy mulk e'tirof etilgan edi. Bu narsa o'sha paytdagi sovet hukumatining Xorazmdagi vakillari Skalov, Ioffe, Dubyanskiy, Shokirov va boshqalarga yoqmasdi. Dubyanskiy va Shokirovlar 1920 -yil avgust oyida Qo'shmamedxon

G'ulomalixonlarni Xivaga chaqirib, ularni yigitlari bilan qatl qilishga va bu bilan mahalliy o'troq aholi va turkman chorvadorlari o'rtasida nizo tug'dirishga harakat qilishdi. G'ulomalixon qochib qutilgan bo'lsa ham, Qo'shmamedxon va uning yigitlari qatl etildi. Biroq bu holatlarning hammasi Yosh xivaliklar hukumati zimmasiga yuklatildi. Natijada, 1921 -yil 6 martda Xiva shahrida qizil askarlar tomonidan namoyish uyushtirilib, inqilobiy qo'mita tuzildi va Polvonniyoz Hoji Yusupov va boshliq hukumat a'zolari qamoqqa olindi. Polvonniyoz Hoji Yusupov va Nazir Sholikorovlar qochib yashirinishga ulgurishdi.

XXSRda kommunistlar olib borgan siyosat mahalliy kadrlarni, ziyolilarni, mustaqil fikrga ega bo'lgan insonlarni yo'qotishga qaratilgan edi. Xorazm respublikasi mavjud bo'lgan atigi 5-yilga yaqin muddat ichida respublika hukumati-Xalq Nozirlar Sho'rosi va Xorazm MIK raislari o'n martadan o'zgartirilganligi fikrimizning yaqqol isbotidir.

1920-1921-yillarda agrar sohada dastlabki o'zgarishlar amalga oshirilib, 10000 desyatina yer dehqonlarga bo'lib berildi. Bundan tashqari, ularga urug', dehqonchilik asboblari hamda ssuda (qarz) ajratildi. Dehqonlarga kredit hisobidan 5000 chorva mol sotildi. Eski sug'orish inshootlarini qayta tiklash bilan birga yangilari ham qurildi. Masalan, 1922-yil oxirigacha Xorazm dehqonlari Hazoraspdan Xo'jayligacha bo'lgan hududda 12 ta damba qurdilar. 1922 -yilda chorakor va kambag'allarga yer bo'lib berish uchun davlat yer fondi tuzishga hamda dehqonlarga uzoq muddatli va qaytarib olinmaydigan sudalar berish uchun davlat dehqonlar bankini ta'sis etishga qaror qilindi. Bankka 3 mlrd. so'm mablag' ajratilgan. Xullas, 1921-1922-yillarda 400000 tanobdan ortiqroq yer kambag'al dehqonlarga berildi.

XX asrda iqtisodiy siyosat va xo'jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Xorazm Respublikasidagi soliq siyosatida sovet Rossiyasining ta'siri kuchliroq bo'lganligi uchun sinfiy yondoshuv yaqqol nomoyon bo'ldi. Soliqning og'ir yuki savdogarlar, sudxo'rlar va yirik yer egalari zimmasiga to'g'ri keldi. Qishloq xo'jaligida yagona soliq tizimi (1922y. dekabr) joriy qilindi. Soliq to'lashni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida davlat banki va soliq palatasi tashkil qilindi. Yangi iqtisodiy siyosat (NEPning e'lon qilinishi bilan karvonsaroilar, kortexonalar, kullar va to'qaylar ijaraga berila boshlandi. Simlari tortilib, daryo kemachiligini tiklashga kirishildi. Bir qancha yirik ko'priklar qurildi. Paxta maydonlarining hududi 1921-yildagi 10000 tanobdan 1924-yilda 85000 tanobga, hosildorlik 100000 puddan 800000 pudga ko'tarildi. Umumiy ekin maydonlari 1913-yildagi darajaning 62 %ni,

hosildorlik 70-75 %ni tashkil qildi. 1924-yilga kelib, 6 ta paxta tozalash zavodi, 10 ta g'isht zavodi, yog' zavodi, bosmaxona, elektrostansiya tiklandi. Qog'oz va shisha zavodlari qurildi. Sanoatda davlat sektori ustivor mavqeni egalladi.

Hukumat madaniy-ma'rifiy va sog'liqni saqlash ishlariga ham katta e'tibor qaratdi. 1920-yil bahorida Respublikada yangi tipdagi maktablar tashkil qilina boshlandi. 1921-yil sentabrda Xivada ochilgan xalq dorulfununi respublika madaniy hayotida katta voqea bo'ldi.

Xorazm respublikasi tuzilgan davtlabki oylardan boshlab g'oyaviy-siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Yosh xivaliklar hukumati, demokratik kuchlar mahalliy sharoitni tushungan holda aholining urf-odatlarini va qadriyatlarini e'zozlab ish olib bordilar. Ammo Xivani bosib olish jarayonida kirib kelgan qizil armiya, uning qo'mondonlari, yevropalik bolsheviklar respublikadagi ijtimoiy-siyosiy hayotga salbiy ta'sir ko'rsatdilar. Ular mahalliy sharoitni, xalq ommasi kayfiyati va qarashlarini nazar-pisand qilmay tezkorlik bilan inqilobiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdilar. Bu ishlarni amalga oshirishda Xorazm Kompartiyasi (1921-yil dekabrda tuzilgan) ularning eng yaqin yordamchisiga aylandi.

Xorazm respublikasida keyingi -yillarda ham g'oyaviy-siyosiy kurash davom etdi. Respublikaning ko'plab rahbarlari mustaqillik uchun, adolatsizlikka qarshi kurashni to'xtatmadilar. 1923-yil bahorida savdo-sanoat noziri Nurullayev Moskvada RSFSR bilan bo'layotgan muzokaralarda qat'iylik ko'rsatgani uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi. Sovet Rossiyasining ko'rsatmalari asosida 1923-yil yoz-kuzida Xorazm respublikasida tub siyosiy to'ntarish amalga oshirildi. 1923-yil oktyabrda XXSR Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi (XSSR)ga aylantirildi. XSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Afsuski, bu Konstitutsiya mamlakatni sotsialistik qurilish yo'liga o'tishini qonun yo'li bilan mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, 1923-yil kuzidan boshlab Xorazm respublikasidagi demokratik o'zgarishlarga butunlay chek qo'yildi. Xorazmni sovetlashtirish jarayoni o'zining yuqori bosqichiga ko'tarildi. Bu holat 1924 -yilning oxirigacha davom etdi.

Buxoro amirligining ag'darilishi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi va undagi siyosiy o'zgarishlar

1917-yil Buxoro amirligi ham xuddi Xiva xonligi singari Muhim o'zgarishlar arafasida turardi. Bu davrda Buxoroda jadidchilik harakati va undan o'sib chiqqan Yosh buxoroliklar partiyasining faoliyati

kuchaydi. Yosh buxoroliklar 1910 -yildayoq o'zlarni alohida tashkilot sifatida e'lon qilgan edilar. Ular dastavval mavjud monarxiya tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsion monarxiyani o'rnatish orqali amirning mutloq hokimligini cheklab qo'yish tarafdori bo'lishgan. 1917-yil 7-aprelda Buxoro amiri Said Olimxon mamlakatda islohotlar o'tkazish to'g'risida farmon chiqarsa ham, amalda uni joriy qilmadi. Jadidlar Buxoro shahrida namoyish uyushtirganlaridan so'ng mamlakatda ularni yoppasiga ta'qib etish boshlandi.

Buxorodagi aprel voqealarining yakuni shu bo'ldiki, hukumatda konservativ kuchlar yana ustunlikka erishdilar. Said Olimxon qozikalon Sharifjon Maxdumni lavozimidan bo'shatdi, g'azablangan mutaassiblar rais Abdusamadxo'jani olomon qilib o'ldirdilar. Nasrullobek qo'shbegining buyrug'i bilan Yosh buxorolik jadidlarning mashhur namoyandasi Sadridin Ayniy va boshqalar 75 tayoq urib jazolandilar. Islohotchilik harakatining bu bosqichi mana shunday noxushlik bilan yakunlandi.

Oktabr to'ntarishidan keyin sovet Rossiyasi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Turkiston respublikasining bolsheviklardan iborat rahbariyati Buxoro amirligining davlat mustaqilligini rasmiy ravishda tan olishiga qaramay, amalda uning ichki ishlariga doimiy ravishda aralashib turdi.

Yosh buxoroliklar amirlik istibdodiga qarshi kurashni davom ettirdi. Partiya ichida turli guruhlarning borligi, qarashlarning xilligi tufayli yagona dastur tuzishga ehtiyoj tug'ildi. Markaziy qo'mita bu vazifani 1917 -yil noyabrda Fitratga topshirdi. Fitrat tomonidan 1918 -yil yanvarda yozilgan Yosh buxoroliklar partiyasining dasturi (programmasi) Markaziy qo'mita tomonidan tasdiqlandi va islohot loyihasi sifatida e'lon qilindi. Unda Buxoro mamlakatida konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish, Buxoroning iqtisodiy, siyosiy va harbiy mustaqilligini ta'minlash, madaniy taraqqiyotga erishish lozimligi, dehqonchilik va soliq tizimiga alohida e'tibor berildi. Buxoroda zamonaviy armiyani tashkil etish, 2-yillik majburiy harbiy xizmatni joriy qilish, davlat hisobidan maktablar va oliy o'quv yurtlari ochish zarurligi aytili. Loyihada Buxoroda 10 ta nozirlikdan iborat Nozirlar Sho'rosi tuzish taklif etildi. Keyinchalik Fayzulla Xo'jayev Fitrat loyihasining ancha cheklanganligini tanqid qilib, unda boshqaruvning respublika usulini joriy etish talab qilinmaganligini ko'rsatgan edi.

Turkiston XKS Buxoro davlatiga g'animlik qilib, amir hukumatini kuch bilan ag'darishga urindi. Bolsheviklar shu maqsadda Yosh buxorolik jadidlarni qo'llab-quvvatlashdi. 1918-yil mart oyida Turkiston o'lkasi XKS raisi F. Kolesov qo'mondonligidagi qizil askarlar mamlakat poytaxti Buxoro shahriga hujum uyushtirdilar. Ularning hujumi muvaffaqiyatsiz tugagan bo'lsa ham, Buxorodagi siyosiy tuzumni o'zgartirish uchun urinish to'xtamadi. Afsuski, Amir Olimxon mamlakat taqdiri hal qilinayotgan ushbu fursatda muxolifatdagi Yosh buxoroliklar partiyasi arboblari bilan til topisha olmadi. U mamlakatla konstitutsion monarxiya va demokratik tartibotlarni o'rnatmoqchi bo'lgan jadidlar-Yosh buxoroliklarni yo'qotish yo'lini tutdi. Fayzulla Xo'jayevning ta'kidlashicha, Kolesov voqeasidan keyin amir mamlakatda 3000 kishini qatl qilgan. Sadridin Ayniyning yozishicha, faqat poytaxt - Eski Buxoro emas, balki G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako'l, Chorjo'y, Xatirchi, Karmana, Qarshi, Shahrisabz bekliklarida ham minglab kishilar jadidlikda ayiblanib, nohaq o'ldirildi. Buxorolik jadidlarning tirik qolgan vakillari Samarqand, Toshkent va Moskvaga jo'nab ketishga majbur bo'lishdi. Yosh buxoroliklarning bir qismi 1918-yilning yozida Toshkentda Buxoro Kompartiyasini tuzishdi. Fayzulla Xo'jayev Moskvadagi muhojirlik davrida 1918-yil oktabrda Turkiston respublikasining RSFSR hukumati huzuridagi muxtor vakolatxonasi qoshida Yosh buxoroliklar partiyasining bo'limini tashkil qildi. 1920-yil yanvarda Toshkentda Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi inqilobchi Yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi tuzildi. Bolsheviklar Yosh buxoroliklardan amirlik hokimiyatini ag'darishda foydalandilar. Ular ham taktik maqsadlarni ko'zlagan holda bolsheviklarga yaqinlashishdi.

Yosh buxoroliklar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi 1920-yil 13-14-iyunda bo'lgan birlashgan konferensiyasida Fayzulla Xo'jayev tuzgan dastur (programma)ni qabul qildi. Dastur "Zulmga qarshi birlashingiz!" degan shior va kirish qismi bilan boshlanadi. Bu qismda Buxoroning umumiy ahvoli va kirish qismi bilan boshlanadi. Bu maqsadlari, ikkinchi qismida esa Yosh buxoroliklarning asosiy takliflari, islohot va mamlakatning idora qilishni tashkil qilish rejasi bayon etildi. Shariat-adliya ishlarini olib borishning negizi, deb quyidagicha e'tirof qilindi: "Shariat-adolatni talqin qiluvchi va kambag'allarni himoya etuvchidir". Dasturda amirlikni qurol kuchi bilan ag'darib tashlash va Buxoroni demokratik xalq respublikasi deb e'lon qilish talabi qo'yildi. Yosh buxoroliklar katta boylar qo'lidagi yerlarni

musodara qilish, bepul boshlang'ich ta'lim joriy etish, shuningdek, qishloq xo'jaligi, hunarmandlar sanoati, ichki va tashqi savdoning ahvolini yaxshilash yo'lida amaliy chora-tadbirlar ko'rish zarurligini ta'kidlashdi.

1920-yil 25-avgustda Turkiston fronti qo'mondoni M.V.Frunze qizil askarlarga *Buxoroni bosib olish uchun buyruq berdi*. Keskin janglardan so'ng 2-sentyabrda Buxoro shahri bosib *olinib Sayid Olimxon* hokimiyatdan ag'darib tashlandi. Qizil askarlar *Sharqning eng qadimgi shaharlaridan biri*, "Islom dinining gumbazi" va "sharif shahar" hisoblangan muqaddas Buxoroni vayron qildilar. Qadimiy Buxoro o't va xarobalar ichida qoldi.

Shafqatsiz o'q yomg'iri va bombardimon natijasida shahar obidalarining beshdan bir qismi vayron etilib, minglab begunoh odamlar nobud bo'lgan. O'sha davr voqealarining bevosita shohidi bo'lgan mahalliy tarixchi Muhammad Ali Baljuvoni o'zining "Tarixi Nofeiy" ("Foydali tarix") asarida qizil askarlar tomonidan qilingan Buxoro bosqini oqibatlarini quyidagicha tasvirlaydi: "Buxoroni bosib olish natijasida 34 guzar, 3000 dan ortiq do'kon, 20 ta saroy, Olimxon va Mir yonib xarob bo'ldi. Minorayi Kalonga ham zarar yetib, Olimxon va Mir Arab madrasalari yonib ketdi... Hazrati Imom darvozasidan Guzari Nazargacha, Kofirobod, O'g'lon darvozasi, Masjidi Kalon, Zindondan To'qimdo'ziy hammomigacha, minora ostidan to So'zangaron dahasi, Gul bozor, Lattafurushlar rastasi, Registondan to Puli oshiqonning boshigacha batamom yonib ketdi. Qarshi darvozasi ham yonib ketdi... Shaharda 3000ga yaqin hovli yonib kul bo'ldi. Buxoro shahri qariyb 20 kun yongandi. Buxoroning shu darajada xarob bo'lganini hech bir tarix ko'rmagan edi". Buxoroliklar bu kunlarni "kichik qiyomat" deb atashgan.

Shaharga kirgan qizil askarlar Arkdagi amir xazinasini, Buxoro qozikaloni, qo'shbeqi va boshqa amaldorlarning boyligini musodara qilganlar. askarlar va qo'shin rahbarlari katta boyluk orttirganlar. Hatto Frunze xazinadagi qimmatbaho boyliklarning bir qismini o'zi uchun saqlab qo'ygan. Turkiston harbiy-inqilobiy byuro "uchligi"ning a'zosi V.I.Leninga yozgan A.Mashitskiyning 1920 -yil sentyabrda "V.I.Leninga yozgan ma'lumotnomasida shahar markazi yakson qilinganligi, Registon va Ark yondirilgani, Ark yerto'lalari va omborxonalaridagi boyluklar-oltin, kumush, brilliantlar talangani, bunda qizil armiya bevosita qatnashgani haqida xabar bergan. Sentabr oyining boshida amirlik xazinasini va boshqa boyluklar ortilgan 2 eshelon yuk Samarqand va Toshkent orqali

Moskvaga yo'l oldi. Qariyb 15 sentabrgacha davom etgan Buxoro talovining guvohi bo'lgan Turkbyuro raisi o'rinbosari G.Safarov quyidagicha yozgan edi: "Buxoroga kelgan qizil qo'shinlar eng avvalo talonchilik bilan shug'ullandilar. Ular hammani va hamma narsani taladilar. Umuman qizillar Buxoroni talash uchun kelgan edilar". Buxoro shahridan so'ng qizil armiya 27 bekklik (ba'zi manbalarda 32 bekklik)ni ham birin-ketin egallab, Buxoro amirligiga barham berishdi.

1920-yil 14-sentabrda bo'lgan Xalq Nozirlar Sho'rosi, Revkom va Buxoro Kompartiyasi MKning umumiy yig'ilishida 9 kishidan iborat Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi (raisi-Abdulqodir Muhitdinov) va respublika hukumati - 11 kishidan iborat Xalq Nozirlar Sho'rosi (raisi-Fayzulla Xo'jayev) tuzildi. Mamlakatni boshqarish maqsadida tuzilgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi tarkibi quyidagicha edi: rais va xorijiy-tashqi ishlar (nozir-Fayzulla Xo'jayev), maorif (Qori Yo'ldosh Po'latov), doxiliya-ichki ishlar (Muxtor Saidjonov), moliya (Usmonxo'ja Po'latxo'jayev), davlat nazorati (Najib Husayinov), favqulodda komissiya (Cheka raisi-Yusuf Ibrohimov), adliya (Mukammil Burhonov), harbiy ishlar (Bahovuddin Shihobuddinov), yersuv ishlari-dehqonchilik (Abdulqodir Muhitdinov), savdo va sanoat (Mirzo Muhitdin Mansurov) nozirliklari. Bu paytga kelib inqilobchilik ta'sirida bo'lgan Yosh buxoroliklar partiyasi a'zolari Buxoro Kompartiyasi safiga kirishga majbur bo'lgan edilar. Ushbu o'rinda ta'kidlash joizki, asosan jadidlardan tashkil topgan Buxoro hukumati o'sha paytda ma'lumotli kishilar yig'ilgan hukumatlardan biri hisoblangan. Buxoro jadidlari o'zlarining islohotchilik g'oyalarini yangi hukumatdagi faoliyatlari davomida amalga oshirishga harakat qildilar.

1920-yil 6-8-oktabrda amiming yozgi saroyi-Sitorayi Mohi Xosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Bu davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrchilik an'analari meros qolgan amirlik Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi. Qurultoy davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi bo'lgan Buxoro inqilobiy qo'mitasi (Markaziy Revkom), Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi-dastlabki hukumat tarkibini uzil-kesil tasdiqladi. Ularning vakolat muddati II qurultoygacha uzaytirildi. 1920-yil oktabr-ahdlashuv va shartnoma tuzildi. 1921-yil 4-martda har ikki davlat o'rtasida Ittifoq shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomalar mustaqil

siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklashga olib keldi. Ittifoq shartnomasi mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo'shinlari turishini "qonuniy" asoslab berdiki, mazkur hol BXSR ichki ishlariga Rossiyaning to'g'ridan-to'g'ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshqa narsa emas edi.

Buxoro hukumati oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri yersuv masalasini hal qilish edi. 1920-yil 30-sentabrda Buxoro Markaziy Revkomi «Yer to'g'risida»gi dekretni qabul qildi. Dekretga muvofiq, sobiq amir unig qarindoshlari va amaldorlari qo'lidagi butun yer-mulk kambag'al va yersiz dehqonlarga berilishi kerak edi. Shuningdek, dekretga ko'ra, «xiroj», «amluk» va boshqa soliqlar bekor qilindi. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, faqat Eski Buxoro tumanlari va Chorjo'y bekkligida sobiq amir va beklarga qarashli 10000 tanob yer musodara qilinib, kambag'al dehqonlarga taqsimlab berildi.

Buxorodagi yangi tuzum va uning ijobiy chora-tadbirlarini aholi ma'qullab kutib oldi. Biroq yangi hokimiyat tomonidan mulkdorlar tabaqasiga nisbatan ko'rilgan qattiq choralar, ularga tegishli butun mulkning musodara qilinishi, saroy a'yonlari va amir amaldorlarining yoppasiga hibsga olinishi va otib tashlanishi amir xazinasining Moskvaga olib ketilishi, majburiy oziq-ovqat razvyorstkasi va uning qattiqqo'llik bilan amalga oshirilishi, islom dini va ulamolariga nisbatan dushmanlik siyosati, respublika hududida turgan qizil armiya ta'minotining aholi zimmasiga yuklatilishi, buning ustiga, qizil askarlarning bosqinchilik va talonchilik faoliyati haqqoniy ravishda xalqning kuchli noroziligiga sabab bo'ldi. Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ham keskinlashdi. Buxoroda amir hokimiyati, ag'darib tashlangan dastlabki haftalardayoq mamlakatning g'arbiy, markaziy va sharqiy qismlarida qizil armiyaning bosqinchilik siyosati va bolsheviklar zulmiga qarshi boshlangan qurolchilik harakati avj olib ketdi.

Yosh davlat yetakchisi Fayzulla Xo'jayev murakkab va og'ir sharoitda ishlashga majbur bo'ldi. Buxoro hukumati ichida siyosiy bo'linish kuchaydi. Bir tarafdin, Buxoro Kompartiyasi ichidagi so'l va o'ng kommunistlarga qarshi g'oyaviy jihatdan kurash olib borishga to'g'ri kelsa, ikkinchi tarafdin, RSFSR va uning favqulodda organlari bo'lgan Turkkomissiya, Turkbyuro, O'rta Osiyo byurosi yosh mustaqil davlatning bosgan har bir qadamini sergaklik bilan nazorat qilib turar edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan F.Xo'jayev, U. Po'latxo'jayev,

Otaulla Xo'jayev, Fitrat, Muinjon Aminov, Muxtor Sayidjonov, Sattor Xo'jayev, M.Mansurov, A. Muhitdinov va boshqalar hukumatda demokratik yo'l tutib, mo'tadil mavqeda turdilar. Ular BXS RNing amalda mustaqil bo'lishi, islohotlar o'tkazish zarurligini yoqlab chiqdilar.

1921-yil 18-23-sentabrda bo'lgan Butun Buxoro xalq vakillarining II qurultoyida demokratik ruhdagi BXS R Konstitutsiyasi qabul qilindi. Buxoro tarixidagi dastlabki Konstitutsiya fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun bilan mustahkamladi. Konstitutsiyada davlatni idora etish uchun xalqning barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta'minlandi. Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari unda o'z ifodasini topdi. BXS R Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquq berdi, milliy tengsizlikni yo'qotdi.

II qurultoyda Butun Buxoro MIK tashkil qilinib, uning raisi qilib Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (1887-1968) saylandi. 1922 -yil avgustda bo'lgan III qurultoyda bu lavozimni Porso Xo'jayev egalladi. Buxoro Respublikasidagi iqtisodiy siyosat va xo'jalik sohasidagi islohotlar ziddiyatli tarzda kechdi. Buxoro inqilobiy qo'mitasining 1921 -yil 2-fevraldagi dekreti hamma yerlarni umumxalq mulki deb e'lon qildi. Vaqf yerlari tugatildi, ayrim toifadagi xo'jaliklarning chorva mollari va mulklari musodara qilindi. Sug'orish tizimi izdan chiqdi. Ekin maydonlari qisqarib chorva mollarning soni kamayib ketdi. Shu bilan bir vaqtda ko'plab ijobiy ishlar ham amalga oshirildi. 1921 -yil kuzida yerni tortib olish bekor qilindi. BXS R MIKning umumiy avf to'g'risidagi 1922 -yil 25-may dekreti vaqflarni tugatishni to'xtatish, qozixonalar ishini shariat ko'rsatmalarini tiklash va boshqalarini e'lon qildi. O'sha yilning noyabr oyida yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ga o'tish e'lon qilindi. Buxoro davlat banki tuzilib, «pul islohoti» amalga oshirildi. Dehqonlarni moddiy rag'batlantirish choralari ko'rildi. Bu qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishiga olib keldi. 1923-yili sug'oriladigan yerlar maydoni 1913-yildagi darajaga yaqinlashib qoldi. Temir yo'l tiklanib, zavod va fabrikalar qaytadan ishga tushdi. Bu paytga kelib, Buxoro Respublikasida 19 ta korxonalar, 500 dan ortiq bozor ishlab turdi. Xususiy sarmoya 12000 savdogarlar mablag'idan iborat bo'ldi.

1923-yil mart oyida Turkiston, Buxoro va Xorazm iqtisodiy jihatdan birlashtirildi va uni boshqarish uchun O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi (SredAz EKOSO) tuzildi. BXS R hukumati raisi Fayzulla Xo'jayev O'rta Osiyoning iqtisodiy jihatdan birlashuvi to'g'risidagi

fikrni boshida qo'llab-quvvatlamadi. Chunki u iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish, hatto mintaqalar xalq xo'jaligi istiqbollari to'g'risida qaror qabul qilishgacha bo'lgan barcha ishlar markaz qo'liga o'tayotganligini eng avvalo sezgan va bu siyosatning mash'um oqibatlarini chuqur tushungan arbob edi. O'zi kuchli iqtisodchi bo'lgan Fayzulla Xo'jayev Buxoro tomonidan Rossiya va Turkistonga yetkazib beriladigan mollarga aniq tovar ekvivalentini belgilash zarurligi to'g'risida ayniqsa, tashvishlanib gapirar edi. Buxoro hududida joylashgan sovet Rossiyasi qo'shinlari Buxoro davlatining oziq-ovqati va yem-hashagi bilan ta'minlanar edi. Hukumat boshlig'i F.Xo'jayev Rossiya qo'shinlari sonini 15000 kishigacha qisqartirish to'g'risidagi masalani Moskva oldiga bir necha marta qo'ydi.

Biroq Buxoro respublikasidagi demokratik jarayonlarga mamlakat tashqarisidan tazyiq tobora kuchayib bordi. 1923 -yil 3-iyunda Buxoroga SSSR Qurolli kuchlarining Bosh qo'mondoni S.S.Kamenev, Turkfront Inqilobiy harbiy kengashi raisi A.I.Kork, RKP (b) MK O'rta Osiyo byurosi a'zosi Mixaylov va boshqalar kelishdi. Ular Buxoro hukumati faoliyatidan qoniqmayotganliklarini ochiq aytib, sotsialistik o'zgarishlarni jadallashtirish kerakligini ta'kidlashdi. Oradan ko'p o'tmay 12-iyunda RKP (b) MK Siyosiy byurosi maxsus qaror qabul qilib, Buxoro hukumatini sovetlashtirish chora-tadbirlarini belgilab berdi. Sovet hukumati o'z buyruqlarini tez va qarshiliksiz amalga oshirish uchun RKP (B) MK kotibi YA.E.Rudzutak ishtirok qilib, jo'natdi. 23-iyunda BKP MK yopiq plenumida Rudzutak ishtirok qilib, Buxoro hukumati rahbarlari va mahalliy kommunistlar oldiga qat'iy talablarni qo'ydi. Fayzulla Xo'jayevning eng yaqin safdoshlari bo'lgan sobiq Yosh buxorolik jadidlar Otaulla Xo'jayev (tashqi ishlar noziri), Fitrat (maorif noziri), Sattor Xo'jayev (moliya noziri), Muinjon Aminov (Buxoro EKOSO rayisi) lavozimlaridan chetlashtirilib, Buxoro davlati hududidan chiqarib yuborildi. Qori Yo'ldosh Po'latov, Abduraxim Yusufzoda, Muzaxar Maxsum Burhonov, Hoji Hamro Yo'ldoshev ham ma'sul lavozimlardan olib tashlandi. Buxoro hukumati Moskva va Toshkentning "kommunistcha sabog'i"ni olgan "tajribali sovet xodimlari" bilan to'ldirildi.

Buxoro hukumatida Turkistondan yuborilgan emissarlarning ta'siri tobora kuchayib bordi. Kommunistik unsurlar bu bilan cheklanib qolmasdan 14-avgustda bo'lgan Buxoro MIK favqulodda sessiyasida Konstitutsiya matniga o'zgartirish kiritishga ham muvaffaq bo'ldilar. 1923-yil 11-17-oktabrda bo'lgan Butun Buxoro xalq vakillarining IV

qurultoyi Konstitutsiyani o'zgartirish to'g'risidagi qarorni tasdiqladi. Unga binoan barcha savdogar, mulkdor va sobiq amaldorlar saylov huquqidan mahrum qilindi. Ammo ishchi va kosiblarning saylov huquqi kengaytirildi. Shuningdek, qurultoy jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni kuchaytiradigan "Sovet qurilishi to'g'risida" nomli maxsus qaror qabul qildi. Jamiyat tobora siyosiy lashib bordi. Buxoroda o'tkazilayotgan demokratik islohotlarning taqdiri xavf ostida qoldi. Markazning talabi bilan mamlakatda sun'iy ravishda sotsialistik qayta qurishlarni amalga oshirishga kirishildi. Respublikadagi bu keskin vaziyat qurolli muxolifat harakatining kuchayishida ham o'z ifodasini topdi.

Shunday qilib, 1923 -yil yozida mustabid sovet tuzumi Buxoroda o'ziga xos davlat to'ntarishini amalga oshirdi. Milliy qo'shin va milliy valyuta bolsheviklar tomonidan tugatildi. Bu holat Buxoro mustaqilligiga katta xavf tug'dirdi. Biroq Xorazm respublikasidan farqli ravishda, faqat 1924-yil kuzidan boshlab Buxoroda sotsialistik taraqqiyot tomon yo'nalish boshlandi.

1924-yil 18-20-sentabrda bo'lib o'tgan Butun Buxoro xalq vakillarining V qurultoyida BXS R Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi (BSSR)ga aylantirildi. BSSRning tuzilishi yuqoridan turib sun'iy tarzda amalga oshirilgan xodisa edi. Natijada taraqqiyotning demokratik yo'li inkor qilinib, sotsialistik yo'nalishi tanlandi. Markazdagi bolshevik rahbarlarining Buxoro va Xorazm respublikalarini sotsialistik respublikalarga aylantirishdan ko'zda tutgan asosiy maqsadi - mahalliy xalqlarni tezroq sovetlashtirish va ruslashtirish, xalqimiz ongiga kommunizm mafkurasini majburan singdirish edi. 1924-yil noyabr oyi oxirida xuddi Xorazm respublikasi singari Buxoro SSR ham tugatilib, uning hududi 1925-yilda tashkil etilgan O'zbekiston SSR (1929 -yilgacha tarkibida Tojikiston ASSR ham bo'lgan) va Turkmaniston SSRga kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro va Xorazm Xalq respublikalarining demokratik islohotlar tomon bosib o'tgan yo'li o'sha davr uchun ham, bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaralganda ham, mashaqqatli va ulug' yo'l bo'ldi. Buxoro va Xorazm respublikalari atiga 4-5-yil ichida dunyoviy islohotlar joriy qilinayotgan demokratik davlatga aylana boshladi. Afsuski, bu jarayonlar mustabid sovet tuzumi tomonidan sun'iy ravishda to'xtatib qo'yildi va nisbatan mustaqil bo'lgan bu davlatlarning mavjudligiga ham barham berildi. Buxoro va Xorazm respublikalarining tugatilishi bilan kamida uch ming yillik tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining milliy davlatchilik xalqasi deyarli uzib

tashlandi. O'zbekiston SSR tuzilsa ham (1925 -yil fevral) oradan ko'p o'tmay u SSSR tarkibiga kiritildi. O'zSSR amalda hech qanday mustaqil siyosiy huquqlarga ega bo'lmay, balki yangi shakldagi mustabid sovet rejimining bir qismi bo'lganligi uchun ham mustaqil davlat vazifasini o'tay olmadi.

12.MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON DAVLATINING TASHKIL TOPISHI.

Reja

1. O'zbekistonda suverenitet tendesiyasining kuchayishi va Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zgarishning boshlanishi.

2. O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilinishi.

3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

Tayanch so'z va iboralar. Prezident Instituti, davlat boshlig'i, Prezident vakolatlari, Mustaqillik Deklaratsiyasi, Mustaqillik asoslari

Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991 -yil 31-avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning Mustaqil Davlat, deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Unda «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida» hamda «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida»gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

1991-yil o'rtalarida Markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni taxlil qildi. 19-21-avgust kunlari Moskva Favqulodda holat davlat komiteti a'zolarining xalqlar ozodligi, respublikalar mustaqilligiga qarshi qaratilganligi xalqqa ro'y-rost bildirildi. Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so'ng O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Qonunni qabul qildilar. So'ngra respublika Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi, deb o'zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun — 1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni, deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi Konun 17-moddadan iborat bo'lib, mustaqil respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini o'ynaydigan bo'ldi. Ushbu qonunda O'zbekiston mustaqil demokratik davlat, deb e'lon qilindi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi. Respublikaning davlat bo'linishi hamda iqtisodiy

asoslari ham qonunda o'z aksini topdi. Shuningdek, ushbu hujjatda O'zbekistonning Qoraqalpog'iston bilan munosabatlari xususida so'z borib, O'zbekiston Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O'zbekiston tarkibida ekanligi e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi e'lon qilinishi bilan birga Davlat mustaqilligi bilan bog'liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. O'zbekiston erishgan istiqbolni mustahkamlash uchun mamlakatda referendum o'tkazishga qaror qilindi. 1991-yil 18-noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 29-dekabrda «Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'qullaysizmi?» mavzuida referendum o'tkazishga katta tayyorgarlik ko'rildi. Referendum yakuniga ko'ra unda qatnashgan aholining 98,2 foizi O'zbekiston mustaqilligini yoqlab ovoz berdi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekslerit guruhiga Davlat bayrog'ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish. Oliy Kengashning tegishli qo'mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog'i, madhiyasi haqida qonun loyihalarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshiriyatsi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrda bo'lib o'tgan VIII sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi» Qonun qabul qildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ulug' ajdodlarimizning aqida va maslayutariga mos keluvchi, millat tabiati xalqimiz ruhiyatidan keli chiqib, uning milliy va ma'naviy jihatlarini ham o'zida aks ettirmog'i kerak edi. Mamlakatimiz davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi yorqin ramzi bo'lib qoldi.

1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi» to'g'risida Qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma'noga ega. Gerb rangli tasvirda bo'lib, xumo qushi kumush rangda, quyosh, boshhoqlar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuvlar tilla rangda, g'o'za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, torlar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to'rt xil rangda berilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida «O'zbekiston Respublykasining

Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan madhiya nusxasi tasdiqlandi. Mustaqillik Konstitutsiyasi loyihasi O'zbekistonda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar hisobga olindi. Xususan, O'zbekiston mustaqilligini qonunlashtirish, iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o'tishning shartlari, davlat va jamiyat qurilishida demokratik tizimning tamoyillari, inson huquqining ustuvorligi ifodasini topdi. Konstitutsiyada bayon etiladigan masalalarni birma-bir o'rganib chiqish uchun 35 kishidan iborat ishchi guruh va har bir bo'limini alohida tayyorlaydigan kichik guruhlardan iborat komissiyalar tashkil etildi. Ishchi guruh va komissiyalar 1991-yilning oktabrida Konstitutsiyaning birinchi, 1992-yil bahorida ikkinchi nusxasini tayyorladi va shu nusxasi 1992-yilning 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Joylardan tushgan minglab takliflar o'rganib chiqilib, noyabr oyida ikkinchi marta matbuotda bosib chiqildi. Tuzatishlar va aniqlashlardan keyin mustaqil O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilindi. Mustaqillik Konstitutsiyasi muqaddima, olti bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo'ldi. Birinchi bo'limda Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari bayon etilib, unda Davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosatning bosh yo'nalishlari o'z ifodasini topdi. Asosiy Qonunning ikkinchi bo'limi 35-moddadan iborat bo'lib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Bunda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, O'zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilganligi, fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari, vijdon erkinligi va uning kafolatlanishi yoritilgan. Insonning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga bevosita hamda o'z vakillari orqali qatnashishlari, siyosiy partiyalar va harakatlarga qo'shilish huquqlari ta'kidlab ko'rsatilgan. Asosiy Qonunda fuqarolarning mulkdor bo'lish, mehnat qilish, nafaqa olish, o'z vaqtida dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish huquqlariga ega ekanligi aniq qilib bayon etilgan va bu huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan taminlanadi, deb ta'kidlab qo'yilgan. Barcha fuqarolar uchun Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlar, chunonchi, qonunlarga rioya qilish, xalqimizning tarixiy, ma'naviy meroslarini avaylab saqlash, atrof tabiiy muhitni asrash, soliqlar va mahalliy yig'imlarni o'z vaqtida to'lash, Vatanni himoya

qilish kabi burchlar majburiy ekanligi ta'kidlangan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi qachon o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan?
2. O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari qaysilar va ular qachon tasdiqlangan?
3. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlarini sharhlab bering.
4. O'zbekiston Respublikasida Qonun chiqaruvchi hokimiyatning shakllanishi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
5. O'zbekiston Respublikasi Qonun chiqaruvchi hokimiyati faoliyati?
6. O'zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyat faoliyati?
7. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati faoliyati?

AMALIY MASHG'ULOTLAR REJASI

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari va ularning qisqacha tavsifi

- 1-Mavzu: O'zbekistonda qadimgi davr davlatchiligi.
1. Baqtriya, Katta Xorazm, sak- massagetlar konfederatsiyasi, Fargona davlatlarining ijtimoiy va arxeologik belgilari.
 2. Ilk davlatchilik tuzilmalarining yuzaga keltirgan muxim omillar: sun'iy sugorishga asoslangan ilk dehqonchilik madaniyati, metalning kashf etilishi, qo'shimcha mahsulotlar, xususiy mulk, maxsulot ayrboshlash, savdo-sotiq munosabatlari.
 3. Fargona vodiysi hududida ilk davlatchilik izlari: Dalvarzin, Ashkoltepa (Andijon viloyati), Chust madaniyati (Namangan viloyati).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A. O'rta Osiyo qadimgi dunyosining asosiy xujjatlari. UIF, 1994, 6-son, 33-bet.
2. Bichurin N.Ya. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена.
3. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi T.Sharq, 2000, 27-56 betlar.
4. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari T.Sharq, 2001, 8-42 bet.

2-mavzu: "Avesto" kitobi o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda eng qadimgi manbadir.

1. "Avesto" da qadimgi ajdodlarimizning boshqaruv tizimi, ijtimoiy turmushi va madaniy xayotiga oid ma'lumotlar.
2. Zardushtiylik dinida ezgulik va yovuzlik g'oyalari, dinning xalqni birlashtirishdagi o'rni.
3. Mustaqillik va "Avesto" ning 2700 -yilligi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7, T. 1999, 132-154-betlar.
2. Muxsin Umarzoda. Avesto sirlari. Jahon adabiyoti, №4, 1997, 195-202-betlar.
3. Xomidjon Xomidiy. Ko'hna Sharq darg'alari. T.Sharq, 1999, 6-13bet.
4. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.2000, 25-48 betlar.

Mavzu: Kushonlar saltanati va uning vatanimiz xalqlari hayotida va tarixida tutgan urni.

REJA:

1. O'zbek davlatchiligi tarixida "saltanatchilik" bosqichini boshlanishi.
2. Pul islohoti, budparastlikning yo-yilishi, yozuv(sugdcha yozuv).
3. Kushonlar saltanatining davlatchiligimiz tarixida tutgan o'mi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Zie. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.Sharq, 2000, 64-72 betlar.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.7., T.1999, 132-154 betlar.

Mavzu: Yurtimizda islom dinining e-yilishi. Islom omili. Islom sivilizatsiyasi.

REJA:

1. Davlatchiligimiz tarixida dunyoviy va diniy g'oyalar birligi.
2. Davlatchiligimiz taraqqiyot bosqichlarida islom dinining tutgan o'mi
3. Mustaqillik yillarida islom dinining e'tiqod sifatida qaytadan tiklanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.Sharq, 2000 -yil.
2. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. T.2001, 93-104 betlar.
3. Vatan tuygusi. T.O'zbekiston, 1996, 103-133 betlar.

Mavzu: Milliy davlatchiligimiz tarixida "oltin asr" (X-XII asrlar).

REJA:

1. Davlat boshqaruvidagi hokimiyat taqsimoti.
2. Ilm- fanni gurkirab rivojlanishi. Uning omillari.
3. O'zbek xalqining xalq sifatida shakllanish bosqichi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.7, T. 1999, 132-154 betlar.
2. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.Sharq, 2000, 92-104 betlar.
3. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T.2001, 62-93 betlar.
4. Ibroximov A. Bizkim o'zbeklar. T.Sharq, 1999, 29-47 betlar.
5. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. T.O'zbekiston, 1995, 9-123 betlar.

Mavzu: Davlatchiligimiz nazariy asoslarini ishlab chiqilishi.

REJA:

1. Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shaxri" asarida davlat boshqaruv shaklini monarxiya shaklida emas. balki demokratiya shaklida ilgari surilishi.
2. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarida shox, vazir, harbiy qo'mondon, davlat elchilari, kotiblar, xazinachi, olimlar, dehqonlar va savdogarlarning oldiga qo'yilgan talablar.
3. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asarida markaziy davlatning yagona bir g'oyaga ega bo'lishi zarurligi masalasini ilgari surilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yulimiz mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo'li. T.P, T. 1996, 210-232 betlar.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. T.1993, 223 betlar.
3. Nizomulmulk. Siyosatnoma. T.Adolat, 1997, 256 bet.
4. Temur tuzuklari, T.1996, 344 bet.
5. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.2000, 3-311 betlar.

Mavzu: Sohibqiron Amir Temur bobomizni o'zbek davlatchiligi taraqqiyot bosqichiga qo'shgan xissasi.

REJA:

1. Amir Temurning 35 -yillik hukmdorlik faoliyatida ikki asosiy jihatga e'tibor berilishi:
 - a) qonun ustivorligi;
 - b) barcha ijtimoiy guruhlar manfaatlarini tengligi;
2. Temur tuzuklarida saltanatni boshqarish usullari.
3. "Temur tuzuklari" va hozirgi zamon.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.1999.
2. Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. T. Mehnat, 1992, 190-bet.
3. Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. T.A.Qodiriy, 1997, 1656.
4. Olti asr adolati. T.O'zbekiston, 1998, 140-bet.
5. Azamat Ziyoy. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. 2000 y.
6. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T.2001 y.

Mavzu: Davlatchiligimiz tarixida shayboniylar sulolasining urni va roli.

REJA:

1. Temuriylar saltanati parchalangandan so'ng XVI asrda Turon va Eronda ikki Yangi siyosiy kuch - shayboniylar va safaviylar. Turondagi ijtimoiy siyosiy vaziyat.
2. Mamlakatni nafaqat siyosiy, balki mafkuraviy jihatdan ikkiga bo'linib ketishi. Shayboniylar sulolasining mamlakat va mintaqani birlashtirish borasidagi faoliyati.
3. Shayboniylar sulolasi davrida o'zbek xalqining shakllanish jarayonining nihoyasiga etishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.. T. 1999.
2. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. 2000
3. Ibroximov A. Bizkim o'zbeklar. T. SHark, 1999, 29-47 betlar.
4. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T. 2001.

Mavzu: Qo'qon xonligining davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rni.

REJA:

1. Qo'qon xonligining tashkil topishini asosiy omillari:
2. XVII asr oxiri- XVIII asr boshlarida Buxoro xonligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xayotida yuz bergan tushkunlik.
3. Farg'ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o'sishi. Hududning yahlitligi.
4. Davlat boshqaruv tizimi, armiya, soliq va majburiyatlar, ilm-fan, xalq ommasining ahvoli.
5. Qo'qon xonligining tugatilishini sabablari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur Z.M. Boburnoma. T. Yulduzcha, 1989, 368-bet.
2. Ibrat. Farg'ona tarixi. T., Kamalak, 1995, 335-bet.
3. Bobobekov X.N. Qo'qon tarixi. T. Fan., 1996, 239-bet.
4. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. 2000.
5. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T. 2001.

10 - Mavzu: Turkiston o'lkasini CHor Rosiyasi tomonidan bosib olinishi va davlatchiligimiz

REJA

1. CHor Rosiyasining harbiy istilosi tufayli mustakillikning To'laravishda, Buxoro va Xivada qisman boy berilishi.
2. Mustamlakachilikning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy soxadagi ko'rinishlari.

3. Mintaqa xalqlarining milliy manfaatlarini, madaniyatlarini, ularning eng oddiy haq-huquqlarini mensimaslik

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Mustaqilligimiz boqiy bo'lsin. (Bizdan ozod va obod Vatan qolsin) T.2, T., 1996, 283-284 betlar.
2. Ibroximov A. Bizkim o'zbeklar. T. Sharq, 1999, 257-264 betlar.
3. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T. 2001
4. Ziyoyev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T. Sharq, 1998, 480 bet.

Mavzu: Turkiston o'lkasida jadidchilik xarakati va ularning davlatchilik g'oyalari.

REJA:

1. Jadidlarning milliy taraqqiyot g'oyalari. (Islohotchilik g'oyalari).
2. 1917 -yil fevral inqilobi, 1917 -yil 25-oktyabrdagi davlat to'ntarishi, Turkiston muxtoriyati va XX asrning 20, 30, 40, -yillarida ularga nisbatan bo'lgan munosabat.
3. Jadidchilik va hozirgi zamon.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to'plam. №1 T. Universitet, 1999, 219 bet.
2. Do'stqorayev B. Turkistonning usuli idorasi qanday bulmog'i kerak edi? Jadidlarning davlat tuzumi to'g'risidagi qarashlari... Jamiyat va boshqaruv, 1987, №2, B.13-16; 1998, №3, B.Zb-46.

Mavzu : O'zbekistonda milliy davlat chegaralanishini o'tkazilishi va uning oqibatlari.

REJA

1. Sovetlar davlatining "milliy birlashish formulasi" - shaklan mustaqil (konstitutsiya, bayrog'i, madhiya) mazmunan mutloq qaram milliy respublikalarning tashkil topishi.
2. Milliy davlatchiligimizga putur yetkazilishi.
3. Bolsheviklar andozasidagi milliy-hududiy chegaralanishning salbiy oqibatlari. O'rta Osiyo xalqlari o'rtasidagi millatlararo munosabatlarni keskinlashishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tariximiz ham, kelajagimiz ham mushtarak. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2, T. 1996, 233-242 betlar.
2. Alimova D, Golovanov A. O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari (1917-1990). T. O'zbekiston, 2000, 73-bet.

3. Ziyoyeva D. Kishanning so'nggi xalqalari. (Jamiyat va boshqaruv) 1997, №1, B.60-62.

Mavzu: O'zbekistonni sovetlar modelidagi taraqqiyoti va uning oqibatlari.

REJA:

1. Yangi iqtisodiy siyosat, 1925-1929 -yillardagi yer-suv islohoti va uning oqibatlari.
2. Industralashtirish, qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati va uning oqibatlari.
3. Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan "madaniy inqilob" va uning oqibatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T. SHark, 2000, 689 bet.
2. Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. T. Sharq, 2001, 366 bet.
3. Ziyoyev X. Sovet davrida O'zbekistonda qanday siyosiy va ijtimoiy tuzum hukm surgan? "Muloqot", 1993, №9, №10, B.33-36.

Mavzu: XX asrning 20 - 80 -yillarida shurolar hokimiyatining qatag'onlik siyosati va uning salbiy oqibatlari.

REJA:

1. Sho'rolar hokimiyatining siyosiy qatag'onlik siyosatini mazmun mohiyati.
2. "18 lar guruhi", Inogomovchilik, Qosimovchilik, Badriddinovichlar. O'zbek ziyolilari ustidan yuritilgan qatagonlik siyosati. 50-80 -yillarda qatagonlikning Yangi to'lqinlari.
3. Siyosiy qatag'onlikning salbiy oqibatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.-7, 1999, 132-154 betlar.
2. O'zbekiston Yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T. Sharq, 2000, 689 bet.

Mavzu: Mustaqillik va milliy davlatchiligimizni qaytadan tiklanishi

REJA

1. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik asoslarini qurilishi.
2. Eski ma'muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish.
3. Yangi davlatchilikning huquqiy va siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yo'limiz - mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo'li. (Bizdan ozod va obod Vatan qolsin) T.2., T. 1996, 210-232 betlar.
2. Boboev X., Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. - T. Yozuvchi., 1999, 48-bet.
3. Boydadaev M. O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi tizimi shakllanishi va rivojlanishining huquqiy asoslari. T. "Akademiya", 1999, 184 bet.
4. Jalilov SH. Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti: tajriba va muammolar. T. O'zbekiston, 1994, 192 bet.

**MUSTAQIL ISH
MAVZULARI**

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi.

"O'zbek davlatchiligining shakllanish bosqichlari va ilk shaharlar" fani bo'yicha o'quv qo'llanmaning (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizmlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

"O'zbek davlatchiligining shakllanish bosqichlari va ilk shaharlar" fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamlil ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq xolda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

| Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bulim va mavzulari | Mustaqil ta'limga oid topshirik va tavsiyalar | Bajarilish muddatlari | Xajmi (soatda) |
|--|--|-----------------------|----------------|
| «Avesto» kitobi davlatchiligimiz to'g'risidagi ilk yozma manbai. | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish. | 1-hafta | 8 |
| Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarida davlatchilik g'oyalarning yoritilishi. | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish. | 2-hafta | 8 |
| Yusuf Hos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida ilm — fanga berilgan e'tibor. | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish. | 3-hafta | 6 |
| Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shaxri» asarida odil jamiyat g'oyasini ilgari surilishi. | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish. | 4-hafta | 6 |
| Amir Temur tuzuklari va hozirgi zamon. | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish. | 5-hafta | 6 |
| Istiqlol va milliy davlatchiligimiz. | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish. | 6-hafta | 6 |
| O'zbek davlatchiligi tarixida Qo'qon xonligining tutgan o'zni. | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish. | 7-hafta | 6 |
| Ikki palatali parlamentga o'tish — | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil | 8-hafta | 6 |

| | | | |
|--|--|----------|----|
| milliy davlatchiligi-mizni takomillashuvi. | o'zlashtirish. | | |
| O'zbek davlatchiligi nazariy manbalarida hukmdorga qo'yilgan shartlar. | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish. | 9-hafta | 6 |
| Istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlarimizni tiklanishi. | O'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish. | 10-hafta | 6 |
| Jami | | 10 | 64 |

TARQATMA MATERIALLAR
TO'PLAMI

VARIANT № 1

1. O'zbekiston hududida paleolit davri.
2. Shohruh hukmronligi davrida Xuroson.
3. Mustaqillik -yillarida iqtisodiy islohotlar.

VARIANT № 2

1. O'zbekiston hududida mezolit davri.
2. G'aznaviyalar davlati.
3. 1996 -yil-Amir Temur yili.

VARIANT № 3

1. O'zbekiston hududida neolit davri.
2. O'zbek xalqining etnik shakllanish jarayoni.
3. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik va uning demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati.

VARIANT № 4

1. O'zbekiston hududida eneolit va bronza davri manzilgohlari.
2. Qoraxoniylar davlati.
3. 2006 -yil 26 avgustdagi «Milliy g'oya targ'iboti va manaviy-ma'rifiy ishlar samaradiligini oshirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 451-sonli qarori mohiyati.

VARIANT № 5

1. O'zbekiston hududida temir davriga o'tish.
2. Shayboniyxon tomonidan Movarounnahr va Xurosonning zabt etilishi.
3. O'zbekistonda mustaqillik -yillarida harbiy islohotlar va mudofaa qudratining mustahkamlanishi.

VARIANT № 6

1. O'zbekiston hududida ilk davlatlar.
2. Sharqiy Buxoroda istiqloq uchun kurash.
3. O'zbekistonda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi.

VARIANT № 7

1. Ellinlashtirish siyosati.
2. Xiva xonligida madaniy hayot.
3. O'zbekistonda milliy mustaqillikni qo'lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati.

VARIANT № 8

1. Yunon-Baqtriya davlati.
2. Shayboniylar davlati.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi.

VARIANT № 9

1. Eftaliylar davlati.
2. Xiva xonligining tashkil topishi.
3. O'zbekistonda «Mustaqillik deklaratsiyasi»ning qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.

VARIANT № 10

1. Salavqiylar davlati.
2. Qo'qon xonligining tashkil topishi.
3. O'zbekistonda xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma korxonalarining barpo etilishi.

TEST SAVOLLARI

«O'zbek davlatchiligi tarixi» fanidan test savollari

1. O'zbek davlatchiligi tarixining miloddan avvalgi 1 ming - yilliklari bo'yicha ma'lumot beruvchi yozma yodgorlikni ko'rsating.
A) «Zafarnoma» B) «Shoxnoma»
V) «Avesto» G) Buxoro tarixi
2. «Avesto»da Qadimgi Xorazm qanday nom bilan atalgan?
A) Xvarizam B) Mouru
V) Xarayva G) Ayrenam Vejo
3. «Avesto» ma'lumotlariga ko'ra Axuramazda tomonidan yaratilgan to'rtinchi mamlakat qaysi?
A) Baqtriya B) Xorazm
V) Niso G) Ariya
4. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra Xorazm Ahamoniylarga qaram bo'lgan nechanchi okrug tarkibiga kirgan?
A) XV B) XVII V) XVI G) XVIII
5. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriya Ahamoniylarga qaram bo'lgan nechanchi okrug tarkibiga kirgan?
A) XII B) XIV V) XV G) XVI
6. «Avesto»ga ko'ra o'lkamizda boshqaruv tizimi qanday bo'lgan?
A) Oqsoqollar kengashi
B) Xalq yig'ini
V) Ayrim viloyat va tuman hukmdorlarining boshqaruvi
G) Barcha javoblar to'g'ri
7. Dastlabki davlatlar qanday belgilar asosida tashkil topgan?
A) etnik guruhlarining til belgilari asosida
B) Hududiy belgilar bo'yicha
V) Urug'-qabilaviy belgilar bo'yicha
G) Barcha javoblar to'g'ri
8. Qadimgi Baqtriya hududiga qayerlar kirgan?
A) O'zbekistonning janubi va Turkmanistonning sharqi
B) Afgoniston shimoli, Turkmanistonning sharqi
V) O'zbekistonning g'arbi, Turkmanistonning sharqi
G) O'zbekiston va Tojikistonning janubi, Afgonistonning shimoli
9. Qaysi manbalarda Baqtriya «Baxdi» deb nomlanadi?
A) «Avesto»da

- B) Hind manbalarida
 V) Yunon manbalarida
 G) Behistun yozuvlarida
10. Qadimgi massaget qabilalari qaysi hududlarda yashaganlar?
 A) Tog'larda
 B) Saxro va Amudaryo bo'ylarida
 V) Adirlarda
 G) Daryo va ko'llar bo'yida
11. Qadimgi saklar qayerlarda yashaganlar?
 A) shaharlarda
 B) tog', sahro va cho'llarda
 V) daryo bo'ylarida
 G) adirlarda
12. Antik davr tarixchilari saklarni necha guruhga ajratadilar?
 A) Beshta B) Ikkita V) Oltita G) Uchta
13. Vatanimiz hududlarida qadimgi shaharlar qachon va qay tariqa vujudga keldi?
 A) Mil.av. IX-VIII asrlarda dehqonchilik va savdoning rivojlanishi oqibatida
 B) Mil.av. VIII-VII asrlarda chorvachilik va savdoning rivojlanishi oqibatida
 V) Mil.av. VII-VI asrlarda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi oqibatida
 G) Mil.av. VI-V asrlarda dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi oqibatida
14. O'zbekistondagi dastlabki davlat uyushmalari qaysi zarurat tufayli tashkil topgan?
 A) Dehqonchilik vohalari aholisini tashkil xavfdan himoya qilish
 B) Chorvador aholini huquqiy jihatdan boshqarish
 V) O'troq jamoa munosabatlarini huquqiy boshqarish
 G) A va V javoblar
15. Yunon tarixchilari naql qilgan «Ming shahar mamlakati» qayer?
 A) Sug'd B) Marg'iyona V) Davon G) Baqtriya
16. Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari qachon tashkil topgan?
 A) mil.av. IV asr o'rtalarida
 B) mil.av. III asr oxirlarida
 V) mil.av. III asr o'rtalarida
 G) mil.av. II asr o'rtalarida

17. Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga qaysi hududlar kirgan?
 A) Xorazm, Shosh, Sug'diyona
 B) Marg'iyona, Xorazm, Shosh
 V) Sug'diyona, Xorazm, Marg'iyona
 G) Sug'diyona, Baktriya, Marg'iyona
18. Qang' davlatiga qachon va kimlar asos solganlar?
 A) mil.av. II asrda massagetlar
 B) mil.av. III asrda saklar
 V) mil.av. IV asrda sug'dlar
 G) mil.av. III asrda xorazmliklar
19. Qang' davlati taraqqiyotining yuksak cho'qqisiga qachon erishgan?
 A) mil.av. I asr oxirlarida B) mil.av. II asr boshlarida
 G) mil.av. I asr boshlarida
 V) mil.av. II asr oxirlarida
20. Miloddan avvalgi IV asrda tashkil topgan Xorazm davlati Makedoniyalik Iskandar, salavkiylar, Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari tarkibiga kirganmi?
 A) Faqat Iskandar davlati tarkibiga kirgan
 B) Xech qaysi biri tarkibiga kirmagan
 V) Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirgan
 G) Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan
21. Dovon davlati qaysi asrlarda mavjud bo'lgan?
 A) mil.av. IV asrdan-milodiy III asrgacha
 B) mil.av. III asrdan – milodiy III asrgacha
 V) mil.av. III asrdan – milodiy II asrgacha
 G) mil.av. III asrdan – milodiy I asrgacha
22. Dovon davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?
 A) Axi B) Koson V) Shurabashat G) Ershi
23. Kushon davlati qaysi asrlarda hukm surgan?
 A) mil.av. II asrdan – milodiy III asrgacha
 B) milodiy I-IV asrlarda
 V) milodiy I-V asrlarda
 G) mil.av. I milodiy III asrlarda
24. Kushon davlatida dastlab hukmdor qanday nom bilan atalgan?
 A) shaxanshox B) hoqon V) yabg'u G) podsho
25. Qaysi davrda o'lkamizda oromiy yozuvi keng tarqaldi?
 A) eftaliylar davrida

- B) kushonlar davrida
- V) xioniylar davrida
- G) kidariylar davrida

26. Eftaliylar davlati qaysi davrda hukm surgan?

- A) milodiy I-V asrlarda
- B) V-VI asrlarda
- V) V-V asrlarda
- G) III-IV asrlarda

27. III asrda tashkil topgan Xorazm davlatini qaysi sulola vakillari boshqarganlar?

- A) kayoniylar
- B) toxarlar
- V) siyovushiylar
- G) afrig'iylar

28. Qaysi podsho davrida Xorazmning poytaxti Tuproqqal'adan Kat shaxriga ko'chirilgan?

- A) podsho Afrig'
- B) podsho Arsamux
- V) podsho Farasman
- G) podsho Vazamar

29. Sosoniylar bilan eftaliylar o'rtasidagi kurash qaysi sosoniy hukmdori davrida kuchayadi?

- A) Anushervon
- B) Xusrav
- V) Pero'z
- G) Kubod

30. Eftaliylar davlati tarkibiga qaysi hududlar kirgan?

- A) Kaspiyning shimoli, Eron, O'rta Osiyo
- B) O'rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston
- V) Shimoliy Hindiston, Volgabo'yi, O'rta Osiyo, SHarqiy Turkiston
- G) O'rta Osiyo, Xuroson, Qashg'ar

31. Eftaliylar dastlab ichki va tashki savdoda kimlarning tangalaridan foydalanganlar?

- A) Kushonlarning
- B) Qang'lilarning
- V) Sosoniylarning
- G) Xioniylarning

32. Eftaliylar yozuvi qaysi yozuv asosida kelib chiqqan?

- A) yunon yozuvi
- B) kushon yozuvi
- V) xorazm yozuvi
- G) baqtriya yozuvi

33. Turk xoqonligida hokimiyat qay tartibda boshqarilgan?

- A) urug'-aymoqchilik udumlariga asoslangan xolda
- B) demokratik tamo-yillar asosida
- V) harbiy-ma'muriy boshqaruv asosida
- G) A va V javob to'g'ri

34. Turk xokonligida «shod» qanday lavozim edi?

- A) o'n ming kishilik kushin sardori
- B) soliqlar boshqaruvchisi
- V) yuz ming kishilik kushin boshlig'i
- G) xazinabon

35. Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo qanday boshqarilgan?

- A) O'lkani iqtisodiy va siyosiy boshqaruvi yerli sulola vakillari qo'lida qoldirildi
- B) turklar mahalliy aholi hokimlaridan fakat boj-xiroj yigishtirib olganlar
- V) ular ulkadagi mahalliy sulolalarni tugatdilar, fakat turklardan hokim tayinladilar
- G) A va B javoblar.

36. Somoniylar davlatida elchilik aloqalari bilan qaysi devon shugullangan?

- A) Amid ul-mulk
- B) Soxibi shurat
- V) Ariz
- G) Mustavfiy

37. Somoniylar davlatida boshqaruv tizimida nechta devon faoliyat ko'rsatgan?

- A) 9 ta
- B) 12 ta
- V) 10 ta
- G) 8 ta

38. Somoniylar davlatida bosh xojob qanday vazifani bajargan?

- A) oliy hukmdor farmonlarini tegishli shaxslarga yuborish
- B) dargoh va boshqa davlat idoralari xavfsizligini ta'minlash
- V) sarofning xujalik ishlarini yuritish
- G) boshqa davlat elchilarini kutib olish va ularga xizmat ko'rsatish

39. Qaysi sulola davridan boshlab iqto yerlari vaqtinchalik in'omdan umrbod merosiy mulkka aylana boshlagan?

- A) somoniylar
- B) qoraxoniylar
- V) saljuqiylar
- G) xorazmshoxlar

40. Qoraxoniylar davlatining hukmdori qanday nom bilan atalgan?

- A) Arslonxon
- B) Bugroxon
- V) Qoraxon
- G) Gurxon

41. G'aznaviylar davlati rasman tan olingan -yilni ko'rsating.

- A) 995 -yil
- B) 996 -yil
- V) 993 -yil

G) 998 -yil

42. Saljuqiylar vaziri Nizomulmulk qalamiga mansub asarni ko'rsating.

A) «Shoxnoma»

B) «Podshohnoma»

V) «Zafarnoma»

G) «Siyosatnoma»

43. G'aznaviylar davrida viloyat boshlig'i qanday nom bilan atalgan?

A) kutvol

B) nuyon

V) voliy

G) muxtasib

44. Saljuqiylarning qaysi noibi «xorazmshox» unvonini qayta tiklagan?

A) Elarston

B) Takash

V) Alouddin Muhammad

G) Qutbiddin Muhammad

45. G'aznaviylar davlatida viloyat ijroiya boshqaruv ishlarini olib boruvchi amaldor qanday nom bilan atalgan?

A) amid

B) shigovul

V) xojib

G) rais

46. Xorazmshox Takash Nishopur, Ray va Marv shaharlarini qachon zabt etgan?

A) 1172-1174 -yillarda

B) 1183-1187 -yillarda

V) 1195-1199 -yillarda

G) 1187-1193 -yillarda

47. Amir Temur Movarounnahr amiri deb e'lon qilingan sanani aniqlang.

A) 1370 -yil 9 aprel'

B) 1370 -yil 10 aprel'

V) 1370 -yil 11 aprel'

G) 1370 -yil 12 aprel'

48. Amir Temur davrida davlat boshqaruvi nechta idoradan iborat bo'lgan?

A) 10 ta

B) 2 ta

V) 7 ta

G) 5 ta

49. Amir Temur davrida ijroiya hokimiyati (devon) da nechta vazir faoliyat yuritardi?

A) 2 ta

B) 3 ta

V) 4 ta

G) 8 ta

50. Amir Temur davlatida askariy qismlarni viloyatlardan to'plash ishi bilan qaysi mansabdor shug'ullangan?

A) yasovulboshi

B) devonbegi

V) aylboshi

G) tavochi

51. Sadri A'zam ...

A) bosh qozi

B) vaqf ishlari boshqaruvchisi

V) shikoyatlarni ko'ruvchi

G) shariat qoidalari ijrochisi, bozordagi tartibni nazorat qiluvchi

52. Muxtasib bu...

A) bosh qozi

B) vaqf ishlari bajaruvchisi

V) shikoyatlarni ko'ruvchi

G) shariat qoidalari ijrochisi, bozordagi tartibni nazorat qiluvchi

53. Amir Temur qo'shinida «izofa» qanday bo'linma hisoblangan?

A) o'ng qanot

B) zahira qism

V) chap qanot

G) qo'riqchi bo'linma

54. Fulus nima?

A) katta xajmdagi kumush tanga

B) sarroflik cheki

V) kichik xajmdagi kumush tanga

G) mayda mis chaka

55. 1469 -yildan e'tiboran...

A) Dashti Kipchoq o'zbeklarining Movarounnahrda yurishi boshlandi

- B) Temuriylar davlati yana ikki qismga bo'linib ketdi.
 V) Movarounnaxrda Sulton Ahmad hukmronligi boshlandi
 G) Temuriylar davlati yagona davlatga birlashtirildi.

56. Tamg'a solig'i qanday soliq?

- A) yer solig'i
 B) xunarmandchilik solig'i
 V) jon solig'i
 G) chorva solig'i

57. XIX asrning 2-yarmida Buxoro amirligining maydoni qanchaga teng edi?

- A) 20 ming kv.km.
 B) 300 ming kv.km.
 V) 450 ming kv.km.
 G) 200 ming kv.km.

58. O'zbek xonliklari davrida yerga egalik qilishning necha xil turi mavjud edi?

- A) 3 xil: amlok, vaqf, mulk
 B) 2 xil: vaqf, mulk
 V) 4 xil: amlok, vaqf, mulk, xolisa
 G) barcha javoblar to'g'ri

59. XIX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy hayotdagi turg'unlikning asosiy ichki sabablari nimada edi?

- A) hokimiyat uchun kurash va o'zaro ichki nizolar
 B) yirik sanoat korxonalarining yo'qligi
 V) eskicha ishlab chiqarish munosabatlari
 G) A va V javoblar

60. Xonliklar davrida yerning asosiy egasi kim edi?

- A) dehqon
 B) hukmdor
 V) chorikor
 G) beklar

61. «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi muvaqqat nizom» qachon qabul qilingan?

- A) 1866 -yil 26 iyunda
 B) 1865 -yil 5 sentyabrda
 V) 1865 -yil 6 avgustda
 G) 1867 -yil 17 oktyabrda

62. 1865 -yilgi Nizomga ko'ra, hokimiyat boshqaruv tizimi nima deb nomlangan?

- A) mahalliy boshqaruv
 B) harbiy xalq boshqaruvi
 V) tuzim boshqaruvi
 G) yangi siyosiy boshqaruv

63. Chor ma'muriyati davrida rais lavozimi qanday vazifani bajargan?

- A) vaqf mulklari bilan shugullangan
 B) bozordagi narx-navoni nazorat qilgan
 V) maktab-madrasalarni ishi bilan shug'ullangan
 G) politsiyachilik vazifasini bajargan

64. Chor hukmronligi davrida qozilar necha -yil muddatga saylangan?

- A) 4 -yilga
 B) 5 -yilga
 V) 3 -yilga
 G) 2 -yilga

65. Turkiston general -gubernatorligi tashkil etilgan vaqtda dastlab u qaysi viloyatlardan iborat edi?

- A) Sirdaryo va Ettisuv
 B) Sirdaryo, Ettisuv, Fargona
 V) Samarqand, Ettisuv
 G) Kaspiyorti, Ettisuv

66. Ashtarxoniylar davrida mamlakat...

- A) xar jihatdan taraqqiy etdi
 B) markazlashgan davlatga aylandi
 V) inqirozga yuz tutdi
 G) to'g'ri javob yo'q

67. Buxoro amirligida qushbegi qanday lavozim edi?

- A) bosh vazir
 B) amirlik maslahatchisi
 V) bosh qo'mondon
 G) bosh qozi

68. Buxoro amirligi nechta beklilikdan iborat bo'lgan?

- A) 25 ta
 B) 26 ta
 V) 27 ta
 G) 28 ta

69. Buxoro amirligi harbiy qo'mondonlarining bosh qo'mondoni nima deb atalgan?

- A) bosh amir
- B) sipoxsolor
- V) mingboshi
- G) tupchiboshi

70. Buxoro amirligida sanoat ishlab chiqarishning asosiy tarmogi qaysi soxa bo'lgan?

- A) paxta tozalash va uni qayta ishlash
- B) gilam va namat tayyorlash
- V) terini qayta ishlash
- G) pillani qayta ishlash

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017
2. Mirziyoyev. Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017
3. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000.
4. Eshov B.J. O'rta Osiyo qadimgi shaharlari tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006.
5. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyo shaharlari tarixi. Darslik. – T., Fan va texnologiya, 2008.
6. Eshov B.J. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, Ma'rifat. 2009.
7. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro. – T.: Fan, 1991.
8. Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. – T.: Fan, 1988.
9. Sagdullaev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. O'quv qo'llanma – T.: Universitet, 2004.
10. Sagdullaev A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. O'quv qo'llanma – T.: Akademiya, 2000.
11. Sobirov Q. Xorazm qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari (mil.avv. VI asrdan milodiy IX asrgacha). – T., Fan, 2009.
12. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari – T.: Sharq, 2001.
13. Abulg'ozir Bahodirxon. Shajarai Turk. T., 1992.
14. Abdulazim Somiy. Tarixi salotini mangitiya. «Sharq yulduzi». 1993, 3-4 sonlar.
15. Avesto. Избранные гимни. Перевод с персидского, введение, коммента. I.M. Streblin-Kamenskogo. – Dushanbe.: Adib. 1990
16. Abu Tohirxo'ja. Samariya. T., 1991.
17. Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T., 1991.
18. Ahmedov B.A. O'zbek ulusi. T., 1992.
19. Ahmedov B.A. Tarixdan saboqlar. T., 1994.
20. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T., 1968.
21. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. «Hadis», T., 1991.
22. «Avesto» San'at jurnali. 1991, 5-12 sonlar, 1992, 1-son
23. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. T., 1991.
24. Binoiy. Shayboniy noma. T., 1990.
25. Bobur Zaxiriddin Muhammad. Boburnoma. T., 1982.

26. Boboev X. Qo'qon tarixi. T., 1996.
27. Vamberi X. Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi. T., 1990.
28. Ibn Arabshoh. Temur tarixi. T., 1992.
29. Ibrahimov N. Ibn Batuta va uning O'rta Osiyo bo'ylab sayohati. T., 1993.
30. Mirza Olim Mushrif. Qo'qon xonligi tarixi. T., 1995.
31. Mir Muhammad Amin Buxoriy. Ubaydullanoma. T., 1957.
32. Muhammad Solih. Shayboniynoma. T., 1989.
33. Muhammad Yusuf Munshi. Muqimxon tarixi. T., 1956.
34. Muhammadjonov A.R., Ne'matov T. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar. T., 1957.
35. Mo'minov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T., 1968.
36. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. T., 1994.
37. Mahmud Qoshgariy. Turkiy so'zlar lug'ati. 1-jild. T., 1960.
38. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T., 1996.
39. Nizom-ul-Mulk. Siyosatnoma. T., 1997.
40. Lunin B.V. Istoriya Uzbekistana v istochnikaх. T., 1990.
41. Sa'dullaev A.S. Qadimgi O'zbekistonda ilk yozma manbalar. T., 1996.
42. Temur tuzuklari. Fors tilidan A. Sog'iniy va X. Karamatov tarjimasi. T., 1991.
43. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. T., 1-kitob, 1999.
44. www.ziyonet.net
45. www.history.ru

MUNDARIJA

Tayyorlash kerak

G'offorov Shokir Safarovich

«O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI» FANIDAN

O'QUV QO'LLANMA

Bakalavriat: 5120300-Tarix(jahon mamlakatlari bo'yicha) yo'nalishi

4-kurs talabalari uchun

Muharrir
Musahhih
Texnik muharrir

O.Sharapova
N. Isroilov
O.Shukurov

ISBN 978-9943-

2021-yil _____ da tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.
2021-yil _____ da original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 60x84.1/16, "Times New Roman" garniturasini.
Offset qog'oz. Shartli bosma tabog'i – 9,75.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № _____

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



